

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
UDK:

NIYOZOV SULTONMUROD OCHILOVICH

**INTELLEKTUAL KAPITAL VA UNING HISOBINI TASHKIL
QILISH MUAMMOLARI**

5A230901 - «Buxgalteriya hisobi» (tarmoqlar bo'yicha) mutaxassisligi
bo'yicha magistr darajasini olish uchun yozilgan

MAGISTRLIK DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:
i.f.n., dots. A.T.Maxkamboyev

Toshkent- 2014

Qisqacha annotatsiya. Ushbu magistrlik dissertatsiya ishida iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida intellektual kapital hisobi va tahlilini takomillashtirish bo'yicha muallif tomonidan ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Short annotation. In this work of master dissertation according to account of intellectual capital and developing of discussion in modernization state scientific offer and also practical recommendation discovered by author.

Magistrlik dissertatsiya ishi "Buxgalteriya hisobi" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

_____ sonli bayonnoma "_____" _____ 2014 yil

Ilmiy raxbar:

_____ _____
imzo sana

Magistr:

_____ _____
imzo sana

"Himoyaga ruxsat etildi"
"Buxgaltariya hisobi" kafedrası
muditi, prof. R.O.Xolbekov _____
"_____" "_____" 2014 yil.

Himoya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida
2014 yil "_____" soat "_____" bo'ladi.

Mundarija

Kirish.....	4
1-Bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida intellektual kapital hisobining nazariy va ilmiy-uslubiy asoslari.....	9
1.1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida intellektual kapitalni tashkil topishiga ta'siri.....	9
1.2. Intellektual kapitalning buxgalteriya hisobining ilmiy-uslubiy va nazariy asoslari.....	15
1.3. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida intellektual kapital hisobining kontseptual asoslari.....	26
1-bob bo'yicha xulosalar.....	35
2-Bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida intellektual kapital buxgalteriya hisobi qoidalarini nazariy masalalari.	38
2.1. Intellektual kapitalga investitsiyalarni buxgalteriya hisobida yuritish qoidalarining tashkiliy asoslari.	38
2.2. Intellektual kapitalni buxgalteriya hisobida yuritishning amaldagi holati.	44
2.3. Intellektual kapital tarkibiy qismlarining buxgalteriya hisobi muammolari. ..	50
2-bob bo'yicha xulosalar.....	59
3-Bob. Intellektual kapital hisobi ko'rsatkichlari tizimini takomillashtirish.	61
3.1. Intellektual kapitalning zamonaviy axborot-tahliliy modelini takomillashtirish yo'nalishlari.	61
3.2. Intellektual kapital kontseptsiyasiga asoslangan joriy moliyaviy natijalari ko'rsatkichlarini takomillashtirish.	66
3-bob bo'yicha xulosalar.....	77
Xulosa va takliflar	79
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	82

Kirish

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, taraqqiyotning izchil yo'lidan rivojlanib bormoqda. Bu amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni isloh qilish va liberallashtirish, jamiyatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida amalga oshirilayotgan ishlarda o'z aksini topmoqda. Bu borada Prezidentimiz I.Karimovning quyidagi fikrlarini keltirish joizdir, "Yurtimizda qabul qilingan 2011-2015 yillarda sanoatni ustuvor darajada rivojlantirish dasturi va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir tarmoq dasturlarining izchil amalga oshirilishi natijasida sanoat tarkibida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan, raqobatdosh mahsulotlar tayyorlayotgan qayta ishlash tarmoqlarining o'rni tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 78 foizdan ortig'i aynan ana shu tarmoqlar hissasiga to'g'ri kelmoqda".¹

Shunday ekan, barcha imkoniyatlarimiz va bilimlarimizni shu yo'nalishga safarbar etishimiz zarur. Bu o'z navbatida mavjud hamda yaratilayotgan intellektual qiymatliklarni buxgalteriya hisobida munosib tarzda baholash, hujjatlashtirish va qayd etishni talab qiladi.

Hozirgi kunda bilim, ma'lumot, ilm-fanga asoslangan texnologiyalar va boshqa shu kabi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotidagi real sektorlar ishlab chiqarishning eng asosiy omiliga aylanmoqda. Mashina va uskunalar, mol-mulk va moddiy qiymatliklarning mazkur sohalardagi muhimligi kamaygani yo'q, ammo zamonaviy biznes olamining yuqori raqobatbardoshligi uning intellektual salohiyati darajasi bilan o'lchanmoqda.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan barcha mulohazalar intellektual kapitalga hozirgi kun ishlab chiqarishining asosiy omili sifatida qarab, uning nazariy mohiyatiga

¹ И.А.Каримов. "2014 йил юкори ўсиш суръатлари билан ривожланиш, барча мавжуд имкониятларни сафарбар этиш, ўзини оқлаган ислохотлар стратегиясини изчил давом эттириш йили бўлади" номли Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси. Халқ сўзи газетаси, 2014й.

alohida e'tibor zarurligini ko'rsatmoqda. Aynan intellektual kapital hisobining nazariy hamda uslubiy masalalarini yoritish va rivojlantirishga oid mustaqil ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmagan. Shunday ekan, intellektual kapital hisobining nazariy, uslubiy masalalarini yanada kengroq tadqiq etishga oid ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi hamda tadqiqot mavzusining dolzarbligini anglatadi.

Tadqiqot ob'yekti sifatida "Surxonoziqovqatsanoati"ga qarashli "Denov yog'-moy kombinati" ochiq aktsiyadorlik jamiyati moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan foydalanildi.

Tadqiqot predmeti bo'lib "Denov yog'-moy kombinati" ochiq aktsiyadorlik jamiyatida nomoddiy aktivlar hisobi, shuningdek intellektual kapital hisobi va tahlili takomillashtirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

MD ishining maqsadi va vazifalari. Tadqiqot maqsadi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida intellektual kapital hisobi va tahlilini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish belgilab olindi:

- iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida intellektuallashuv va axborotlashuvning xo'jalik yurituvchi sub'ektlar intellektual kapitalini tashkil topishiga ta'sirini aniqlash;
- "intellektual mulk" va "intellektual kapital" mohiyatini ochib berish hamda mualliflik ta'rifini berish;
- intellektual kapitalning buxgalteriya hisobining ilmiy-uslubiy va nazariy asoslari tadqiq qilish;
- iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida intellektual kapital hisobining kontseptual asoslarini o'rganish;
- intellektual kapitalni buxgalteriya hisobida yuritishning amaldagi holati tadqiq qilish;
- intellektual kapital tarkibiy qismlarining buxgalteriya hisobi muammolari aniqlash va bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- intellektual kapitalni boshqarish jarayonida qo'llaniladigan moliyaviy tahlil ko'rsatkichlar va moliyaviy hisobotlar tizimini tavsiflash.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari:

- iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida intellektuallashuv va axborotlashuvning xo'jalik yurituvchi sub'ektlar intellektual kapitalini tashkil topishiga ta'sirini aniqlandi;

- intellektual kapital tarkibiy qismlarining buxgalteriya hisobi muammolari aniqlandi va bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi;

- intellektual kapitalni boshqarish jarayonida qo'llaniladigan moliyaviy tahlil ko'rsatkichlar va moliyaviy hisobotlar tizimini tavsiflandi.

Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar taxlili. Hozirgi kunda intellektual kapital hisobi va tahlilining nazariy va amaliy muammolariga horijlik iqtisodchi olimlardan V.G.Artemenko, M.I.Bakanov, I.T.Balabanov, I.A.Belobjetskiy, A.D.SHeremet, R.S.Sayfulin, V.F.Paliy hamda mamlakatimiz iqtisodichi olimlaridan E.A.Akramov, I.T.Abdukarimov, A.V.Vahabov, N.YU.Jo'raev, A.K.Ibragimov, M.K.Pardaev, A.X.Pardaev, B.A.Xasanov, R.O.Xolbekov, M.E.Po'latov, N.Rizaev va boshqalarning ishlari bag'ishlangan. Biroq mazkur iqtisodchi olimlarning tadqiqotlarda intellektual kapital hisobi va tahlili bo'yicha tavsiyalar etarlicha ilmiy asoslanmagan.

Amaliyotda intellektual kapital, uning buxgalteriya hisobi va tahlili masalasiga etarlicha e'tibor berilmagan. Ularni hisobga olish va moliyaviy tahlil qilish masalasi bo'yicha tegishli ilmiy ishlar, uslubiy qo'llanmalar va boshqa amaliy ma'lumotlar etarlicha berilmagan. Natijada mamlakatimiz xo'jalik sub'ektlaridagi intellektual kapital ob'yektlarini buxgalteriyada yuritish masalasi muammoligacha qolmoqda. SHu boisdan, mazkur mavzu bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish zaruriyati tug'ildi.

Dissertatsiya ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi. Ilmiy-tadqiqot jarayonida solishtirish, guruhlash, zanjirli almashtirish, qiymat tahlili, induksiya va deduksiya, moliyaviy koeffitsientlar, iqtisodiy-matematik hamda statistik usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Ishda bildirilgan fikrlar nomoddiy aktivlar tarkibiga kiruvchi intellektual kapital hisobi va tahlili rivojlantirishga yordam beradi. Bu o'z navbatida buxgalteriya hisobining ma'lumotlar berish va auditini o'tkazishda axborot bilan ta'minlanish jarayonini mukammallashtiradi hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyati samaradorligini oshirishga ko'maklashadi. O'zbekiston Respublikasi intellektual kapital hisobi va tahlilini xalqaro standartlar asosida tashkil qilishda yuzaga kelayotgan muammolarni ijobiy hal etishda salmoqli hissa qo'shadi deb hisoblaymiz.

Ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- “intellektual mulk” va “intellektual kapital” mohiyatini ochib berildi hamda mualliflik ta'rifini berildi;
- intellektual kapitalning buxgalteriya hisobining ilmiy-uslubiy va nazariy asoslari tadqiq qilish;
- iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida intellektual kapital hisobining kontseptual asoslarini o'rganish;
- intellektual kapitalni buxgalteriya hisobida yuritishning amaldagi holati tadqiq qilish.

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi. Kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ruyxati hamda ilovalardan iborat.

Dissertatsiya ishining birinchi bobida iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida intellektual kapital hisobining nazariy va ilmiy-uslubiy asoslari bag'ishlangan bo'lib, iqtisodichi olimlarning mavzuga doir nazariy va amaliy fikrlari, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida intellektuallashuv va axborotlashuvning xo'jalik yurituvchi sub'ektlar intellektual kapitalini tashkil topishiga ta'siri, intellektual kapitalning buxgalteriya hisobining ilmiy-uslubiy va

nazariy asoslari hamda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida intellektual kapital hisobining kontseptual asoslariga doir fikr-mulohazalar berilgan.

Ishning ikkinchi bobida iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida intellektual kapital buxgalteriya hisobi qoidalarini nazariy masalalari o'rganilgan va undagi mavjud muammolar bo'yicha muallif tomonidan fikrlar bildirilib, ularni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ishning uchunchi bobida intellektual kapital hisobi ko'rsatkichlari tizimini takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Xulosa va tavsiyalarida har bir bobda keltirilgan xulosalar umumlashtirilib, yakuni xulosa hamda takliflar soddalashtirilgan holatga keltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ushbu mavzuga oid iqtisodchi olimlarning ishlanmalari va amaldagi qonuniy hamda me'yoriy hujjatlardan keng foydalanilgan.

1-Bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida intellektual kapital hisobining nazariy va ilmiy-uslubiy asoslari.

1.1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida intellektual kapitalni tashkil topishiga ta'siri.

Mamlakatimizda mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida iqtisodiyot tarmoqlarini tarkibiy jihatdan takomillashtirish borasida sezilarli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Olib borilayotgan bu intensiv o'zgarishlar natijasida mulkdorlar sinfi shakllanib, mavjud korxonalar texnik va texnologik jihatdan modernizatsiyalandi. Bu esa o'z navbatida, korxonalar yangi baholarining shakllanishi va ularning tizimli ravishda ortib borishiga sabab bo'lmoqda. Davlat tomonidan barcha sohalarni modernizatsiyalash va ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash maqsadida keng ko'lamli investitsiya dasturlari amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov ushbu masalaning muhimligini ta'kidlab shunday degan edi: "Hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan yana bir muhim ustuvor yo'nalish-chet el investitsiyalarini keng jalb qilish, xorijiy investorlar uchun yanada qulay sharoitlar yaratishga ulkan e'tibor qaratayotganimizni alohida qayd etmoqchiman.

O'zbekistonda investorlar uchun, aytish mumkinki, ko'p jihatdan beqiyos, o'ta qulay investitsion muhit, imtiyoz va preferentsiyalar tizimi yaratilgan, deb aytishga barcha asoslarimiz bor. Iqtisodiyotimizga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi yildan-yilga ortib borayotgani ham buning yorqin dalilidir"². Shuningdek, Prezidentimizning "Biz oddiy bir haqiqatni doimo esda tutishimiz darkor. Ya'ni, sarmoyasiz taraqqiyot yo'q, ishlab chiqarishni va umuman, mamlakatimizni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashni investitsiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

² И.Каримов. Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш-мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. Ўзбекистон, 2011. Т.19.-360б. 226. Б.

2013 yilda Investitsiya dasturini amalga oshirish doirasida mamlakatimizda 13 milliard dollar qiymatidagi kapital qo'yilmalar o'zlashtirildi, bu 2012 yilga nisbatan 11,3 foizga ko'pdir. O'zlashtirilgan kapital qo'yilmalar umumiy hajmining deyarli yarmini, ya'ni 47 foizini xususiy investitsiyalar – korxonalar va aholining shaxsiy mablag'lari tashkil etgani alohida e'tiborga loyiqdir.

Jalb etilayotgan investitsiyalarning asosiy qismi – 70 foizdan ortig'i, birinchi navbatda, ishlab chiqarish ob'yektlarini qurishga yo'naltirildi, eng yangi zamonaviy uskunarlar xarid qilishga sarflangan investitsiyalar ulushi esa qariyb 40 foizni tashkil etdi.

Umuman olganda, mamlakatimiz iqtisodiyotiga investitsiya kiritish hajmi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 23 foizdan iborat bo'ldi.”³, - deb ta'kidlashlari barcha iqtisodchilar va menejerlar tomonidan ushbu mablag'larni to'g'ri hisobga olish, korxonalarning bozor narxlarini to'g'ri shakllantirish kabi masalalarni puxta egallashlari talab etiladi. Bunda korxonalarning haqiqiy qiymatini shakllantirishda alohida ko'rsatkichlarni kompleks hisobga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat hayotining har tomonlama axborotlashib va intellektuallashib borishi tufayli XX asrning o'rtalaridan postindustrial, axborot jamiyatining tamoyillari paydo bo'la boshladi. O'tgan asrning 60-80 yillari davomida ushbu sohaga doir qator qarashlarni ifoda etuvchi ilmiy ishlar nashr qilingan. Axborotning fan sifatida paydo bo'lishi 60-yillarda, ya'ni D.Stigler tomonidan chop etilgan maqolada uning nazariy asoslari ishlab chiqilgan⁴. F.Maxlup⁵ birinchilardan bo'lib jismoniy mehnatga bo'lgan talab aqliy mehnatga bo'lgan talab bilan almashishi haqida gipotezani ilgari surgan. SHuningdek, iqtisodiy tahlil va baholash nazariyasiga o'zgartirish kiritish zaruratini yangi faoliyat turi – bilim ishlab chiqarish sohasining paydo bo'lishi bilan izohlaydi.

³ И.Каримов. 2014 йил юқори ўсиш суръатлари билан ривожланиш, барча мавжуд имкониятларни сафарбар этиш, ўзини оқлаган ислохотлар стратегиясини изчил давом эттириш йили бўлади. “Халқ сўзи” газетаси, 2014 йил 19 январь.

⁴Stigler G.J. The Economics of Information. // Journal of Political Economy. June 1961. Vol. LXIX. No 3. P. 213-225.

⁵Махлуп Ф. Производство и распространение знаний в США / Пер. с англ. - М., 1966. – с. 66

Ilmiy tadqiqot nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, D.Bellning postindustrial nazariyasida keltirilgan jamiyat evolyutsiya bosqichlariga qisman to'xtalib o'tamiz⁶. Unga ko'ra, postindustrial jamiyatni industrial va industrialgacha bo'lgan jamiyatlar bilan o'zaro solishtiramiz:

- hozir asosiy ishlab chiqarish resursi bu axborot, ilgari industrial jamiyatda energiya va undan oldin esa xom ashyo bu vazifani bajargan;
- hozir ishlab chiqarish jarayoni qayta ishlash xarakteriga ega bo'lsa, ilgari bular mos ravishda ishlab chiqarish hamda qazib olish xarakterida bo'lgan;
- hozirda ilm-fan talab etiladigan texnologiyalar, o'sha davrlarda kapital va mehnat talab etgan.

Yuqorida ta'kidlangan ma'lumotlar va mavjud qarashlar asosida quyidagi tahliliy jadvalni keltirish mumkin (1-jadval).

1 -jadval

Axborot jamiyatining oldingi jamiyatlar bilan solishtirma tahlili

Ko'rsatkichlar nomi	Industrial jamiyatgacha	Industrial jamiyat	Axborot jamiyati
Strategik resurslar (ishlab chiqarish omillari)	Xomashyo	Moliyaviy kapital	Bilimlar
Iqtisodiyotning etakchi sektori	“Birlamchi”: qishloq xo'jaligi, foydali qazilmalarni qazib chiqarish	“Birlamchi”: sanoat, qurilish	“Birlamchi”: axborot, xizmat ko'rsatish va aqliy mehnat
O'zgartiriladigan resurslar	Energiyaning tabiiy manbalari	Energiyaning sun'iy manbalari	Axborot
Texnologiya	Hunar	Mashinalar	Intellekt
Kasblar	Hunarmand, dehqon	Muhandis, ishchi	YUqori malakali mutaxassis
Uslubiyat	To'g'ri fikr, sinovlar va xatolar uslubi	Empirizm, eksperiment	Tizimli tahlil, qarorlar qabul qilish nazariyasi
Vaqtinchalik istiqbollar	O'tmishni nazarda tutish	Mavjud holatlarga moslashish	Kelajakni nazarda tutish, prognoz qilish
Biznesni baholash mezonlari	Mulk tarkibidagi talab yuqori bo'lgan tovar miqdori	Foyda (daromad) olish	Foyda olish qobiliyati (doimiy daromadlar)
Asosiy xo'jalik yurituvchi sub'ekt	Natural xo'jalik	Sanoat korxonasi	Professional xizmatlar ko'rsatuvchi firma

Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, industrial jamiyatdagi xo'jalik sub'ektlari faoliyatida asosiy omil sifatida resurslar va texnologiyalar amal qilmoqda. Postindustrial jamiyatda bu kabi omillar rolda ma'lumot, bilim va xodimlar

⁶ Bell D. The social framework of the information society // The computer age: a 20-year view L. — N.Y., 1981. C.93

intellektual salohiyati amal qiladi. SHunday ekan, biznesning zamonaviy ko'rinishdagi asosiy uslubiy muammosi ma'lumot va bilimlarning ishlab chiqarishdagi o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiq etilayotgan masalaning yana bir muhim jihat shundaki, korxona faoliyatida erishilgan joriy natijalar uning bahosini aniqlashda mezon vazifasini bajara olmaydi. Asosiy e'tibor doimiy ravishda stabil iqtisodiy naf olish imkonini beruvchi ichki xususiyatlarga qaratilishi maqsadga muvofiq, bu, o'z navbatida, biznes jarayonlar mazmuni, shuningdek, ularni boshqarish usullari hamda mezonlarining tub mohiyatini qayta ko'rib chiqishni talab etadi.

Postindustrial jamiyatda asosiy (tayanch) sub'ekt ham o'zgaradi. Industrial jamiyatda bu vazifani sanoat korxonalari bajargan bo'lsa, endilikda bu vazifa professional xizmatlar ko'rsatish sohasidagi korxonalar zimmasiga o'tadi.

Jamiyatlarning o'zaro almashinuvi xo'jalik sub'ektlari darajasidagi ba'zi bir o'zgarishlarga olib keladi. Postindustrial jamiyatdagi korxona asosiy e'tiborni sifatga qaratishi yangi jamiyatning farqli tomonidir. O.Toffler yozishicha, "hozirda yuz berayotgan barcha voqeliklarni ishlab chiqarish jarayoni va uni tashkil qilish tamoyillarini tubdan qayta qurish sifatida izohlash mumkin"⁷.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki⁸, kelajak korxonasining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Kelajakni ko'ra bilish. MVA qisqa kursi" mualliflarining ta'kidlashicha 3 xil biznes turini tasniflash mumkin. Birinchi guruh o'zgarishlarni oldindan ko'ra biladi, ikkinchi guruh ularni tan olib, moslashishga harakat qiladi, uchinchi guruh ularni rad etadi. Munosabatlar natijasida ta'kidlash mumkinki, birinchi guruh korxonalari ravnaq topadi, ikkinchi guruh korxonalari yashash uchun kurash olib boradi, uchinchi guruh korxonalari yashab keta olmaydi. O'zgarishlarni oldindan

⁷ Toffler A. The Third Wave. - N.Y., 1980. c.243.

⁸ Краткий курс МВА / Р.Ф.Брунер, М.Р.Икер., Р.Э.Фримен и др.; Под ред. Р.Ф.Брунера / Пер. с англ. - М.: ЗАО "Олимп-Бизнес", 2000. - 384с., Мильнер Б.З. Теория организации: Учебник. — М.: ИНФРА-М, 2003.-558с.

ko'ra bilish – bu ravnaq topish uchun asos, ammo alohida ta'kidlash joizki, o'zgarishlarni bevosita amalga oshirish ravnaq topishning garovidir.

Globalizatsiya. Dunyodagi barcha korxonalarning ishlab chiqarish hamda texnologik imkoniyatlarining ortib borishi, ularning ish strategiyalari ham shu darajada bo'lishini talab qiladi. Bu o'z navbatida korxonaning global strategiyaga ega bo'lishi hamda qo'shilgan qiymat yaratilish jarayonining istalgan bosqichida qatnasha olishi bilan belgilanadi.

Egiluvchanlik va moslashish. Bu, o'z navbatida, xodimlarni maqsadli o'qitib borish va mahoratlarini oshirishni talab etadi. O'qitish tizimida eksperimentlar o'tkazish, faoliyat natijalarini baholab borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot texnologiyalarini joriy etish. Bu o'z-o'zidan korxona faoliyatiga va uning natijalariga ijobiy ta'sir etadi. SHuningdek, ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi bo'g'inlarini bog'laydi hamda raqobatbardoshlik darajasini oshiradi.

Innovatsiya va tadbirkorlik rolining ortib borishi. Hozirgi keskin o'zgarishlar yuz berayotgan bir davrda innovatsiyalardan har bir sub'ekt o'z vaqtida va samarali foydalanishi lozim. Vaqt omiliga asoslangan raqobat aynan shu masalaga bevosita bog'liq, sababi yangi mahsulot imkon qadar tezroq chiqarilishi lozim.

Mahsulot chiqishini tezlashtirish. Vaqt omiliga asoslangan raqobat biznes strategiyasining muhim shartlaridan biridir. Dunyoning etakchi korxonalari moslashuvchan korxonalarni tashkil etishda biznesning operativligiga alohida e'tibor qaratadi.

Integratsiya va vazifalarining o'zaro kesishuvi. Barcha korxonalar marketing, ishlab chiqarish, ilmiy tadqiqot, tajriba – konstruktorlik ishlari va boshqa shu kabilardan iborat o'zaro kesishuvchi tarmoqlardan tashkil topadi. XXI asr korxonalari matritsa ko'rinishida bo'lib, biron-bir qaror qabul qilinishi qator vazifalarni o'zaro integratsiyasi va koordinatsiyasiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Mijoz rolining ustunligi. Hozirgi davrdagidek mijoz ehtiyojlarini qondirish hamda bozorga moslashish asosiy omil sifatida doimo saqlanib qoladi.

Qo'shilgan qiymat yaratish va ish sifatiga moslashuv. Raqobat muhitida har bir korxona uning faoliyati natijasida qo'shilgan qiymat yaratilayotganligiga ishonch hosil qilishi lozim. Bu, o'z navbatida barcha kuch va mablag'larni aynan qo'shilgan qiymat yaratilayotgan sohaga yo'naltirilishi lozimligidan dalolat beradi.

Biznes tizimi ishtirokchilarining manfaatlarini hisobga olish. Korporativ boshqaruv tizimining ustun jihatidan biri, biznes jarayonida qatnashayotganlar manfaatlarini ham aktsiyadorlar manfaatlari bilan bir qatorda hisobga olib borishi lozim.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtirib xulosa qiladigan bo'lsak, jamiyatning axborotlashuvi va intellektuallashuvi natijasida korxona faoliyati ikki asosiy yo'nalishdagi transformatsiyaga uchraydi. Jumladan:

1) biznes-tizimidagi ichki iqtisodiy munosabatlar, shuningdek, biznesni tashkil etish shakllarining xarakter jihatdan o'zgarishi;

2) korxonani boshqarish tamoyillari o'zgarishi yuz beradi.

Natijada korxonaning intellektual kapitalini tashkil topishiga ta'sir qiladi. SHu nuqtai nazardan ushbu kapital moddiy ko'rinishda emas, balki boshqa shaklda paydo bo'ladi. Shu jumladan o'z ishini yaxshi biladigan mutaxassis tayyorlash masalasiga alohida e'tibor berish asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

Intellektual kapital rivoji mutaxassisslar tayyorlash va ularni turli sohalarda ta'lim olishi muhim ahamiyatga ega. SHu nuqtai nazardan O'zbekiston Respublikasida Oliy ta'lim tizimi keskin rivojlanib borayotganligining guvohi bo'lib turibmiz. Jumladan, yangi va zamonaviy mutaxassisliklar va xalqaro talab darajasidagi ta'lim dasturlari yaratilmoqda.

Kadrlar masalasi muhimligi va ularning malakasini hisobga olish tartibini tahlil qilish muhim hisoblanadi va ushbu masalada O.Alimov tomonidan quyidagicha fikr bildirilgan: "Etuk boshqaruvchilar ko'pincha personal motivatsiyasi sxemalarini tuzishda dadil bo'ladilar. Haq to'lash va

rag'batlantirishning turli yoshdagi xodimlar talablariga javob beruvchi yanada samaraliroq tizimlarini izlab topishadi"⁹.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga qilinayotgan investitsiyalar hajmi borgan sari oshib bormoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarida asosiy kapitalga qilingan investitsiya 1990 yilda 833,8 million dollar qiymatida bo'lgan bo'lsa, 2000 yilda 3142,5 million dollar, 2013 yili esa qarib 13000,0 million dollarni tashkil etib 1990 yilga nisbatan 16,0 marta ko'paygan¹⁰. Ushbu asosiy kapitalga qilingan investitsiyaning bir qismi intellektual kapitalga qilingan. Bunda intellektual kapital xo'jalik sub'ektlarining faoliyatiga, ayniqsa, tashkiliy faoliyatiga bevosita ta'sir qiladi. SHu sababli yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtirib, jamiyat hayotining intellektuallashuvi va axborotlarga to'yinib borishi natijasida biznesni tashkil etish shakllariga ta'sir etuvchi voqeliklar yuzasidan quyidagicha xulosa qilish mumkin:

- faoliyat yuritayotgan xo'jalik sub'ektlarining turli sohalardan tor sohalarga moslashuvchanligi oshadi va natijada ular faqat tor soha bo'yicha juda ixtisoslashgan sub'ektga aylanadi;

- firma ichidagi bozor munosabatlarining tobora kuchayib borishi natijasida, o'zaro munosabatlar asosida, bozor qonunlari muhim rol o'ynaydi;

- mulkchilik huquqining demokratlashishi va firma faoliyatida professional mutaxassis rolining ortib borayotganligi natijasida etuk va o'z ishining ustasi bo'lgan kadrda talab yanada ortadi.

1.2. Intellektual kapitalning buxgalteriya hisobining ilmiy-uslubiy va nazariy asoslari.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida intellektual kapitalga bo'lgan e'tibor yanada ortib, uni to'g'ri aniqlash dolzarbligi zamon talabiga aylanadi. Shu

⁹ Алимов О. Инқирозга қарши бошқарувда кадрлар масаласи: етакчи корхоналар раҳбарлари тажрибасини умумлаштириш. // Бозор, пул ва кредит. №4. 2004. 57-60. Б.60.

¹⁰ Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика Қўмитаси маълумотлари.

boisdan, intellektual mulk masalasi bilan birgalikda intellektual kapital masalasining echimini topish ham muhim hisoblanadi. Shu sababli, avvalo, intellektual kapital tushunchasiga aniqlik kiritish va uni o'rnini belgilash masalasi muhimligi sababli ushbu masala echimiga asosiy e'tibor qaratilishi kerak. Avvalo, shuni ta'kidlash lozimki, "Intellektual kapital" tushunchasining tarixi 1980 yilda Itami tomonidan yapon tilida nashr etilgan monografiyaga borib taqaladi¹¹. Avvaliga bu tushuncha menejment bo'yicha mutaxassislar orasida ishlatilib kelindi. Ushbu tushuncha nisbatan kengroq 1990 yildan boshlab ishlatila boshlandi. Dastlab ommabop holda Grilixes kompaniyaning aynan bozor qiymati va aktivlarini qayta tiklash qiymati orasidagi farqni ifodalovchi nomoddiy qiymatliklarni nomlash uchun ilmiy adabiyotda ushbu jumlaning qo'llangan. Zamonaviy korxonalarning eng tayanch kapitali sifatida intellektual kapitalning tan olinishi 1993 va 1994 yillarda "Skandiya" firmasining hisobotlari nashr etilgandan keyin kompaniya haqiqiy bahosiga ta'sir etuvchi omil sifatida qayd etila boshlandi. Shuningdek, 1997-2000 yillarda "Intellektual kapital" nomi bilan bir necha adabiyotlar chop etilgandan keyin bu hodisa yanada tezlashdi¹².

"Intellektual kapital" kategoriyasining nisbatan yangiligi bois mutaxassislar va olimlar orasida hozirgacha aniq bir ta'rif hamda ushbu kapital tarkibida aniq to'xtamga kelinmagan. Iqtisodiy adabiyotlarni tahlil qilish natijasida T.Styuart tomonidan berilgan ta'rif birmuncha mukammalroq ekanligini ko'rishimiz mumkin¹³: "Intellektual kapital" deganda men laboratoriyada biron-bir olamshumul yangilik yaratayotgan fan doktorlari jamoasi yoki patentlar va mualliflik huquqlaridan iborat bo'lgan intellektual mulk ob'yektlarini aytolmayman, aslida shu intellektual mulk ob'yektlari uning tarkibida joylashgan bo'lsa-da, intellektual kapital—bu kompaniyaning raqobatbardoshligini

¹¹ Itami H. Mobilizing Invisible Assets. - Cambridge, Mass.: Harvard University Press, 1980 (in Japanese).

¹² Edvinsson L. Intellectual capital: realizing your company's true value by finding its hidden brainpower / L.Edvinsson, M.S.Malone. - N.Y.: Harper Business, 1997.-342p; Stewart T.A. Intellectual Capital: The New Wealth of Organizations. N.Y.-L.: Doubleday / Currency, 1997. - 288p;

¹³ Стьюарт Т. Богатство от ума: Деловой бестселлер / Пер. с англ. В.А. Ноздровой. -М.: Парадокс, 1998. - 358с.

ta'minlovchi, unda ishlaydigan barcha xodimlar bilimlarining yig'indisi". Ko'rinib turibdiki, bu ta'rifdagi asosiy e'tibor intellektual kapitalni ma'lum bir algoritmda asosida bir kompaniyada jamlangan bilimlardan tashkil topganligiga urg'u berilmoqda.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, intellektual kapital tarkibiga asosan quyidagi qismlar qo'shilmoqda (2-jadval).

2-jadval

Intellektual kapitalning turkumlanishi

Intellektual kapitalning tarkibiy qismlari		Intellektual kapitalning unsurlari
Inson kapitali		Umumiy ishchi kuchi
		Mutaxassislar bilimlari va uquvi
		Xodimlarning nazarda tutilayotgan bilimi
Tarkibiy kapital	Tashkiliy kapital	Tashkilot intellektual mulkning ob'yektlari (ijodiy mehnat mahsulotlari)
		Axborot resurslari va texnologiyalar
		Elektron tarmoqlar
		Tashkiliy tuzilma va biznesni boshqarish tizimi
	Mijoz kapitali	Tijorat (biznes) g'oyalar va ishbilarmonlik aloqalari
		Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni tarqatish tijorat tarmog'i
		Tijorat sherikchiligi, xoldinglar, moliyaviy sanoat guruhida ishtirok etish
		Firmani (asosiy tovar yoki biznes xizmatlari)ni individuallashtirish vositalari
		Firmaning ishbilarmonlik nufuzi (brendi)

Iqtisodiy adabiyotlarda kapital kontseptsiasining inson bilan yoki uning aql-idroki bilan bog'lanishi uzoq-uzoqlarga borib taqaladi. A.Smit o'z davrida quyidagicha yozgan edi¹⁴: "Asosiy kapital o'zi muomalaga kirmasdan yoki o'z mulkdorini o'zgartirmasdan daromad yoki foyda keltirishi bilan xarakterlandi ... jamiyatdagi barcha a'zolar yoki unda yashovchilar tomonidan orttirilgan va ularda mavjud bo'lgan xususiyatlar tarkibiga kiradi". SHunday qilib, A.Smit asosiy kapital tarkibiga ishchi kuchini qo'shishi bejiz emas. Ayniqsa, insonga kapital tushunchasining bog'lanishidagi dolzarblikni Fridrix List alohida ta'kidlab¹⁵, shaxs ishlab chiqarish xususiyatlarining ortishidagi muhim omil sifatida qayd etib o'tgan.

¹⁴Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. - М., 1962, с.206.

¹⁵ Friedrich L. The National System of Political Economy. - Fairfield, NJ: Augustus M.Kelley, 1977.

Intellektual kapital (IK) - nisbatan yangi tushuncha bo'lib, intellektual mulk va nomoddiy aktivlarga nisbatan kengroq ma'no anglatadi. IK huquqiy yoki buxgalteriya hisobiga nisbatan ko'proq iqtisodiy tushuncha deb hisoblash mumkin. Ilmiy adabiyotlarda 1990 yildan boshlab IK tushunchasi qo'llanib kelinmoqda. Ushbu masalada Grilixes korporatsiya bozor qiymati bilan hosilaviy aktsiya qiymatini aktsiya miqdoriga nisbati va uning aktivlari tiklash qiymatini "amaldagi korxona" terminini e'tiborga olgan holda korrektirovka qilinganiga aytiladi.

IK to'g'risida, uning xususiyatlari va hisobga olinishi masalasi bo'yicha AQSHda ko'plab izlanishlar olib borilmoqda. Bu birinchi navbatda avvalo soliqqa tortish tizimi (mulk solig'i qiymatini aniqlashda kompaniya qiymatidan nomoddiy aktivlar qiymati ayirib tashlanadi) va grajdanlik huquqi (yuridik jihatdan definatsiya "raqobatdan voz kechish shartnomasi"). Ushbu shartnomaning mohiyati shundan iboratki, ishdan bo'shayotgan xodim ma'lum davr ichida ushbu kompaniyaga raqobatchi bo'lmaslik to'g'risida majburiyat oladi. Demak, IK tushunchasi nisbatan keng va mohiyati jihatdan ko'proq masalalarni o'z ichiga oladigan tushuncha hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditning asosida ayrim iqtisodiy nazariya bo'yicha ilmiy ishlar axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Bunda qiymatning mehnat nazariyasi (A.Smit, D.Rikardo), ishlab chiqarish omillari nazariyasi (Dj.St.Mil), chegaralangan naflik nazariyasi (A.Marshall) va boshqalarni ta'kidlash mumkin. Bu borada har bir ob'yektga nisbatan qiymatni, korxonaning haqiqiy qiymatini aniqlash, shuningdek, bunda daromadli usuldan foydalanish kabilar alohida ahamiyat kasb etadi. Dj.St.Mill fikriga binoan ob'yekt qiymatini aniqlash davrida bir omilli emas, ko'p omilli tahlildan foydalanish maqsadga muvofiq. A.Marshall hozirgi kundagi iqtisodiy nazariyada mavjud bo'lgan mikroiqtisodiy yondashuvning asosini yaratgan va bu amal qilib kelinayotgan buxgalteriya hisobi, audit va tahlilning ustunlaridan biridir. Tadqiqot doirasida olg'a surilayotgan jamiyatni intellektuallashtirish va axborotlashtirish natijasida bu ustunlarning ba'zi birlarida uzilish yuzaga kelmoqda.

Tadqiqot nazariy asosi sifatida R.Kouznig transaksion xarajatlar va firma nazariyalarini ta'kidlash mumkin. Transaksion xarajat nazariyasi o'z navbatida neoklassik qarashlarga tegishli ayrim asoslarning o'zgarishiga ta'sir etadi, ya'ni bunga muvofiq ma'lumot olish uchun hech qanday xarajat talab etilmaydi va munosabat qatnashchilari bitim to'g'risidagi barcha ma'lumotlarni osonlik bilan bilib olishadi. Bu nazariyadagi asosiy o'rin sotuvchilar va narxni identifikatsiyalash xarajatlari – axborot xarajatlari tushunchasining mavjudligi¹⁶.

Transaksion xarajatlar [transaction costs] — hamkorlarni izlash jarayonida paydo bo'ladigan xarajatlar, tijorat bitimlari to'g'risida muzokaralar olib borish, ularni tuzish va uning bajarilishi ustidan nazoratni tashkil qilish kabi xarajatlarni o'z ichiga oladi. Ushbu xarajatlarga kompaniya tomonidan amalga oshiriladigan xarajatlar (masalan, ma'lumotlarni qayta ishlash, transport xarajatlari) bundan tashqari sarflanadigan vaqt ham muhim rol o'ynaydi. Keng ma'noda transaksion xarajatlar jamiyat xarajatlari bo'lib, boylik yaratishning jismoniy jarayonlariga bog'liq bo'lmaydi.

Ushbu xarajatlarni quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

- 1) axborot izlash bilan bog'liq xarajatlar (kontragent, baho va kutilayotgan baho to'g'risida);
- 2) bitim yoki kontrakt tuzish shartlari bo'yicha muzokaralar o'tkazish xarajatlari;
- 3) sifat darajasini nazorat qilish hamda xatoliklardan yo'qotishlar, standartlar tizimini ishlab chiqish bilan bog'liq xarajatlar;
- 4) mulklarni huquqiy jihatdan boshqarish, jamiyatda huquqiy tizim tashkil etish bo'yicha xarajatlar;
- 5) kontrakt shartlarini buzish natijasida paydo bo'ladigan xarajatlar.

¹⁶ Стиглер Дж. Экономическая теория информации. Теория фирмы. -СПб.: Экономическая школа, 1995. -246с.

Transaksion xarajatlar funktsiyasiga ko'ra 2 guruhga bo'linadi: muvofiqlashtirish xarajatlari va mulk xuquqini himoya qilish hamda tasniflash xarajatlari.

Transaksion xarajatlar tahlilidagi keyingi qadam bu axborot xarajatlari tarkibidan transaksion xarajatlarning ajratib olinishidir. Transaksion xarajatlarga doir bu holatni axborot bozori va axborot narxini aniqlashga yo'naltirilgan e'tibor sifatida izohlash mumkin.

Demak, "transaksiya" tushunchasi bu keng mazmunga ega tushuncha bo'lib, odatda tovarlar va turli faoliyat natijalari hamda huquqiy majburiyatlar orqali ayirboshlash sifatida qaraladi. Har qanday transaksiya quyidagilardan iborat: transaksiya qatnashchilari; transaksiyadan kutilayotgan natijalar; transaksiyadan foydalanuvchi resurslar; qatnashchilarning natija va resurslarga huquqi; tomonlarning majburiyatlari. Umuman olib qaraganda "transaksiya" eng sodda (boshqa parchalash imkoni yo'q, ya'ni atom singari) resurs, huquq va majburiyatlar ayirboshlash jarayoni bo'lib, uning natijasiga ko'ra qatnashchilarning har biri o'zini qoniqtiruvchi ulushga ega bo'ladi. Ta'kidlash joizki, transaksiyaning iqtisodiy mazmuni shundaki, uning natijasida tomonlar qo'lga kiritgan resurs (huquq, majburiyat)lar ayirboshlashga taklif etilgan resurs (huquq, majburiyat)lardan ko'ra nafliroq deb qaralishida, ya'ni har bir tomon o'zi uchun iqtisodiy naf topadi.

Tadqiqot markazidan o'rin olgan yana bir asosiy tushuncha transaksion va transformatsion xarajatlar.

"Transaksion xarajatlar" tushunchasining iqtisodiy mohiyati shundaki, tomonlarning resurs, huquq va majburiyatlar ayirboshlash jarayoni bepul amalga oshmaydi. Transaksiya o'z navbatida ma'lum bir sarflarni talab etadi. Transaksion xarajatlarning iqtisodiyotdagi rolini fizikadagi jismlar sirpanishi bilan qiyoslash mumkin. Bunga ko'ra, fizik jismlar harakatlanishi uchun sirpanish jarayonida qarshilikka uchrab o'z energiyasini yo'qotgani kabi resurslarning iste'molchilarga tomon siljishida transaksion xarajatlar to'sqinlik qilib turadi,

ya'ni resurslarning naflik darajasi iqtisodiy ayirboshlash jarayonida kamayadi. Transaksion xarajatlarni tan olmaydigan har qanday iqtisodchi iqtisodiy voqelikni tushuntirishda jism sirpanishidagi qarshilikni tan olmaydigan fizik singari qiynaladi¹⁷.

“Transaksion xarajatlar” tushunchasining iqtisodiy mohiyatini yanada yaqqol tushunish uchun ularni “transformatsion xarajatlar” tizimida o'rganish maqsadga muvofiq. Bu ikki tushunchani o'zaro solishtiradigan bo'lsak, transformatsion xarajatlarni resurslar va natijalar o'zaro ayirboshlanishidagi sarflar deb qaraydigan bo'lsak, transaksion xarajatlarni haq-huquqlarning resurslar va natijalarga ayirboshlanishidagi sarflar deb ta'riflash maqsadga muvofiq bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, transformatsion xarajatlar– faoliyat xarajatlari bo'lsa (moddiy bo'lishi shart emas), transaksion xarajatlar – shu faoliyat ishtirokchilarining o'zaro munosabat xarajatlari hisoblanadi.

3-jadval
Bozor hamda firma ichidagi transaksiya komponentlari
(solishtirma jadval)

Transaksiya komponenti	Bozor transaksiyasi	Firma ichidagi transaksiya
Qatnashchilar mavqei	Mustaqil huquqiy va jismoniy shaxslar (bozor agentlari)	Yuridik shaxsning o'zaro bir-biriga bo'ysunuvchi jismoniy shaxslari yoki tuzilmaviy bo'linmalari (firma ishchilari)
Natijalar	Odatda, pul ko'rinishi-dagi qat'iy belgilangan iqtisodiy manfaat	Ba'zida pul o'lchami belgilanmagan (har doim ham iqtisodiy bo'lmagan) manfaat
Resurslar	Odatga ko'ra, pulda ifodalangan tovar, qat'iy belgilangan ish, xizmatlar	Tovar bo'lmagan moddiy va nomoddiy qiymatliklar va odatda qatnashchilar tomonidan pul ifodasidagi o'lchami belgilanmagan bo'ladi
Huquqlarning belgilanishi	Resurs va natijalarga nisbatan qatnashchilarning mulkdorlik huquqi	Mas'uliyatning rahbardan tortib to bajaruvchigacha taqsimlangan-ligi; rahbar va unga bo'ysinuvchilar ierarxiyasi
Majburiyat-larning belgilanganligi	Shartnoma (bozordagi bitim)	Ishga olish to'g'risida kelishuv (mehnat shartnomasi)

¹⁷ Edvinsson L. Intellectual capital: realizing your company's true value by finding its hidden brainpower / L.Edvinsson, M.S.Malone. - N.Y.: Harper Business, 1997.-342p.

Xarajatlarning bu kabi transaksion va transformatsion shakllarga bo'linishi tadqiqotimiz nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi ilmiy-texnika taraqqiyoti davrida umumiy mehnat unumdorligi ortib, ishlab chiqarish tannarxining salmog'i pasaymoqda. Ammo, bu iqtisodiy jarayon qatnashchisining xarajatlari umumiy miqdoridagi kamayishga olib kelmayapti. Odatda transformatsion xarajatlar miqdorining kamayishi transaksion xarajatlar miqdorining ortishiga sabab bo'lmoqda va bu transaksion xarajatlar mavjud iqtisodiy usullar orqali aniq o'lchanishiga har doim ham imkoniyat bo'lavermaydi.

4-jadval

Bozor va firma ichidagi transaksion xarajatlar

(solishtirma tavsif)

Bozordagi transaksiyaga xos xarajat guruhlari	Firma ichidagi transaksiyaga xos xarajat guruhlari
Tovar va mijoz haqidagi ma'lumotlarni qidirib topish xarajatlari	Tashkilot ichidagi axborotlarni yig'ish va hisobga olish xarajatlari
Muloqotlarni olib borish va shartnomalar tuzish xarajatlari	Qarorni tayyorlash va qabul qilish xarajatlari
SHartnoma tartib-qoidalari monitoringi xarajatlari	Qarorlarning bajarilishini nazorat qilish xarajatlari
SHeriklarning nohaq xulq-atvorlari sug'urtasi bilan bog'liq xarajatlar	
Tovarlarni va xizmatlar sifatini baholash xarajatlari	Resurslar sifati va natijalar samaradorligi tahlili bilan bog'liq xarajatlar
Da'volarni hal etish va uchinchi tomondan himoyalash xarajatlari	Mehnat munosabatlaridagi nizolarni hal etish xarajatlari
Huquqiy me'yor va standartlarni ishlab chiqish va rioya qilinishini ta'minlash xarajatlari	Korporativ standartlar ishlab chiqilishi va rioya qilinishini ta'minlash xarajatlari

“Transaksiya” va “transaksion xarajatlar” tushunchalari aniqlangandan so'ng R.Kouz tomonidan firmalarning tashkil etilishiga sabab “sirpanish xarajatlari”ni optimallashtirish bo'lsa kerak degan g'oya olg'a surilgan. Transaksiya jarayoni firmalar tomonidan shunday amalga oshiriladiki, bunda transaksion xarajatlar bozordagiga nisbatan kamroq bo'ladi. Firma chegaralari bozor hamda firmadagi transaksion xarajatlar nisbati orqali aniqlanadi. Agarda bozordagi transaksion xarajatlar nolga teng bo'lganda firma tarqalib ketgan bo'lar edi, shuningdek, firma ichidagi transaksion xarajatlar nolga teng bo'lsa do'kon bozorga yoyilib ketgan

bo'lardi. Bozor hamda firmadagi transaktsion xarajatlar solishtirma tahlili quyidagi 3 va 4-jadvallarda keltirilgan.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda keltirilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, firma faoliyatining yuqori samaradorligini ta'minlash uchun undagi transaksiyalar maqsadga muvofiq holda hamda ongli ravishda boshqarib borilishi shart. Aynan shu maqsadlar uchun maxsus unsurlar, ya'ni buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit kabilardan samarali foydalanish talab etiladi. Shuningdek, erishilgan natijalarni baholash uchun maxsus mezonlar ham ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

Tadqiqot muammosining asosi shundaki, R.Kouz tomonidan transaktsion tahlil asosida shakllantirilgan firma instituti buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit tomonidan puchga chiqarildi. R.Kouz tomonidan amalga oshirilgan ushbu inqilobiy yangilik natijasida iqtisodiy nazariya firmani ichki transaksiyalar, iqtisodiy faoliyat, biznes umumiy yig'indisi sifatida boshqaruv ob'yekti deb tan oldi. Iqtisodiy tahlil, buxgalteriya hisobi va audit uchun ob'yekt sifatida tashkilot, firma maydonga chiqadi. Iqtisodiy fanlarda bu tushunchalarga boshqaruv ob'yekti sifatida bir xil qaraladi. Ularning o'zaro solishtirma tahlili 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval.

“Biznes”–“firma”–“tijorat tashkiloti” tushunchalarining o'zaro solishtirma tahlili

Tushuncha mohiyati			Tushunchaning amal qilish shakli			
			Iqtisodiy shakl		Huquqiy shakl	
Faoliyat			Tashkilot		Huquqiy shaxs	
Biznes (tadbirkorlik)			Firma (korporatsiya)		Tijorat tashkiloti	
Biznes kapitali		Biznes trans-aktsiya	Mulkiy kompleks	Tashkiliy struktura va mas'uliyatlar tizimi	Korxona	Huquqiy majburiyatl ar va haq-huquqlar
Moddiy kapital	Nomoddiy kapital					

Ta'kidlangan solishtirma tahlil ma'lumotlarini tushunish hamda ularning hisob va tahlil uslubiyotiga bo'lgan ta'sirini anglash uchun alohida to'xtalib o'tamiz.

Tizim ichida eng keng tarqalgan tushuncha “faoliyat” (iqtisodiy faoliyat) bo’lib, u o’z ichiga ma’lum maqsadga yo’naltirilgan zarur resurslar, munosabatlar, doimiy amalga oshiriluvchi transaksiyalarni qamrab olgan.

“Tashkilot” va uning qobig’i ostidagi “faoliyat” uchinchi shaxslar uchun huquqiy maqom kasb etish uchun tegishli tartibga binoan huquqiy ro’yxatdan o’tkazilishi maqsadga muvofiq.

O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksiga binoan “O’z mulkida, xo’jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo’lgan hamda o’z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o’z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo’la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da’vogar va javobgar bo’la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi”¹⁸. Tahlil qiladigan bo’lsak, “yuridik shaxs” tushunchasi “tashkilot” tushunchasiga nisbatan torroq ekanligini ko’ramiz. Sababi, “tashkilot”da “faoliyat”ning yuridik maqom berilmagan xususiyatlari mavjud. Shuningdek, “faoliyat” qatnashchilari o’z “tashkilot”larini umuman ro’yxatdan o’tkazmasliklari ham mumkin.

“Kapital” kategoriyasining tadqiqotchilari uning quyidagi 4 xildagi evolyutsion shakllarini ta’kidlaydilar¹⁹:

- sanoat kapitali;
- moliyaviy kapital;
- moliyaviy-sanoat kapitali;
- intellektual kapital.

Kapitalizm qaror topadigan sharoitda sanoat kapitali paydo bo’ladi. Uning kelib chiqish sohasi engil sanoat, avvalo kichik va o’rta ishlab chiqarish tarmoqlari hisoblanadi. U milliy bozor bilan uzviy bog’liq holda faoliyat yuritadi. Moliyaviy kapital og’ir sanoat tarmoqlari rivoji bilan bog’liq bo’lib, yirik ishlab chiqarishlar, bank ishi, savdo kabilarga aloqador bo’ladi. Moliyaviy – sanoat kapitali hozirgi

¹⁸ Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик Кодекси. Т.:1995. 39-модда.

¹⁹ Эскиндаров М.А. Развитие корпоративных отношений в современной российской экономике. — М.: Республика, 1999. с 109.

zamonamizga xos bo'lib, barcha sohalarda elektron va axborot texnologiyalari qaror topib borishi bilan bog'liq. Intellektual kapital esa tashkilot xarakteri va aloqalari, iqtisodiy tizimning tarkibi nuqtai nazaridan korporativ xususiyatga, mehnat jarayoni qatnashchilarining tarkibi, asta-sekinlik bilan barcha yo'nalishlarni qamrab olish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ilmiy-intellektual xususiyat kasb etadi. Quyidagi 6-jadvalda "kapital"ning rivojlanish tarixini ko'rish mumkin.

Ushbu jadvalga ko'ra, intellektual kapital, jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichiga xos bo'lgan kapital ko'rinishidir. "Biznes kapitali" kategoriyasini firmaga tegishli mulk va huquqning umumiy yig'indisi deya ta'kidlash mumkin (firma mulkiy kompleksi). "Biznes kapitali"ning huquqiy jihatdan asosi, ko'rinishi "korxona" hisoblanadi.

Korxona tushunchasi bozor iqtisodiyoti sharoitida ayrim iqtisodchi olimlar tomonidan quyidagicha ta'rif berilgan: "Korxona yuridik shaxs huquqiga ega mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ekt bo'lib, mulkdan foydalanish asosida u mehnat jamoasi tomonidan mahsulot ishlab chiqaradi va sotadi, ish bajaradi hamda xizmat ko'rsatadi"²⁰.

6-jadval.

Kapital rivojining tarixiy bosqichlari

Er	Sanoat kapitali	Moliyaviy sanoat kapitali	Biznes kapitali (zamonaviy talqini)
Erda etishtirilgan mahsulotlar			
Xom ashyo resurslari			
Ishlab chiqarish fondlari			
Oltin (kumush)	Moliyaviy kapital	Intellectual kapital	
Pullar			
Mehnat resurslari, bilimlar			
Axborot			
Texnologiyalar			
Bozor aktivlari			

²⁰ Зайнутдинов Ш.Н., Муракаев И.У., Шурмухамедов А.Т., Сагдуллаев Д.Т., Кучаров А.С. Менеджмент асослари. - Молия, 2001, 2076. 32. Б.

Yuqorida ta’kidlab o’tilganlarga qo’shimcha ravishda shuni aytish mumkinki, bozor iqtisodiyoti sharoitida keng tarqalgan shakllardan biri xususiy mulkka asoslangan shaklda yakka tartibdagi tadbirkorlik va xususiy korxona shaklida mavjud bo’ladi.

1.3. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida intellektual kapital hisobining kontseptual asoslari.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida asosiy masalalardan biri axborot va bilimlarni ishlab chiqarish jarayonlari va ishlab chiqarish vositalarining ichida joylashgan substantsiya sifatida emas, balki alohida ishlab chiqarish omili, kuchi sifatida qarash lozimligi, iqtisodiy nazariya asosidagi fanlar tomonidan ham bu omillarni hisobga olish zarurligini talab etmoqda. “Barcha iqtisodiy tizimlar bilimlar asosida taraqqiy topadi, barcha tijorat korxonalari ishlab chiqarish resurslariga bog’liq bo’ladi. Xo’jalik faoliyatiga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilinganda iqtisodchilar va menejerlar asosiy e’tiborni kapital, ishchi kuchi va erga qaratib, bilimlarni tan olishmaydi, vaholanki, qisman to’lanib, qisman bepul ishlatilayotgan mazkur resurs hozirda barcha resurslar ichida eng asosiylaridan biri hisoblanadi”²¹.

Axborotning muhim ishlab chiqarish omili sifatida qaralishida nafaqat sifat xususiyatlari inobatga olinadi. Axborot xarajatlari miqdoriy ma’noda ham asosiy o’ringa qo’yilmoqda.

Axborot va bilim ishlab chiqarish omillari sifatida bir-biriga ancha yaqin hisoblanadi.

Birinchidan, axborot va bilimlar shunday o’ziga xoslikka egaki, ular ishlab chiqarish jarayonida to’liq iste’mol qilinib, yo’qolib ketmaydi va kelgusida qayta ishlatilishi mumkin. Axborotning ishlatilishi yangi bilimlarning paydo bo’lishiga

²¹ Toffler A. TheThird Wave. - N.Y., 1980. p.81-82.

olib keladi. Axborotlarning tijorat maqsadlarida ishlatilishi ularning kamayishiga emas, balki mazmunan boyib, ko'payib borishiga olib keladi.

Ikkinchidan, axborot va bilimlarni uzatish jarayoni sub'ektlarga bog'liq holda amalga oshadi. Ta'kidlash joizki, axborotning qiymati barcha iste'molchilar uchun bir xilda emas. Bir xil ma'lumotga bo'lgan ehtiyoj xilma-xil bo'lib, uning qiymati ham shundan kelib chiqqan holda turlichadir. SHu bois ularni asoslash uchun odatdagi bozor indikatorlaridan foydalanish har doim ham to'g'ri bo'lavermaydi.

Uchinchidan, axborot cheksiz tarqalishi mumkin, ammo undan hamma ham bir xilda foydalana olmaydi. Axborotni maqsadli, to'liq quvvatda ishlatish uchun qator xususiyatlarni o'z ichiga oluvchi zamonaviy shaxs imkon berishi mumkin.

Axborot va bilimlarga xos bo'lgan yana bir xususiyat shundaki, boshqa ishlab chiqarish omillari singari uzoq muddat xizmat qilishi mumkin. Qayta-qayta ishlab chiqarish jarayoniga jalb etilishi mumkin. Ularning har bir ishlatilishi biznes qiymatining ortishiga olib keladi, bu o'z navbatida ularning ishlab chiqarish omili ekanligidan, qo'shilgan qiymat yaratishidan (boshqa odatiy omillar singari) dalolat bermoqda. SHunday ekan axborot va bilim ma'lum bir biznes doirasida olib qaraganda "kapital" shaklini, aniqroq qilib aytganda "intellektual kapital" shaklini olmoqda.

Iqtisodiy kategoriya sifatida "inson kapitali"ning foydalana boshlangani XX asrning 60-yillariga borib taqaladi. Ayni vaqtlarda g'arb boshqaruvida iqtisodiyot (birinchi navbatda bilimlar iqtisodiyoti²²) hamda personalni boshqarish o'rtasidagi simboizga qaratilgan yo'nalishlar rivoj topib borishi natijasida "inson kapitali" nazariyasi va "inson resurslari" kontseptsiyasi yuzaga keldi. "Inson resurslari" kontseptsiyasi insonlarning ma'lum bir o'lchamli daromad keltirishini iqtisodiy baholash imkoniyatiga asoslanadi. Ishchi mehnatining individual samaradorligi qanchalik yuqori bo'lib uning korxonadagi faoliyat muddati qancha uzoq bo'lsa, u

²²МахлупФ. Производство и распространениезнаний в США / Пер. сангл. - М., 1966. - 352с; Kaplan R.S. Analog Devices: The half-life sistem, 9-190-061. -Boston: Harvard BusinessSchool, 1990; Machlup F. The economics of information and human capital. Series: Knowledge, its creation, distribution, and economic significance ; v. 3. / -Princeton, N.J.: PrincetonUniversity Press, 1984.

korxonaga shuncha ko'p daromad keltiradi va uning qiymati korxona uchun yuqori bo'ladi²³.

Axborotlashgan jamiyatning o'ziga xos xususiyati shundaki, inson kapitali qiymat yaratish zanjirida nafaqat birgina ishlab chiqarish omili sifatida, balki biznesning asosiy kapitaliga aylanib boradi. V.A.Kozlovaning ilmiy ishida ta'kidlanishicha²⁴, "intellektual kapital" tushunchasi "inson kapitali" deb ataluvchi kategoriyaning evolyutsion ko'rinishi hisoblanib, industrial jamiyatning postindustrial (axborotlashgan) jamiyatga o'zgarishi bilan asoslanadi.

Inson kapitali quyidagi tarkibiy bo'limlardan tashkil topadi:

a) malakali, yig'ilgan ishchi kuchi va eng etuk mutaxassislar hamda menejerlar bilan tuzilgan shartnoma;

b) tashkilotdagi barcha xodimlarning bilim, malaka, amaliy ko'nikma va tajribalarining umumiy yig'indisi;

v) boshqa tashkilotga ko'chirib yoki qaytadan yaratib bo'lmaydigan qiymatlar tizimi, mehnat madaniyati, biznes falsafasi kabilarni ta'kidlash mumkin.

Inson kapitalining tub asosini firmada ishlayotgan xodimlar insonlar tashkil etadi. Bir muhim jihatni alohida ta'kidlash joizki, biznes-individ munosabati, quldorlik davridagi quldor-qul munosabatlari singari yaqqol namoyon bo'lmaydi. Ya'ni, firma jismoniy shaxsni o'z mol-mulki sifatida erkin tasarruf eta olmaydi. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt insonning bilim, malaka hamda ko'nikmalarini o'z tijorat faoliyatida foydalanish (biznes maqsadlari yo'lida) uchun sotib oladi. Hayotiy jarayonda gazeta, televizion kanal, sport komandasi yoki auditorlik firmasini sotib olishda asosiy e'tibor qaratiladigan jihatlardan biri bu uning personalidir. Buning sababi, sotib olinayotgan nafaqat bino, inshoot, stanok va uskunalar, balki imij, logotip, erishilgan yutuqlar, zabt etilgan bozorlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu qiymatliklar tashuvchisi insonlardir, ya'ni ular

²³ Покровский В. На путях демополизации народного хозяйства // Хозяйство и право. - 1990. - N 12. - С.353.

²⁴ Козлова В.А. Интеллектуальный капитал: экономическое содержание и особенности воспроизводства: Автореф. дис. канд. экон. наук: 08.00.01 / Финансовая академия при правительстве РФ. —М., 2001. -16с.

birgina korporativ manfaatlar yo'lida o'zaro jipslashgan komanda hisoblanadi. Demak, korxona bilan unda ishlovchi insonlar ham sotiladi-mi? – degan savol tug'ilishi tabiiy. Yo'q. Insonlar sotilmaydi va sotib olinmaydilar. Faqatgina shu xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomalari sotib oluvchiga huquqiy daxldorlik jihatidan o'tkaziladi.

Demak, “ishchi kuchi” kategoriyasi – bu xo'jalik yurituvchi sub'ekt hamda jismoniy shaxs o'rtasidagi o'zaro kelishuv hisoblanib, unga ko'ra shaxsning bilim, malaka va ko'nikmalaridan biznes maqsadlari yo'nalishida foydalaniladi. Ta'kidlangan kelishuv huquqiy jihatdan mehnat shartnomasi ko'rinishida rasmiylashtirib qo'yiladi. Transaksion tahlil nazariyasiga binoan “yollanish haqidagi shartnoma riskka neytral bo'lgan individ hamda riskka qarshi bo'lgan, vazifalarni belgilab beruvchi tomon o'rtasidagi munosabat bo'lib, bu vazifalar shartnoma muddati mobaynida bajarib boriladi”²⁵. Demak, mehnat shartnomasining mazmuniga ko'ra, individ o'z professional faoliyati ustidan nazorat huquqini topshirishi lozim. Ko'rinib turibdiki, “ishchi kuchi” kategoriyasi, “mehnati shartnomasi” tushunchasiga ko'ra, kengroq, bundagi farq huquqiy belgilanmagan, qayd etilmagan, ammo biznes jarayonida ishlatiladigan kelishuvlardan iborat bo'lib, jismoniy shaxslar tomonidan “vijdon kodeksi”ga ko'ra rioya qilib boriladi.

“Ishchi kuchi” kategoriyasini xarakterlovchi yana bir o'ziga xos xususiyat bu uning soha bo'yicha tarkibiy tizimlashganligi. Ixtiyoriy turdagi tadbirkorlikni oladigan bo'lsak, o'z yo'nalishiga qarab ma'lum bir miqdor va sifatdagi bilim, ko'nikma va malaka talab etiladi (ya'ni, turli yo'nalish, darajadagi mutaxassislar). Demak, biznes “ishchi kuchi” – bu firma va jismoniy shaxs o'rtasida tuzilgan kelishuvlar tizimi bo'lib, unga ko'ra firma jismoniy shaxsning bilim, ko'nikma va malakalaridan o'z tijorat faoliyatida foydalanish shartlari kelishib olinadi. Demak, ko'rilyotgan iqtisodiy kategoriyani “umumiy ishchi kuchi” deb qaralishi maqsadga muvofiq bo'lar edi. Biznes jarayonining normal faoliyat yuritishi uchun

²⁵ Олейник А.Н. Институциональная экономика: Учебное пособие. - М.: ИНФРА-М, 2004. -с.235.

ma'lum bir davrda turli xil mutaxassislikdagi va turli yo'nalishdagi mutaxassislar talab etiladi. Ta'kidlab o'tilgandek, "umumiy ishchi kuchi" yuridik nuqtai nazardan olib qaralganda shtatlar jadvali ko'rinishida qayd etilmoqda.

Inson kapitalining asosiy qismini korxonadagi xodimlar bilim, ko'nikma, malakalari tashkil etadi va ular mehnat shartnomalarida qayd etilishi talab etiladi. Ta'kidlash joizki, xodimlarning har qanday bilimlari ham biznes uchun manfaatli bo'lavermaydi. F. Maxlup inson tomonidan egalik qilinadigan barcha bilimlarni quyidagi 5 guruhga ajratgan²⁶:

1) amaliy bilimlar – shaxs bajarayotgan ishida ahamiyatli, kerakli qarorlar qabul qilishi hamda ishlar bajarishda asqotadigan bilimlar, shuningdek, bularning faoliyati sohasidan kelib chiqib: professional bilimlar; iqtisodiyotning aniq bir sohasidagi bilimlar; ishchi, xodim bilimi; siyosiy bilimlar; uy ishlaridagi bilim; boshqa amaliy bilimlar;

2) intellektual bilimlar – bular intellektual ehtiyojlarni qondiradi, shuningdek, shaxsdagi ijtimoiy va tabiiy-ilmiy ma'lumot darajasini va umumiy madaniyatini anglatadi;

3) odatiy va "ko'ngilochar" bilimlar – oddiy qiziquvchanlik yoki noan'anaviy ehtiyojlar bo'yicha ega bo'lingan ma'lumotlar jamlanmasi;

4) diniy bilimlar – Xudoni tanish, imon keltirish xususidagi bilimlar;

5) keraksiz bilimlar – egallab turuvchining manfaatlariga zid, inson ongida ortiqcha bo'lgan, maqsadsiz ushlab turilgan bilimlar.

YUqoridagi guruhlash natijasida xulosa qilish mumkinki, firma inson kapitalidagi daxldor sifatida faqatgina amaliy bilimlarning ayrim qismlari va intellektual bilimlarning ba'zi qismlari biznesda yangilik va ijodiy yondashuv uchun talab etilishi mumkin. SHu o'rinda ta'kidlash lozimki, bilimlar tizimi nuqtai nazaridan qolgan bilimlarning umuman kerak emasligini qat'iy belgilab bo'lmaydi. Masalan, xodimning diniy bilimlari korporativ manfaatlariga zid bo'lsa, u o'z-

²⁶Махлуп Ф. Производство и распространение знаний в США / Пер. с англ. - М., 1966, - с.51.

o'zidan ishdan bo'shab ketishi mumkin, bu esa umumiy intellektual va inson kapitaliga teskari ta'sir ko'rsatishi aniq.

Demak, boshqa turdagi bilimlarning salbiy ta'siri va manfaatli jihatlarini bevosita ko'rsatish qiyinroq. SHu boisdan, tadqiqotlarimizning kelgusi qismlarida “korxona ishchisi”, “mehnat shartnomasi” kabi tushunchalar bilan bog'liq holatlarda individning faqatgina intellektual hamda amaliy bilimlari inobatga olingan holda fikr yuritiladi. Xodimning boshqa bilim, ko'nikma va malakalari biznesning qiymat yaratish jarayonlarida ishtirok etgan holda intellektual kapitalning boshqa qismlariga tegishli deb qaraladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, biznesdagi inson kapitali bu korxonadagi xodimlar arifmetik jihatdan umumiy yig'indisidan sinergetik effekt bilan farq qilib turadi. “Inson kapitali”ning mohiyatiga e'tibor berib qaraydigan bo'lsak, bunda tizimga solinmagan bilimlarning o'zaro birga ishlash jarayonidagi uzatilishini kuzatish mumkin, ya'ni har bir ishchi o'z atrofidagi xodimning bilimi, o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib boradi, shuningdek, ish sharoitidagi norasman munosabatlar (mish-mish, g'iybat, voqealar) korxonadagi umumiy kompleksni tashkil etadi. Boshqacha qilib aytganda, ta'kidlanganlarning barchasi oxir-oqibatda birga ishlovchi xodimlarning boyliklar tizimi, mehnat madaniyati, biznes falsafasini tashkil etadi.

Inson kapitalining eng xarakterli tomoni shundaki, ularning hech biri shaxsdan ajralmasligi, demak o'z-o'zidan korxona mulkiga o'ta olmaydi. Ta'kidlangandek, bu qiymatliklarning “moddiy tashuvchisi” – inson bo'lib, u erkin va mustaqil ravishda o'z mehnat munosabatlarini rejalashtirish huquqiga ega. Demak, biznes kapitalining asosiy komponenti bo'lgan inson kapitali biznes mulkdorlari ixtiyoriga tegishli emasligini ko'rish mumkin. Ma'lumki, bino, inshoot, texnik qurilmalar, litsenziya shartnomalaridan kelib chiquvchi huquqlar, axborot resurlari va boshqa shu kabilar biznes mulkdorlari ixtiyoriga va qaroriga ko'ra kapital tarkibidan chiqarilishi mumkin. Mulkdor xohishi bo'lsa ta'kidlangan aktivlar foyda keltirmasa va hatto keraksiz bo'lsa-da kapital tarkibida saqlab

qolinishi mumkin. Bu kabi aktivlar mulkdori ekanligini tasdiqlash uchun oddiy huquqiy asos talab etiladi, xolos. Tushunishimizcha, inson kapitali bilan bunday holat bo'lmaydi. Korxonaga mehnat shartnomasiga binoan tegishli bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, ishchi nuqtai nazaridan, befoyda ekanligi aniqlansa, shuningdek, ushbu xodimga nisbatan bo'lgan munosabatlar uni qoniqtirmasa, hech bir qonun yoki qoida ishchini (ishchilar guruhini) bu korxonada olib qololmaydi, boshqa aktivlardan farqli o'laroq ishchilar bilan bo'lgan munosabatlar nafaqat huquqiy, balki iqtisodiy, psixologik, etnik, fiziologik va boshqa shu kabi inson shaxsini himoya qiluvchi qonunlarga bo'ysunadi.

Tashkiliy kapital intellektual kapitalning tarkibiy qismi hisoblanib, korxonaga umumiy daxldorligi mavjud. Bu bozor talablarini bajarish uchun korxona tashkiliy imkoniyatlari sifatida qaralishi mumkin. Umumiy qilib aytganda, axborotlarni qayta ishlovchi tashkiliy tizimlarda inson kapitali qay tarzda ishtirok etishi shunda namoyon bo'ladi.

Tashkiliy kapital tarkibiga tuzilmaviy kapitalning bir qismi, ya'ni ishlab chiqarish faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq bo'lgan qismi ham qo'shiladi, jumladan:

- a) korxonaning intellektual mulk ob'yektlari (ijodiy mehnat mahsuli);
- b) korxonaning axborot texnologiyalari va resurslari;
- v) elektron tarmoqlar;
- g) biznesni boshqarish tizimi va tashkiliy tuzilmasi.

Intellektual mulk ob'yektlari deganda tadbirkorlik faoliyatida iqtisodiy naf olish maqsadida foydalaniladigan, korxona xodimlarining ijodiy mehnat mahsuli (natijalari) tushuniladi. Tashkiliy kapitalning mazkur guruhiga xos bo'lgan xususiyat – uning huquqiy jihatdan juda mukammal himoya qilinganligi va boshqa shaxslar tomonidan beruxsat foydalanilmasligida. O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligiga binoan Korxona intellektual mulki tarkibiga quyidagi intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan mutlaq huquqlar kiradi:

- ixtiroga, foydali modelga va sanoat namunasiga bo'lgan patent;
- selektsiya yutuqlariga bo'lgan patent;

- EHM uchun dastur va ma'lumotlar bazasidan foydalanishning litsenzion shartnomalari;

- integral mikrosxema topologiyalaridan foydalanish bo'yicha litsenzion shartnomalar va boshqalar.

Intellektual mulk ob'ektlariga bo'lgan huquqlar biznes intellektual kapitali tarkibiga kiritilib, korxona balansida nomoddiy aktivlar tarkibida hisobga olib kelinadi.

Kapitalning eng asosiy xususiyatlaridan biri yangi qiymat yaratishidir, bu esa postindustrial jamiyatdagi asosiy talab bo'lib, industrial jamiyatdagi talablardan tubdan farq qiladi. Industrial jamiyatda ishlab chiqarish quvvatlarining oshirib borilishi, ya'ni amaldagi kapital (ishlab chiqarishdagi va moliyaviy)ning orttirilishi iqtisodiy o'sish omili sifatida qaraladi. Ammo jamiyatdagi ishlab chiqarish quvvatlari kritik nuqtaga etgandan keyin, asosiy masala ushbu quvvatlarni qanday ishlatish masalasi, ularni qaerdan sotib olish masalasidan ko'ra muhimroq sanaladi. Boshqacha qilib aytganda, zamonaviy biznesda mahsulot sotish, tarqatish tarmoqlari biznes foydalilik darajasiga ta'sir etuvchi asosiy omil sanaladi. Ushbu tarmoq ba'zi hollarda virtual holda ham bo'lishi mumkin.

Intellektual kapitalning taklif etilgan tarkibiy tuzilishi biznes qiymatini yaratishda ishtirok etayotgan, ko'zga ko'rinmaydigan omillar buxgalteriya hisobini yuritish, tahlil va audit qilish uslubiy vositalarini isloh qilishning asosiy kontseptsiyasini ifodalash imkonini beradi.

Intellektual kapital kontseptsiyasining mohiyati shundan iboratki, xo'jalik yurituvchi sub'ekt doirasida yig'ilgan axborot, bilimlar va boshqa ko'zga ko'rinmaydigan omillar yig'indisini quyidagi tamoyillarga amal qilgan holda biznesning intellektual kapitali, deb hisoblash mumkin.

Birinchidan, biznes intellektual kapitali bir-birisiz mavjud bo'lmaydigan inson, tashkiliy va mijoz kapitali uchligining yaxlitligini o'zida namoyon etadi. Intellektual kapitalning yuqorida sanab o'tilgan uchta tarkibiy qismidan har biri o'z tarkibiga va maqsadli yo'nalishiga ega, lekin xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyat

ko'rsatishining maqsadi (biznes qiymatini tashkil etish) nuqtai nazaridan faqat intellektual kapital va butun biznes-tizimining tarkibiy qismi sifatida mavjud bo'ladi. Shunday tamoyil mavjudki, biznes intellektual kapitali tarkibiy qismlaridan biri "nolga aylanganda" uning qolgan tarkibiy qismlari ham avtomatik tarzda "nolga aylanadi". Bu erda korporativ moliya nazariyasida qiymatni saqlash qonuni sifatida ma'lum bo'lgan tamoyilning yaqqol buzilishi o'rin tutadi²⁷. Ushbu tamoyilga ko'ra yaxlit birlik qiymati uning qismlari qiymatining summasiga teng. Intellektual kapital tarkibiy qismlari bilan bo'lgan holatda esa ushbu tamoyildan faqat uning har bir qismiga qandaydir qiymatni yozish uchun foydalanish mumkin. Biroq amaliy qarorlar qabul qilish uchun u nafaqat hech narsa bermaydi, balki chalkashtirib ham yuboradi. Ushbu holat juda muhim. Unga e'tibor qaratish uchun L.Edvinsson shunday ta'kidlaydiki, intellektual kapital tarkibiy qismlarining qiymatini qo'shish emas, balki ko'paytirish lozim! U holda ulardan birining nolga aylanishi butun intellektual kapital qiymatining nolga aylanishiga olib keladi²⁸.

Ikkinchidan, intellektual kapitalning taklif etilgan tarkibiy tuzilishi biznes qiymati oshishi uchun ishchi kuchi (biznestransaksiyasi) nima (mijoz kapitali), qanday (tashkiliy kapital) va nimaning yordamida (moliya-sanoat kapitali) qilishi kerak degan savolga javob beruvchi unsurlardan tarkib topgan. Bunday tuzilma biznes-tizimning asosiy (inson kapitali) va maqsadli (mijoz kapitali)tarkibiy qismlarini ajratish imkonini beradi. Intellektual kapital (va butun biznes kapitali)ning asosini inson kapitali tashkil etadi. Lekin bozor sharoitida intellektual kapital (va butun biznes kapitali) tizimida mijoz kapitali yo'naltiruvchi (maqsadli) rol o'ynaydi. Agar biznes-tizimning boshqa tarkibiy qismlari mijoz kapitaliga xizmat ko'rsatishga yo'naltirilmagan bo'lsa, u holda ular va butun biznes bozor tomonidan baholanmaydi, demak firma faoliyatining maqsadiga erishilmaydi.

Ushbu masala yuzasidan professor B.Yu.Xodiev tomonidan quyidagicha fikr bildirilgan: "Korxonani baholash eng ehtimol tutilgan sotilish narxi bo'lishi

²⁷ Kaplan R.S. Analog Devices: The half-life sistem, 9-190-061. -Boston: Harvard BusinessSchool, 1990.

²⁸ Edvinsson L. Intellectual capital: realizing your company's true valueby finding its hidden brainpower / L.Edvinsson, M.S.Malone. - N.Y.: HarperBusiness, 1997.-342p.

mumkin bo'lgan qiymatning puldagi ifodasini aniqlashni anglatadi va u korxonaning tovar sifatidagi ikkala xususiyatini ham, ya'ni uning foydaliligini ham, ushbu foydalilik uchun zarur bo'lgan xarajatlarni ham aks ettirishi lozim»²⁹.

Ushbu xulosalar hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, sohalarni modernizatsiyalash sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi. Turg'un inson kapitali past bozor qiymatiga ega. Firmaning kuchli tomonlari (inson kapitali va biznesning tashkiliy kapitali) uning salohiyatidan biznesning real qiymatiga aylanishi (mijozlar tomonidan tovar yoki xizmat oshirilgan narxda baholanishi) uchun bozorga o'z ustunliklarini har kuni va har soatda namoyish etishi zarur. Ushbu maqsadda intellektual kapital hamda biznesning boshqa kuchli tomonlari to'g'risidagi umumiy axborotni hisobga olish, tahlil qilish va uni tashqi foydalanuvchilarga taqdim etishning maxsus vositalarini ishlab chiqish lozim.

Bugungi kunda "intellektual kapital" tushunchasi hech bir xalqaro konventsiyada, qonunchilik hujjatida yoki ancha past darajadagi me'yoriy-huquqiy hujjatda yaqqol ko'rinishda foydalanilmayotganligi Intellektual kapital kontseptsiyasi amaliy jihatdan zaif ishlab chiqilganligining oqibatidir. Faqatgina baholash faoliyatining yangi evropacha standartlari bundan mustasno. «Intellektual kapital» tushunchasidan xorijiy mutaxassislar amaliy faoliyatida foydalanayotganligi uning shunchaki nazariy konstruktsiya emasligidan dalolat berib turibdi.

1-bob bo'yicha xulosalar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, kelajak korxonasining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

- kelajakni ko'ra bilish;
- globalizatsiya;
- egiluvchanlik va moslashish;

²⁹Ходиев Б.Ю., Беркинов Б.Б., Кравченко А.Г. Бизнес қийматини баҳолаш. - ФАН, 2006. -225б. 30. Б.

- axborot texnologiyalarini joriy etish;
- innovatsiya va tadbirkorlik rolining ortib borishi;
- mahsulot chiqishini tezlashtirish;
- integratsiya va vazifalarining o'zaro kesishuvi;
- mijoz rolining ustunligi;
- qo'shilgan qiymat yaratish va ish sifatiga moslashuv;
- biznes tizimi ishtirokchilarining manfaatlarini hisobga olish;

Yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtirib xulosa qiladigan bo'lsak, jamiyatning axborotlashuvi va intellektuallashuvi natijasida korxona faoliyati ikki asosiy yo'nalishdagi transformatsiyaga uchraydi. Jumladan: biznes-tizimidagi ichki iqtisodiy munosabatlar, shuningdek, biznesni tashkil etish shakllarining xarakter jihatdan o'zgarishi; korxonani boshqarish tamoyillari o'zgarishi yuz beradi.

Intellektual kapital rivoji mutaxassisslar tayyorlash va ularni turli sohalarda ta'lim olishi muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan O'zbekiston Respublikasida Oliy ta'lim tizimi keskin rivojlanib borayotganligining guvohi bo'lib turibmiz. Jumladan, yangi va zamonaviy mutaxassisliklar va xalqaro talab darajasidagi ta'lim dasturlar yaratilishi lozim.

Intellektual kapital (IK) - nisbatan yangi tushuncha bo'lib, intellektual mulk va nomoddiy aktivlarga nisbatan kengroq ma'no anglatadi. IK huquqiy yoki buxgalteriya hisobiga nisbatan ko'proq iqtisodiy tushuncha deb hisoblash mumkin. Ilmiy adabiyotlarda 1990 yildan boshlab IK tushunchasi qo'llanib kelinmoqda. Ushbu masalada Grilixes korporatsiya bozor qiymati bilan hosilaviy aktsiya qiymatini aktsiya miqdoriga nisbati va uning aktivlari tiklash qiymatini "amaldagi korxona" terminini e'tiborga olgan holda korrektirovka qilinganiga aytiladi.

Korxonalar faoliyatini zamonaviy boshqarish natijasida vujudga keladigan xarajatlardan biri transaksion xarajatlardir. Transaksion xarajatlar [transaction costs] — hamkorlarni izlash jarayonida paydo bo'ladigan xarajatlar, tijorat bitimlari to'g'risida muzokaralar olib borish, ularni tuzish va uning bajarilishi

ustidan nazoratni tashkil qilish kabi xarajatlarni o'z ichiga oladi. Ushbu xarajatlarga kompaniya tomonidan amalga oshiriladigan xarajatlar (masalan, ma'lumotlarni qayta ishlash, taransport xarajatlari) bundan tashqari sarflanadigan vaqt ham muhim rol o'ynaydi. Keng ma'noda transaksion xarajatlar jamiyat xarajatlari bo'lib, boylik yaratishning jismoniy jarayonlariga bog'liq bo'lmaydi.

Ushbu xarajatlarni quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

- 1) axborot izlash bilan bog'liq xarajatlar (kontragent, baho va kutilayotgan baho to'g'risida);
- 2) bitim yoki kontrakt tuzish shartlari bo'yicha muzokaralar o'tkazish xarajatlari;
- 3) sifat darajasini nazorat qilish hamda xatoliklardan yo'qotishlar, standartlar tizimini ishlab chiqish bilan bog'liq xarajatlar;
- 4) mulklarni huquqiy jihatdan boshqarish, jamiyatda huquqiy tizim tashkil etish bo'yicha xarajatlar;
- 5) kontrakt shartlarini buzish natijasida paydo bo'ladigan xarajatlar.

Transaksion xarajatlar funktsiyasiga ko'ra 2 guruhga bo'linadi: muvofiqlashtirish xarajatlari va mulk xuquqini himoya qilish hamda tasniflash xarajatlari.

“Transaksion xarajatlar” tushunchasining iqtisodiy mohiyatini yanada yaqqol tushunish uchun ularni “transformatsion xarajatlar” tizimida o'rganish maqsadga muvofiq. Bu ikki tushunchani o'zaro solishtiradigan bo'lsak, transformatsion xarajatlarni resurslar va natijalar o'zaro ayirboshlanishidagi sarflar deb qaraydigan bo'lsak, transaksion xarajatlarni haq-huquqlarning resurslar va natijalarga ayirboshlanishidagi sarflar deb ta'riflash maqsadga muvofiq bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, transformatsion xarajatlar– faoliyat xarajatlari bo'lsa (moddiy bo'lishi shart emas), transaksion xarajatlar – shu faoliyat ishtirokchilarining o'zaro munosabat xarajatlari hisoblanadi.

2-Bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoritida intellektual kapital buxgalteriya hisobi qoidalarini nazariy masalalari.

2.1. Intellektual kapitalga investitsiyalarni buxgalteriya hisobida yuritish qoidalarining tashkiliy asoslari.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va ishlab chiqarishni diversifikatsiya-lash sharoitida O'zbekiston Respublikasi intellektual kapitalning tarkibiy qismlaridan biri identifikatsiyalanmagan tarzda hisobga olinishi natijasida buxgalteriya hisobini yuritishda ayrim muammolar vujudga keladi. Natijada xo'jalik sub'ektlari balansida aks ettirilishi muammosi (gudvill kontseptsiyasi) ularni yaratishga kiritilgan investitsiyalarni buxgalteriya hisobini yuritish qoidalarini qiyinlashtiradi. Kapital qo'yilmalarni o'zida namoyon etuvchi xarajatlar ushbu xarajatlar tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kelgusi daromadlar bilan muvofiqlashtirilmaydi. Natijada, L.Baruch va P.Zarovinning ifodalashicha, "moliyaviy axborot bilan bozor qiymati o'rtasidagi aloqa uziladi"³⁰.

Fikrimizcha, identifikatsiyalanmaydigan nomoddiy aktivlarga kapital qo'yilmalar buxgalteriya hisobining asosiy qiyinchiligi quyidagilardan iborat:

Birinchidan, umumiy qoidaga ko'ra, biznes kapitalini yaratish (xarid qilish) uchun barcha investitsiyalar buxgalteriya hisobida alohida schyotlarda aks ettiriladi (0800, 5800 va boshqa schyotlar) va maxsus qoidalar bilan reglamentlanadi. Bunda, albatta, ushbu qo'yilmalar faqat, agar shunday tarzda yaratilgan yakuniy mahsulot identifikatsiyalanadigan nomoddiy aktiv sifatida hisobga olinsagina, yuqoridagi maxsus qoidalar ta'siri ostiga tushadi va maxsus schyotlarda aks ettiriladi. Intellektual kapitalning boshqa tarkibiy qismlarini yaratish uchun qo'yilmalar esa (ya'ni, balansda gudvill tarkibida hisobga olinadigan qo'yilmalar) avtomatik tarzda ishlab chiqarish xarajatlari schyotlarida hisobga olinadigan biznes transaktsiyalari bilan bog'liq joriy xarajatlar toifasiga kiritiladi (2000, 2300, 9400

³⁰ Baruch L. The boundaries of financial reporting and how to extend them / L.Baruch, P.Zarowin. — Paris.:Organization for Economic Cooperation and Development, 1998. p-17.

va boshqa schyotlar). Biznes intellektual kapitalining «gudvillashtirilgan» qismiga kiritilgan qo'yilmalar hisobini yuritishning bunday tartibi tegishli buxgalteriya standartlari bilan ham mustahkamlangan. MHXS№ 38 ga ko'ra ichki yaratilgan ishbilarmonlik nufuzi, mijozlar ro'yxatlari va shunga o'xshash boshqa moddalar aktivlar deb tan olinmaydi. BHMS № 7 ga muvofiq nomoddiy aktivlar tarkibiga tashkilot xodimlarining intellektual va ishbilarmonlik xususiyatlari, ularning malakasi va mehnat qilish qobiliyati kiritilmaydi. Pirovardida, intellektual kapitalni yaratish bilan bog'liq chiqimlarning katta qismi xarajatlar yoki foydani ishlatish sifatida hisobga olinadi, bunda yaratilgan nomoddiy aktivlar esa balansda hisobga olinmaydi.

Ikkinchidan, intellektual kapitalni moddiy mulk standartlari toifasiga kiritish vositalaridan biri sifatida identifikatsiyalanadigan nomoddiy aktivlar qiymatini shakllantirish algoritmi ishtirok etadi.

MHXS 38 (22-bandi)ga ko'ra nomoddiy aktiv dastlab tannarx bo'yicha baholanadi. Moliyaviy hisobotda dastlab tan olinganidan keyin nomoddiy aktiv qayta baholangan qiymat bo'yicha hisobga olinadi va bu uning qayta baholash sanasidagi (to'plangan amortizatsiya va qadrsizlanishdan ko'rilgan zararlar chegirma qilingan holda) adolatli qiymati hisoblanadi. Nomoddiy aktivni xarid qilish yoki uni yaratish ishlarining yakunlanishi bilan bog'liq chiqimlar xarajatlar sifatida aks ettirilishi lozim, ushbu chiqimlar ishonchli baholanishi va aktivga dastlabki belgilangan normalardan tashqari bo'lajak iqtisodiy foydani yaratish imkonini berish ehtimoli mavjud bo'lgan holatlar bundan mustasno. Lekin nomoddiy aktivlar xususiyatining o'zi shundayki, ular bo'yicha iqtisodiy samarani aniqlab bo'lmaydi, kompaniyada deyarli hamma vaqt yangi chiqimlar ushbu aktivning rentabelligini oshirishiga ishonch bo'lmaydi. O'z navbatida, deyarli hamma vaqt nomoddiy aktivlar bilan bog'liq keyingi xarajatlar joriy davr xarajatlari tarkibiga kiritilishi lozim. Mazkur holat yana shu bilan murakkablashadiki, intellektual kapital tarkibiy qismlariga qo'yilmalar hisoblanadigan xarajatlarning katta qismiga nisbatan MHXS№ 38 da ularning

kapitallashtirilishini to'g'ridan-to'g'ri taqiqlovchi qoida mavjud. YA'ni, MHXS№ 38 ga ko'ra tadqiqot o'tkazish yo'lidagi barcha chiqimlar (ular amalga oshirilgan vaqtda) joriy davr xarajatlari sifatida tan olinishi kerak. Bunday yondashuv ishga tushirish, o'qitish, tovarni reklama qilish va sotish, kompaniyani butunlay yoki uning bir qismini ko'chirish va qayta tashkil etish xarajatlariga nisbatan qo'llaniladi.

BHMS №7 ga muvofiq nomoddiy aktivlar buxgalteriya hisobiga dastlabki qiymat bo'yicha qabul qilinadi, keyinchalik ushbu qiymat o'zgarishi mumkin emas, qonun hujjatlarida belgilangan holatlar bundan mustasno. Ushbu qoidadan asosiy vositalarning dastlabki qiymati kelib chiqadi. Agar identifikatsiyalanadigan nomoddiy aktivlar deganda asosan intellektual mulk ob'yektlari va individuallashtirish vositalari uchun huquq beruvchi hujjatlardan kelib chiquvchi mutlaq huquqlar, dastlabki qiymat deganda esa ushbu hujjatlarni olish xarajatlari tushunilsa, u holda BHMS № 7 dagi mavjud qoida to'liq amal qiladi. Lekin mazkur algoritmi identifikatsiyalanadigan nomoddiy aktivlarning butun sinfi uchun qoida bo'la olmaydi (ayniqsa, intellektual kapitalning hozirgi vaqtda gudvill da yashiringan tarkibiy qismlari uchun). Yuqorida ta'kidlanganidek, mutlaq huquqlardan foydalanish imkoniyatini qo'lga kiritish uchun qilingan xarajatlarning eng kam miqdori intellektual kapital tarkibiy qismlariga nisbatan qoida hisoblanadi. Bunda intellektual kapitalning yuqorida ko'rsatilgan tarkibiy qismlarining biznesga iqtisodiy foyda keltirish qobiliyatini saqlab turish uchun kiritiladigan keyingi davriy qo'yilmalar katta summani tashkil qiladi. Intellektual kapitalning bunday xususiyati nomoddiy aktivlarni o'zgarmaydigan dastlabki qiymat bo'yicha hisobga olish algoritmini yaroqsiz holatga keltiradi (hech bo'lmaganda, bu butun bir guruh uchun umumiy qoida bo'lishi mumkin emas).

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib, biz tomonimizdan identifikatsiyalanadigan nomoddiy aktivlarni yaratishga (xarid qilishga) kiritilgan qo'yilmalar hisobini yuritishning quyidagi qoidalari taklif etiladi:

1) umumiy qoida sifatida, nomoddiy aktivlar hisobga (0400 schyotda) iqtisodiy foyda olish imkonini beruvchi huquqlarni olish vaqtida qabul qilinadi. Ko'rsatilgan sanagacha firmaning bunday huquqlarni olish bilan bog'liq barcha xarajatlari uzoq muddatli investitsiyalar (0800) schyotida aks ettiriladi. Schyotda to'plangan xarajatlar summasi nomoddiy aktivning dastlabki qiymatini shakllantiradi;

2) korxonaning iqtisodiy foyda olish huquqlari mutlaq tarqalib borishining ob'yektiv kechayotgan jarayonini hisobga olgan holda, nomoddiy aktivlar hisob qiymati o'zgarmas bo'lishi mumkin emas. Demak, mazkur nomoddiy aktivlarga kiritiladigan barcha keyingi qo'yilmalar ham dastlab 0800 schyotida hisobga olinadi. Firma yuqorida ko'rsatilgan qo'yilmalardan iqtisodiy foyda olishni boshlagan sanadan e'tiboran ularning summasi 0400 schyotining tegishli qismiga o'tkaziladi va ushbu identifikatsiyalanadigan nomoddiy aktivni foydali ishlatish muddati mobaynida amortizatsiya qilinadi. Bunda barcha keyingi qo'yilmalar bo'yicha nomoddiy aktivni foydali ishlatish muddati yangidan hisoblab chiqiladi;

3) ushbu algoritm korxonaning nomoddiy aktivlariga kiritilgan qo'yilmalar hisobini yuritishning sof texnik buxgalteriya tartibi hisoblanadi. Ya'ni, 0400 schyotida hisobda turgan“ nomoddiy aktivlar qoldiq qiymati”ning summasiga biznes intellektual kapitali tegishli tarkibiy qismlarining haqiqiy qiymati sifatida qaramaslik kerak.

Biznes intellektual kapitalining har bir tarkibiy qismini alohida baholash, ya'ni uning adolatli qiymatini aniqlash muammosi mazkur tadqiqot predmeti hisoblanmaydi va mustaqil o'rganishni talab qiladi.

Yuqorida bayon etilgan tamoyillarni amalga oshirish uchun biz tomonimizdan bugungi kunda 2000, 2300, 9400 va boshqa schyotlarda hisobga olinadigan chiqimlar tarkibidan amalda intellektual kapitalga qo'yilmalar hisoblanadigan xarajatlarni ajratish va ularni intellektual kapitalning tegishli tarkibiy qismlariga “bog'lash” taklif etiladi. Intellektual kapitalning ilgari taklif etilgan turlari va

unsurlariga kiritilgan keyingi qo'yilmalar va ular buxgalteriya hisobini yuritishning o'ziga xos xususiyatlariga batafsil to'xtalib o'tamiz.

K.Makkonnell va S.Bryuning fikricha: "Inson kapitaliga investitsiyalar – bu ishchilar malakasi va qobiliyatini, natijada, ular mehnatining samaradorligini oshiradigan har qanday harakat tushuniladi. Kimnidir mehnati samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi xarajatlarni investitsiyalar sifatida ko'rib chiqish mumkin, chunki joriy xarajatlar yoki chiqimlar kelgusida ushbu xarajatlar daromadlar oqimining ortishi bilan ko'p martalab qoplanishi mo'ljallab amalga oshiriladi "³¹.

Hozirgi vaqtda jahon amaliyotida inson resurslarini hisobga olishga nisbatan ikkita printsipliy yondashuv mavjud³²: aktivlar modeli – “xarajatlarning” va foydalilik modeli. Birinchi model kapital uchun xarajatlar va uning amortizatsiyasi hisobini yuritish; ikkinchi model esa u yoki bu kadrga investitsiyalar samarasini bevosita baholashni nazarda tutadi. O'zbekiston Respublikasidagi hisob nazariyasi va amaliyoti ko'proq kapital qo'yilmalar uchun xarajatlarning davriy modeliga amal qiladi. Shundan kelib chiqqan holda, biz tomonimizdan biznes inson kapitaliga qo'yilmalarni identifikatsiyalash va hisobini yuritishning quyidagi tartibini taklif etamiz.

Mutaxassislar bilimlari va ko'nikmalarini rivojlantirishga kiritilgan qo'yilmalar hisobini yuritish. «Mutaxassislar bilimlari va ko'nikmalarini rivojlantirishga kiritilgan qo'yilmalar» schyotida (0800 schyot) tashkilotning o'z kuchi bilan ham, ta'lim muassasalari bilan shartnomalar bo'yicha ham amalga oshiriladigan xodimlarni o'qitish va malakasini oshirish xarajatlari hisobga olinishi mumkin. Ushbu xarajatlarning analitik hisobi har bir xodim bo'yicha yuritilishi kerak. Umumiy holatda mazkur xarajatlar summasi “Mutaxassisning vaqti, bilimlari va ko'nikmalaridan muntazam foydalanish uchun mutlaq huquqlar”

³¹ Макконнелл К.Р. Экономикс: В 2 т. / К.Р.Макконнелл, С.А.Брю:Пер. с англ.- Баку: Изд. "Азербайджан", 1992.-Т. 1.с-171.

³² Организация и методы оценки предприятия (бизнеса): Учебник /Под ред. В.И. Кошкина. - М.: ИКФ "ЭКМОС", 2002.с-354.

nomoddiy aktivining dastlabki qiymatini oshiradi. Agar o'qitish (malaka oshirish) mutaxassisning xizmat topshirig'i bo'yicha ishi bilan bevosita bog'liq bo'lsa, u holda mazkur qo'yilmalar axborot resurslari va texnologiyalari yoki ijodiy mehnat mahsullari uchun mutlaq huquqlar qiymatini shakllantiradi (oshiradi).

Xodimlarni izlash va ishga qabul qilish hisobini yuritish. "Xodimlarni izlash va ishga qabul qilish hisobini yuritish" schyotida tashkilotning kadrlar agentliklari yoki xodimlarni tanlab oluvchi mutaxassislar xizmatlariga haq to'lash xarajatlari hisobga olinishi mumkin. Umumiy holatda mazkur xarajatlar summasi "Mutaxassisning vaqti, bilimlari va ko'nikmalaridan muntazam foydalanish uchun mutloq huquqlar" nomoddiy aktivining dastlabki qiymatini oshiradi. Ushbu xarajatlarning analitik hisobi yangi ishga qabul qilingan har bir xodim bo'yicha yuritilishi kerak. Agar tashkilot tomonidan xodimlarni izlash xizmati uchun amalda to'langan haq yangi xodimning ishga qabul qilinishiga olib kelmasa, firmaning bunday xarajatlari, fikrimizga ko'ra, «Biznesning umumiy ishchi kuchidan foydalanish uchun mutlaq huquqlar» nomoddiy aktivida kapitallashtirish lozim. Bunda belgilangan talablarga javob beruvchi mutaxassisni izlash nuqtai-nazaridan zarur nomzodni topmaslik salbiy natijaga olib keladi. Lekin ushbu natija firmaga u tomonidan nomzodlarga nisbatan (malaka darajasi, ish haqi va h.k. bo'yicha) qo'yilayotgan talablar mehnat bozorining real sharoitlariga qanchalik mos kelishi haqidagi axborotni beradi. Boshqacha aytganda, ushbu muayyan biznes umumiy ishchi kuchining modeli tashqi muhit sharoitlariga mos keladi. SHunday qilib, tashkilot ushbu modelning bozor talablariga yaqinlashishiga olib keluvchi xarajatlari "Biznesning umumiy ishchi kuchidan foydalanish uchun mutlaq huquqlar" nomoddiy aktivida kapitallashtirilishi kerak.

Xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha xarajatlar hisobini yuritish. "Xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha xarajatlar hisobini yuritish" schyotida firma xodimlari bilimlari lavozim malakaviy talablarga javob berishi darajasini tekshirishdan iborat bo'lgan xodimlarni davriy attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha amaldagi xarajatlari hisobga olinishi mumkin. Ushbu xarajatlar summasi

“Biznesning umumiy ishchi kuchidan foydalanish uchun mutlaq huquqlar” nomoddiy aktivining qiymatini oshiradi.

2.2. Intellektual kapitalni buxgalteriya hisobida yuritishning amaldagi holati.

Intellektual kapitalni buxgalteriya hisobida identifikatsiyalash va aks ettirish qoidalarini ishlab chiqish, birinchi navbatda, gudvill buxgalteriya kontseptsiyasini puxta taftish qilishni anglatadi. Bu esa bugungi kunda “gudvill” tushunchasi “firmaning ishbilarmonlik nufuzi” soʻzining buxgalteriya ekvivalenti sifatida (yaʼni, butun biznes intellektual kapitali modeli sifatida) koʻrib chiqiladi. Buxgalteriya hisobining mavjud standartlariga koʻra, gudvill faqat bir firma tomonidan boshqa firmaning xarid qilinishi chogʻida yuzaga keladi va “ayirboshlash operatsiyasi sanasidagi kompaniyaning xarid qiymati bilan xaridorning xarid qilinadigan identifikatsiyalanadigan aktivlar va majburiyatlarning adolatli qiymatidagi ulushlari oʻrtasidagi farq sifatida”³³; “hisob-kitob qilish yoʻli bilan xarid qilinayotgan korxonaning haqiqiy qiymati bilan uni xarid qilish sanasidagi korxona sof aktivlarining bozor qiymati (barcha majburiyatlar summasi ayirilgan holda aktivlarning bozor qiymati) oʻrtasidagi tafovut”³⁴, “xarid qilingan mulkiy majmua sifatida tashkilotning xarid narxi bilan uning barcha aktivlari va majburiyatlarining buxgalteriya balansi boʻyicha qiymati oʻrtasidagi farq koʻrinishida”³⁵ belgilanadi. SHu tariqa "goodwill" — "yaxshi niyat" atamasi paydo boʻlgan. Bunda xaridor tomon bir muncha koʻp toʻlashini biladilar, lekin sabablar mazmunini oshkor etishga majbur emaslar.

Fikrimizga koʻra, gudvill, aslida, muayyan bitim natijalariga koʻra biznes (mulkiy majmua sifatida korxona) kapitalini bozor va buxgalteriya usuli bilan

³³ Учет по международным стандартам: Учеб. пособие. - 2-е изд., перераб. / А.М. Гершун, И.В. Аверчев, Е.Б. Герасимова и др.; Под ред. Л.В. Горбатовой. — М.: Фонд Развития Бухгалтерского Учета, 2002. с-413.

³⁴ Ўзбекистон Республикаси Бухгалтерия ҳисобининг 7-сон “Номоддий активлар” миллий стандарти. ЎЗР АВ 14.02.2009 й. 1485-1-сон билан рўйхатга олинган.

³⁵ Положение по бухгалтерскому учету "Учет нематериальных активов" ПБУ 14/2007: Утверждено приказом МФ РФ от 16.10.2007 N 91н // Финансовая газета, - 2007. - N 48.

baholash o'rtasidagi farqni talqin etuvchi texnik usul hisoblanadi. Buxgalteriya hisobining qoidalariga ko'ra qandaydir ko'zga ko'rinmaydigan narsa uchun to'lashga ruxsat etilmasligi bois, balans qiymatini xarid narxida hisoblab chiqish va o'rtadagi farqni aslini olganda ma'nosiz "yaxshi niyat" atamasi bilan belgilashni o'ylab topishgan.

Lekin yuqoridagi farqning hosil bo'lishi sabablari nimada? Fikrimizcha, printsiptial jihatdan, biznes kapitalini bozor va buxgalteriya usuli bilan baholash o'rtasidagi farqning hosil bo'lish omillarini quyidagi uchta guruhga ajratish mumkin:

- 1) mulkiy majmua sifatida korxona oldi-sotdisi muayyan bitimning spekuliyativ tarkibiy qismi;
- 2) moddiy aktivlar buxgalteriya hisobi qoidalarining texnik nuqsonlari;
- 3) intellektual kapital tarkibiy qismlarini balansga qabul qilmaslik yoki buxgalteriya hisobida noto'g'ri aks ettirish.

Gudvillning spekuliyativ tarkibiy qismi shundan iboratki, uning qiymatini topishning mexanik usuli turli xildagi keng noaniqliklar doirasini beradi. Xato baholashlar yoki bitimlarni tuzishdagi takliflar raqobatining natijasi hisoblangan barcha to'lovlar «gudvill» nomi ostida bitta noaniq massaga to'planadi. Ushbu to'lovlar vositachilar, rasmiy organlarga to'lanadigan katta miqdordagi vositachilik haqlari, shuningdek, oraliq moliyaviy xarajatlarni o'z ichiga olishi mumkin. Ayni paytda, fikrimizga ko'ra, spekuliyativ tarkibiy qismni gudvill paydo bo'lishining yagona sababi darajasiga ko'targan holda uning ahamiyatini oshirish zarur. BHMS №7 ga binoan³⁶ "Gudvill summasiga kelgusidagi iqtisodiy foydani kutib, xaridor tomonidan to'lanadigan narxga qo'shimcha sifatida qarash va alohida inventar ob'yekti sifatida hisobga olish lozim.

Manfiy gudvill summasini doimiy xaridorlar mavjudligi omili, sifat reputatsiyasi, marketing va sotish malakasi, ish yuzasidan aloqalar, boshqarish tajribasi, xodimlar malaka darajasi va shu kabilar bo'lmagan taqdirda, xaridorga

³⁶ Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисобининг миллий стандартлари. –Т.:Норма, 2004.

taqdim etiladigan narxdan chegirma sifatida ko'rish va muddati kechiktirilgan daromadlar (kelgusi davr daromadlari) sifatida hisobga olish lozim". Ayni holat "Nomoddiy aktivlar hisobi"da tashkilotning orttirilgan (ijobiy) ishbilarmonlik nufuzini bo'lajak foydani kutish narxiga ustama haqi sifatida, salbiy ishbilarmonlik nufuzini esa xaridorga taqdim etiladigan narxdan chegirmalar sifatida talqin etilishi birmuncha ajablanarli. Bular barchasining ortida bozorga va bozor narxiga chuqur ishonmaslik turibdi. Balans qiymati ta'sischi tomonidan intuitiv tarzda yagona to'g'ri qiymat sifatida, undan chetga chiqish esa ustama haq yoki chegirmalar sifatida tushuniladi.

Gudvillning spekulativ tarzda talqin etilishi shundan iboratki, «ko'pirtirilgan narx» alohida olingan bitimda o'rin tutishi mumkin, lekin iqtisodiyot qonunidan kelib chiqqan holda, ushbu xildagi barcha xo'jalik operatsiyalari uchun qoida bo'lishi mumkin emas.

Gudvill hosil bo'lishi omillarining ikkinchi guruhi buxgalteriya hisobi texnikasining xato hisob yuritish, moddiy aktivlar kabi klassik ob'yektlarga nisbatan ham ob'yektiv cheklanganligi bilan bog'liq. Hisob yuritish jarayonining mashaqqatli mehnatini osonlashtirish maqsadida buxgalteriya vositalari (aktivlar hisobini dastlabki narxlarda yuritish; asosiy vositalarni amortizatsiyalash va moddiy-ishlab chiqarish zaxiralarini hisobdan chiqarish usullari va b.) vaqti kelib ob'yektiv tarzda ularning tashkilot balansida aks ettirilgan qiymati bilan o'sha sanadagi real bozor narxining farq qilishiga olib keladi. Amalga oshiriladigan «kompensatsion» buxgalteriya tadbirlari (masalan, aktivlarni qayta baholash yoki ularni adolatli narxlar (tiklash, bozor qiymati) bo'yicha hisobga olish muammoni to'raligicha hal etmaydi. Yuqorida ko'rsatilgan ob'yektiv omillardan tashqari aktivlar balans bahosi nuqsonlarining qatori firma buxgalteriyasi hisob yurituvchi xodimlarining malakasi bilan shartlangan sub'yektiv xatolar bilan ham to'ldiriladi.

Mulkiy majmua sifatida korxona oldi-sotdisi muayyan bitimining spekulativ tarkibiy qismi, shuningdek, moddiy aktivlar buxgalteriya hisobi qoidalarining texnik nuqsonlari mazkur tadqiqot predmeti hisoblanmaydi. Keyinchalik, «gudvill

muammosini» ko'rib chiqayotib muallif shunday xulosaga keladi, bitim narxi talab va taklif qonunlariga qat'iy amal qilingan holda shakllangan, barcha aktivlar esa balansda uni tuzish sanasidagi adolatli qiymat bo'yicha hisobga olingan. Bunda gap gudvillning biznes intellektual kapitalining identifikatsiyalanmagan nomoddiy aktivlar tarkibida hisobga olinmaydigan barcha tarkibiy qismlarining umumiy bahosini o'zida namoyon etuvchi real qiymati haqida boradi. Hozirgi vaqtda gudvillni ana shunday tushunish ko'proq baholash faoliyatida qo'llaniladi. Professional baholovchilar ko'pincha firmaning bozor qiymati bilan uning sof aktivlari o'rtasidagi farqni ishbilarmonlik nufuzi qiymati (gudvill) bilan aynan bir xil, deb hisoblashadi³⁷. Gudvillni buxgalteriyada tushunishdagi farq shundan iboratki, bunda gap xaridning amaldagi narxi haqida emas, balki hisob-kitob kattaligi haqida boradi.

Gudvill kontseptsiasining inqirozi shundan iboratki, muayyan vaqtga qadar (firmaning bozor va balans qiymati o'rtasidagi farq bitim narxining bir necha foizini tashkil qilgunicha) uni izohlash kerak emas edi. Ushbu farqni «gudvill» moddasida aks ettirishning o'zi kifoya qilgan bo'lardi. Bu holat buxgalteriya hisobotlarining ishonchliligiga katta ta'sir ko'rsatmadi, chunki manfaatdor foydalanuvchilarga uning asosida asoslangan iqtisodiy qarorlar qabul qilish imkonini berdi.

Bizning fikrimizcha, so'nggi o'n yilliklar mobaynida gudvill qiymatining bunday shiddatli tarzda o'sishi, asosan biznes intellektual kapitalining katta qismi buxgalteriya hisobida aks ettirilmaganligi bilan bog'liq. Ushbu farazni tasdiqlash uchun bir necha misollar keltiramiz. Edvinssonning so'zlariga ko'ra, 230 mln. dollar qiymatidagi buxgalteriya aktivlariga ega bo'lgan "Lotos" firmasi "Ay-Bi-Em" kompaniyasi tomonidan 1995 yilda 3500 mln. dollarga sotib olindi³⁸. "Lotus" kompaniyasi qiymatining 94 foizini tashkil etuvchi 3270 mln. dollar qiymatidagi

³⁷ Десмонд Г.М. Руководство по оценке бизнеса / Г.М.Десмонд,Р.Э.Келли. - М.: РОО, Академия оценки,1996. - 264с.

³⁸ Edvinsson L. Intellectual capital: realizing your company's true valueby finding its hidden brainpower /L.Edvinsson, M.S.Malone. - N.Y.: Harper Business, 1997.-342p.

balansda aks ettirilmagan aktivlar nimani o'zida namoyon etardi? Edvinssonning fikricha, ular jumlasiga yangi dasturiy mahsulotlar uchun mutlaq huquqlar; yangi mahsulot tufayli erishilgan doimiy mijozlar; eng asosiysi – dasturiy ta'minot bozorining rivojlanish yo'nalishini to'g'ri aniqlay olgan va firmaning imkoniyatini to'g'ri hisoblab chiqqan va bozor segmentini o'z vaqtida egallay olgan birinchi darajali menejment. Ushbu misol yangi iqtisodiyot vakilari uchun ham qoida hisoblanadi.

6-jadval

**Iqtisodiyotning alohida vakillari uchun real va «buxgalteriya»
aktivlarining nisbati³⁹**

Firma nomi	Baholash o'tkazilgan sana	Balans bo'yicha o'z kapitali summasi (mln. AQSHdoll.)	Bozor kapitalashuvchi (mln. AQSH doll.)	Firma balansida hisobga olinmaydigan aktivlar ulushi
Netskeyp	01.01.97 y.	17	3.000	99,4 foiz
Sisko Systeme	27.03.00 y.	21.390	555.440	96,1 foiz
Maykrosoft	01.07.01 y.	47.289	380.000	87,6 foiz

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlar shundan dalolat berib turibdiki, biznesni axborotlashtirish va intellektuallashtirish jarayoni tashkilotning nomoddiy aktivlarini hisobga olish qoidalarini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Fikrimizga ko'ra, e'tibor intellektual kapital tarkibiy qismlarini tegishli identifikatsiyalanadigan nomoddiy aktivlarga imkon qadar ko'proq ajratishga buning oqibatida, «buxgalteriya gudvilli» qiymatini qisqartirishga qaratilishi kerak.

Yuqorida bayon etilganlarni hisobga olgan holda, shuningdek mulkchilik huquqlari neoinstitutsional nazariyasining qoidalariga asoslanib, biz tomonimizdan tashkilotning gudvill tarkibidan ajratiluvchi identifikatsiyalanadigan nomoddiy aktivlarining quyidagi tizimi taklif etiladi:

1) mutaxassisning vaqti, bilimlari va ko'nikmalaridan muntazam foydalanish uchun mutlaq huquqlar;

³⁹ Шипов В.Н. Стоимость предприятия: экономический анализ и методика оценки: Дис. канд. экон. наук: 08.00.01 // Российская Экономическая Академия им. Плеханова. - М., 2000. -167с.

- 2) ishlab chiqarish sirini tashkil etuvchi tashkiliy axborotdan foydalanish uchun mutlaq huquqlar;
- 3) tijorat sirini tashkil etuvchi tashkiliy axborotdan foydalanish uchun mutlaq huquqlar;
- 4) firma doirasida yaratiladigan kundalik axborot resurslari va texnologiyalaridan foydalanish uchun mutlaq huquqlar;
- 5) biznesning umumiy ishchi kuchidan foydalanish uchun mutlaq huquqlar;
- 6) firmaning tashkiliy tuzilmasi va biznesni boshqarish tizimidan foydalanish uchun mutlaq huquqlar;
- 7) elektron aloqa tarmoqlaridan foydalanish huquqi;
- 8) tijorat sherikchiligida, xoldingda, MSGda, ishtirok etishdan olinadigan iqtisodiy foydaga egalik huquqi;
- 9) mahsulotni tarqatish tijorat tarmog'idan foydalanish huquqi;
- 10) ishbilarmonlik nufuzi (tijorat va'dalarini bajarish)dan erishiladigan iqtisodiy foydaga egalik huquqi.

Mutaxassisning vaqti, bilimlari va ko'nikmalaridan muntazam foydalanish uchun mutlaq huquqlari iqtisodiy foyda olish uchun qolgan barcha huquqlarga nisbatan tayanch hisoblanadi. Ushbu nomoddiy aktiv mohiyatining asosida «xodimning ish vaqti» tushunchasi yotadi, ya'ni «Xodim ish tartibi yoki grafigiga yoxud mehnat shartnomasi shartlariga muvofiq o'z mehnat vazifalarini bajarishi lozim bo'lgan vaqt ish vaqti hisoblanadi»⁴⁰. Muayyan to'lov evaziga tashkilot mutaxassisdan uning ish vaqtidan foydalanish huquqini sotib oladi. Mazkur huquq yuridik jihatdan mehnat shartnomasi bilan mustahkamlanadi. Ushbu huquq kamida, quyidagi vakolatlarni o'z ichiga oladi: mutaxassis o'zining bilimlari va ko'nikmalaridan foydalanishini vaqtga ko'ra (kun tartibi) va mohiyatan (lavozim yo'riqnomalari) reglamentlash huquqi; mutaxassis o'zining bilimlari va ko'nikmalaridan foydalanishi uchun xizmat vazifalarini topshirish va ularning bajarilishini nazorat qilish; ish vaqti mobaynida mutaxassis tomonidan o'z

⁴⁰Ўзбекистон Республикаси Меҳнат кодекси. 114- модда. <http://lex.uz>

bilimlari va ko'nikmalarining qo'llanilishi natijalariga egalik huquqi. Dastlabki ikkita huquq firma tomonidan iqtisodiy foyda olish uchun shart-sharoit yaratadi. Bevosita foydani esa tashkilot yuqorida ko'rsatilgan mutlaq huquqning uchinchi tarkibiy qismidan foydalanish orqali oladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, tijorat va'dalarini bajarish va mijoz qiymatining shakllanishiga daxldorlikdan olingan foyda biz tomonimizdan taklif etilayotgan nomoddiy aktivning yakuniy tavsifi hisoblanadi. Firmaning boshqa foydalari boshqa nomoddiy aktivga identifikatsiyalangan. Masalan, savdo markasiga yoki firmaga sodiq qolish uchun xaridorlardan narxga ustama haqi olish tovar belgisi yoki firma nomi uchun mutlaq huquqlar hisoblanadi.


2.3. Intellektual kapital tarkibiy qismlarining buxgalteriya hisobi muammolari.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy hisobotini tadqiqot uslubiyati nuqtai nazaridan shakllantirishning asosiy muammosi axborot hamda korxona mol-mulki va tashkilot balansida hisobga olinadigan aktivlarning an'anaviy ta'riflari doirasiga sig'maydigan intellektual kapitalning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Bugungi kunda mavjud bo'lgan intellektual kapital modelining sxemasi quyidagi ko'rinishga ega⁴¹ bo'lib (1-rasm), unda ko'rib turganimizdek, "intellektual kapital" tushunchasi bilan "intellektual mulk ob'yektlari" va "nomoddiy aktivlar" kabi odatiy tushunchalar uzviy bog'langan.

Ushbu rasmga ko'ra, intellektual kapital tarkibiga nomoddiy aktivlar, intellektual mulklar kiritilgan va ularga nisbatan keng qamrovga ega. Ushbu masalaga aniqlik kiritish maqsadida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlarini o'zaro

⁴¹Гапоненко А.Л., Орлова Т.М. Управление знаниями. Как превратить знания в капитал. – М.: Эксмо, 2008. с.-112.

taqqoslash orqali ushbu tushunchalarni buxgalteriya hisobida yuritilishiga oydinlik kiritishimiz mumkin.



1-rasm. “Intellektual kapital”, “intellektual mulk” va “nomoddiy aktivlar” tushunchalarining o’zaro munosabati.

Shu maqsadda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini tahlil qiladigan bo’lsak, unda ushbu maqsadda quyidagi standartlardan foydalaniladi:

MHXS (IAS) №28 “Assotssatsiyalashgan tashkilotlarga investitsiyalar”;

MHXS (IAS) №32 “Moliyaviy instrumentlar: ma’lumotlarni taqdim etish”;

MHXS (IAS) №38 “Nomoddiy aktivlar”;

MHXS(IAS) №39 “Moliyaviy instrumentlar: tan olinishi va baholanishi”;

MHXS (IAS) №40 “Investitsion mulk”;

MHXS (IFRS)№2 “Hissali instrumentlari bo’yicha to’lovlar”;

MHXS (IFRS)№9 “Moliyaviy instrumentlarni ochib berish”;

MHXS (IFRS)№12 “Boshqa kompaniyaga investitsiyalar bo’yicha axborotlarni ochib berish”.

Ushbu standartlarga muvofiq “nomoddiy aktivlar”, “intellektual mulk”, “intellektual kapital” iqtisodiy tushunchalarini tavsiflovchi hisobga olish modeli sifatida ishtirok etadi. Intellektual kapitalning ko’zga ko’rinmasligi, buning oqibatida, cheklangan diskretligini hisobga olgan holda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan moddiy aktivlarni ikkita bir-biridan tubdan farq qiluvchi guruhga ajratish tavsiya qilingan:

- 1) identifikatsiyalanadigan nomoddiy aktiv;
- 2) identifikatsiyalanmaydigan nomoddiy aktiv.

Identifikatsiyalanadigan nomoddiy aktivlar alohida tarzda tenglashtirilishi mumkin va mustaqil tushunchalarni o'zida namoyon etadi (patentlar, savdo markalari va boshqalar). Ularni kompaniyaning o'zida yaratish, alohida tarzda yoki aktivlar guruhining bir qismi sifatida qo'lga kiritish mumkin.

Identifikatsiyalanmaydigan nomoddiy aktivlarni o'z-o'zidan qo'lga kiritib bo'lmaydi, balki aktivlar guruhining bir qismi sifatida yoki butun korxonaning bir qismi sifatida qo'lga kiritish mumkin. Biroq, barcha nomoddiy aktivlarni bunday ikki toifaga bo'lish universal xususiyatga ega emas. Chunki ularni faqat qaysi toifaga kiritish noma'lumligi tufayligina nomoddiy aktivlar jumlasiga kiritiladigan «buxgalteriya aktivlari» ham mavjud. Masalan, ushbu toifaga yuridik shaxsni tashkil etish uchun kapitallashtirilgan xarajatlar yoki tashkiliy xarajatlarni kiritish mumkin.

Nomoddiy aktivlarni identifikatsiyalanadigan va identifikatsiyalanmaydigan turlarga bo'lish mumkin. Lekin fikrimizga ko'ra, xalqaro va milliy hisob standartlariga asos qilib olingan bunday bo'lish tamoyilini qabul qilib bo'lmaydi. Masalan, MHXS№ 38 “Nomoddiy aktivlar” (7-bandi)ga ko'ra «nomoddiy aktivlar – bu identifikatsiyalanadigan, jismoniy shaklga ega bo'lmagan, tovarlar ishlab chiqarishda yoki xizmatlar ko'rsatishda foydalanish, boshqalarga ijaraga berish uchun yoki ma'muriy maqsadlarda ushlab turiladigan pul bo'lmagan aktivlar»⁴². 7-son BHMS “Nomoddiy aktivlar”ga muvofiq⁴³ “nomoddiy aktivlar- korxona tomonidan ulardan ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish yoki tovarlarni sotish jarayonida foydalanish maqsadida yoxud ma'muriy va boshqa funktsiyalarni amalga oshirish uchun uzoq muddat mobaynida tutib turiladigan, moddiy-ashyoviy mazmunga ega bo'lmagan mol-mulk ob'yektlari”. “Nomoddiy

⁴² Международные стандарты финансовой отчетности 2010: издание на русском языке. — М.: Аскери - ACCA, 2010. 982с.-С.568

⁴³ Ўзбекистон Республикаси Бухгалтерия ҳисобининг 7-сон “Номоддий активлар” миллий стандарти. ЎЗР АВ 14.02.2009 й. 1485-1-сон билан рўйхатга олинган.

aktivlar hisobi”ga muvofiq identifikatsiyalanadigan nomoddiy aktivlar jumlasiga tijorat tashkilotiga “mulk, xo’jalik yuritish, tezkor boshqarish huquqida” tegishli bo’lgan, ya’ni tegishli huquqiy hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan «intelektual mulk ob’yektlari (intelektual faoliyat natijalari uchun mutlaq huquqlar)» kiradi⁴⁴.

Buxgalteriya hisobini yuritish bo’yicha standartlarga muvofiq nomoddiy aktivlarni ularga maxsus huquq beruvchi hujjatlar beriladigan intellektual mulk ob’yektlari bilan identifikatsiyalash, ya’ni intellektual kapitalni iqtisodiyot uchun odatiy bo’lgan moddiy aktivlarning buxgalteriya modeliga “kiritish” umumiy qoida hisoblanadi. «Kiritish» shundan iboratki, ob’yekt ikkita shartga javob bergan taqdirda nomoddiy aktiv deb tan olinadi:

1) yuridik shaxsning mazkur ob’yekt uchun mulkchilik mutlaq huquqini beruvchi hujjatning mavjudligi;

2) ushbu ob’yektni barpo etish xarajatlarining qiymatini baholash imkoniyati.

MHXS 38 “Nomoddiy aktivlar” (42-bandi)ga muvofiq kompaniyaning ichki salohiyati bilan ishlab chiqilgan ixtiro uchun huquqni himoyalovchi patentning boshlang’ich balans qiymati faqatgina ushbu ixtironi va uning patent himoyasini ro’yxatga olish xarajatlari bilan aniqlanadi. Kompaniyaning tadqiq etish va ixtironi yaratish xarajatlari ular amalga oshirilgan davr xarajatlariga kiritiladi. Moddiy aktivlarni hisobga olishda aynan shunday yo’l tutiladi.

Intellektual kapitalning ta’kidlangan qoidalarga tushmaydigan qismlari umumiy qoida doirasidan tashqariga chiqariladi va undan istisno tariqasida «gudvill» xilidagi identifikatsiyalanmaydigan nomoddiy aktivlar deb nomlanuvchi maxsus, sof buxgalteriya konstruksiyasiga joylashtiriladi. T.Styuartning ta’kidlashicha⁴⁵, bugungi kunda mavjud hisob standartlariga ko’ra, intellektual aktivlarning katta qismi, Vilson kamerasidagi elektronlar kabi buxgalteriya

⁴⁴ Положение по бухгалтерскому учету "Учет нематериальных активов" ПБУ 14/2007: Утверждено приказом МФ РФ от 16.10.2007 N 91н

⁴⁵ Т.Стюарт. Интеллектуальный капитал - новый источник богатства организаций// <http://scd.centro.ru/intelorg>.htm.

kitoblarida faqatgina (gudvillda gipotetik ishtirok etgan, lekin undan identifikatsiyalanmagan holda) tasvirlar ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, bugungi kunda mavjud bo'lgan mahalliy huquq me'yorlari va buxgalteriya hisobi standartlari tashqi foydalanuvchilarga faqat biznes intellektual kapitalining bir qismi, xususan, ijodiy mehnat mahsuli, tijorat g'oyalari (nou-xau) va ular uchun tashkilot tomonidan maxsus huquqni belgilovchi hujjatlar olingan individuallashtirishni vositalari haqida axborot olish imkonini beradi. Biznes intellektual kapitalining qolgan tarkibiy qismlari (hattoki korxonani mulkiy majmua sifatida sotish yuzasidan bitimlar tuzilgunga qadar) tashkilotning buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarida mavjud bo'lmaydi. YUqorida aytilganlarning barchasi shundan dalolat berib turibdiki, tashkilot balansida biznes intellektual kapitalining hamma tarkibiy qismlari ham aks ettirilmaydi.

Fikrimizga ko'ra, ushbu holatlarning sababi ham ob'yektiv omillar, ham mahalliy huquq institutlarining sub'yektiv kamchiliklaridan iborat.

Intellektual kapitaldan foydalanishdan olinadigan iqtisodiy foyda oddiy egalik qilish bilan ta'minlana olinmasligi (huddi mulkiy kapital bilan bo'ladigan holat kabi) yoki u uchun yuridik huquqni qayd etish intellektual kapitalning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. "Axborot aktivlarini" modellashtirishning yana bir o'ziga xos xususiyati – transaktsiya xarajatlarining ulardan amalda tijorat yo'lida foydalanishni boshlash uchun eng kam miqdori. Ilgari ta'kidlanganidek, muallifining ruxsatisiz "g'oyalarni o'zlashtirish" natijasida ana shunday tijorat yo'lida foydalanish mumkin. Bunda ko'zga ko'rinmaydigan aktivlar uchun (moddiy mulkdan farqli o'laroq) bunday imkoniyat mustasnoqlikni emas, balki qoidani tashkil etadi.

Fikrimizcha, axborot va bilimlarning ushbu xususiyatlarini hisobga olgan holda, buxgalteriya standartlarining intellektual kapital tarkibiy qismlarini moddiy resurslarni baholashda qo'llaniladigan usullar bo'yicha baholashni belgilab beruvchi qoidalari noo'rin hisoblanadi. Masalan, MHXS №38 va O'zbekiston Respublikasining BHMS №7 ga muvofiq nomoddiy aktivlar buxgalteriya hisobiga

dastlabki qiymati bo'yicha qabul qilinadi, bunda tashkilotning (ularni sotib olish vaqtidagi) amaldagi xarajatlari summasi yoki (o'z kuchi bilan yaratilganda) huquq beruvchi hujjatni olishdagi moddiy xarajatlar tushuniladi. Ushbu me'yorlar, aslida, intellektual kapitalning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmagan holda, asosiy vositalarni va moddiy-ishlab chiqarish zaxiralarini baholash qoidalariga taqlid qiladi. Shunday qilib, aktivni xarid qilish va huquq beruvchi hujjatlarni olish uchun qilingan xarajatlar aktivni balansda hisobga olish uchun asos hisoblanadi. Bunda korxona mutlaq huquqlarining katta qismi uning balansida aks ettirilmaydi, chunki ularning yaqqol ko'rinishda paydo bo'lishi huquq beruvchi hujjatning yo'qligi tufayli qandaydir buxgalteriya operatsiyalari bilan bog'liq bo'lmaydi.

Fikrimizga ko'ra, intellektual kapitalning haqqoniy ko'rinishini shakllantirish uchun ko'proq mulkchilik huquqlarining neoinstitutsional nazariyasi (angliya-saksoniya yoki pretsedent huquq) mos keladi. Mulkchilikning mavjud nazariyasi bilan mulkchilik huquqlari neoinstitutsional nazariyasining qisqacha qiyosiy tahlili 7-jadvalda keltirilgan.

7-jadval

Mulkchilikning amaldagi nazariyasi bilan mulkchilik huquqlari neoinstitutsional nazariyasining qisqacha qiyosiy tahlili⁴⁶

Nazariya jihatlar	Mulkchilikning amaldagi nazariyasi	Mulkchilik huquqlari neoinstitutsional nazariyasi
Mulkchilik tushunchasi	Mulkchilik munosabatlari sub'ekti bilan ob'yekti o'rtasidagi o'zaro aloqalar bevosita amalga oshiriladi. Mulkchilik ob'yekti bilan tenglashtiriladi va ashyoviy resurs sifatida tushuniladi	Mulkchilik munosabatlari sub'ekti bilan ob'yekti o'rtasidagi o'zaro aloqalar huquq instituti vositasida amalga oshiriladi. Mulkchilik – bu ular egalarining huquq ob'yektiga nisbatan xatti-harakatlarni amalga oshirish imkoniyatini belgilab beruvchi huquqlar to'plami
Amalga oshirish sohasi	Ishlab chiqarishda	Iqtisodiy munosabatlarning barcha sohalarida, ko'proq almashuv sohasida
Munosabatlar xususiyati	Ishlab chiqarish Inson-buyum	Ijtimoiy Inson-inson
Mulkchilik ob'yekti	Moddiy ne'matlar	Moddiy va nomoddiy ne'matlar
Ob'yektni o'zlashtirish (huquqi) xususiyati	Yollanma ishchilarni ekspluatatsiya qilish	Mulkchilik huquqini tavsiflash va himoyalashda shartnoma shakli

⁴⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan/

Fikrimizcha, intellektual kapital modelini shakllantirish uchun foydalanilishi lozim bo'lgan mulkchilik huquqlari neoinstitutsional nazariyasining asosiy kontseptual qoidalarini quyidagilardan iborat:

1. Resurs emas, balki ushbu resursga nisbatan huquqlar to'plami mulk hisoblanadi. "Huquq" atamasi mazkur nazariyada mulkchilik munosabatlarining alohida xususiyatini belgilash munosabati bilan yuzaga keladi – bu ruxsat etilgan munosabatlar. R.Kouzning ta'kidlashicha⁴⁷, “agar ishlab chiqarish omillari haqida huquqlar kabi fikr yuritilsa, zararli oqibatlarni keltirib chiqaruvchi nimadir (shovqin, tutun va h.k.) qilish huquqi ham ishlab chiqarish omili hisoblanishini tushunish oson bo'ladi”.

2. Mulchilik huquqlari tushunchasi nodirlik tushunchasi bilan uzviy bog'liq. Aslida, mulchilik hodisasining o'zi resurslarning nisbatan nodirligi, cheklanganligi iqtisodiy muammosidan kelib chiqadi. Bundan mulchilik huquqlari munosabatlarining asosiy tamoyili: ularning mutlaq xususiyati kelib chiqadi.

3. Mulchilik munosabatlariga, nafaqat davlat tomonidan, balki jamiyat tomonidan ham ruxsat etilgan. Huquqlar nafaqat qonunlar yoki sud qarorlari bilan balki qoidalar, ishbilarmonlik odatlari ko'rinishida ham biriktirilishi mumkin. Aytish lozimki, mulchilik huquqlari – iqtisodiy sub'ektlar o'z faoliyatini ularga rioya qilgan holda amalga oshiradigan “o'yin qoidalarini”.

4. Ko'rib chiqilgan nazariya doirasida mulchilik mutlaq nuqta yoki munosabatlarning muzlatilgan turg'un holati emas, balki o'zgaruvchan munosabatlar konfiguratsiyasining uzluksiz qatori sifatida tasavvur qilinadi. Huquqlar mulkdorlar o'zlari tomonidan qayta guruhlanishining tabiiy va uzluksiz davom etuvchi jarayoni mulchilik huquqlari evolyutsiyasi deb nomlanadi.

Shunday qilib, yuqorida bayon etilgan mulchilik huquqlarining neoinstitutsional nazariyasi kontseptual qoidalaridan kelib chiqqan holda, mulchilik unvoni (maxsus huquq beruvchi hujjat)ning shunchaki mavjudligi

⁴⁷ Коуз Р. Фирма, рынок и право. - М.: Дело, 1993. с-151 .

emas, balki u yoki bu usul bilan biriktirilgan muayyan vaqt mobaynida iqtisodiy foyda olish huquqi intellektual kapitalga nisbatan umumiy huquq bo'lishi kerak. Ishtirokchilar daromad olish huquqlarining uzluksiz kechuvchi evolyutsiyasini hisobga olgan holda (chunki biznes – bu nafaqat kapital, balki amalga oshirilayotgan transaktsiyalarning uzluksiz jarayoni) ushbu huquqlar faqatgina maxsus bir marta olingan huquq beruvchi hujjatlar bilan cheklanishi mumkin emas. Tashkilotga muntazam daromad olish imkoniyatini beruvchi har qanday hujjat yoki kelishuv umumiy qoida sifatida uning iqtisodiy foyda olish huquqining biriktirilishi deb hisoblanishi lozim.

Bu yuqorida ko'rsatilgan resurslar tarkibi va qiymatini o'zgartirish orqali biznes dinamikasini kuzatish imkonini beradi. Biznesni bunday «kadrlar bo'yicha» joylashtirish iqtisodiy kategoriyadan buxgalteriya hisobi schyotlari va buxgalteriya hisobotlarining satrlari ko'rinishida axborot modelining elementlariga o'tish imkoniyatini yaratadi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan biznes resurslari bugungi kunda amalda bo'lgan buxgalteriya hisobining milliy standartlari, shu jumladan, BHMS №21 “Buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi”ga muvofiq quyidagi tarzda buxgalteriya hisobining sintetik schyotlarida aks ettiriladi:

1. Biznesning ishlovchi kapitali:

1.1. Amaldagi sanoat kapitali - asosiy vositalar (0100, 0200, 0300 schyotlar);

1.2. Amaldagi intellektual kapital - nomoddiy aktivlar (0400, 0500-schyotlar).

1.3. Moliyaviy kapital - pul mablag'lari (0600, 5000, 5100, 5200, 5500-schyotlar).

2. Biznesning shakllanuvchi kapitali:

2.1. SHakllanayotgan sanoat kapitali - asosiy vositalarga kapital qo'yilmalar (0700, 0800, 6000, 7000-schyotlar).

2.2.1. SHakllanayotgan intellektual kapital (intellektual mahsulotlar va individuallashtirish vositalarini yaratish, innovatsion biznes-g'oyalarni

rivojlantirishga qo'yilmalardan tashqari) - biznes intellektual kapitalini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish xarajatlari (2000, 2300, 2500, 6000, 7000 -schyotlar).

2.2.2. Shakllanayotgan intellektual kapital (intellektual mahsulotlar va individuallashtirish vositalarini yaratish, innovatsion biznes-g'oyalarni rivojlantirishga qo'yilmalar) - nomoddiy aktivlarga kapital qo'yilmalar (0800, 6000, 7000-schyotlar).

2.3. Shakllanuvchi moliyaviy kapital - soliq chegirmalari (4410) va moliyaviy qo'yilmalar (4700, 5710, 5800-schyotlar).

3. Biznes resurslari va transaktsiyalari:

3.1. biznes (asosiy ishlab chiqarish) transaktsiyalarining boshlang'ich resursi - xomashyo va materiallar (1000, 3100, 1510, 1610, 4200, 6000, 6820-schyotlar).

3.2. biznes (asosiy ishlab chiqarish jarayoni) transaktsiyalarining oraliq natijasi - tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari (2000, 2300, 2700, 8800, 7900-schyotlar).

3.3. biznes (asosiy ishlab chiqarish jarayoni) transaktsiyalarining yakuniy natijasi - tayyor mahsulot (2800, 2830, 2960, 9100-schyotlar).

3.4. tranzit transaktsiyalar resurslari (olib sotish va vositachilik) - tovarlar (2910, 2980, 2960, 6010, 4220, 6820, 002, 003, 004, 005-schyotlar).

3.5. Amalga oshiriladigan biznes transaktsiyalari jarayoni buxgalteriya hisobi schyotlarida va moliyaviy hisobotlarda daromadlar (9000, 9300-schyotlar) va debitorlik qarzlari (4000, 4860, 007-schyotlar); xarajatlar (2000, 2300, 2500, 9400, 2700, 9100, 9600, 9720-schyotlar); moliyaviy natija (9900-schyot) triadasi sifatida aks ettiriladi.

Biznesning barcha kapitali (shu jumladan intellektual kapital ham) faoliyat ko'rsatuvchi (ishlovchi) va yaratiladigan turlarga bo'linadi. Printsipial jihatdan biznesning mavjud hisob-tahliliy modelini (birinchi navbatda uning "ko'zga ko'rinmaydigan" qismini) takomillashtirish muammolarining quyidagi ikkita guruhga ajratish mumkin:

1) biznes intellektual kapitali tarkibiy qismlarini buxgalteriya hisobida identifikatsiyalash va aks ettirish qoidalarini ishlab chiqish (gudvill kontseptsiyasini transformatsiyalash);

taklif etilayotgan identifikatsiyalanuvchi nomoddiy aktivlarga kapital qo'yilmalar hisobini yuritish qoidalarini ishlab chiqish (firma xarajatlarini biznesning transaktsiya xarajatlari va kapital qo'yilmalarga bo'lish tartibini takomillashtirish).

2-bob bo'yicha xulosalar

Biz tomonimizdan identifikatsiyalanadigan nomoddiy aktivlarni yaratishga (xarid qilishga) kiritilgan qo'yilmalar hisobini yuritishning quyidagi qoidalari taklif etildi:

- umumiy qoida sifatida, nomoddiy aktivlar hisobga (0400 schyotda) iqtisodiy foyda olish imkonini beruvchi huquqlarni olish vaqtida qabul qilinadi. Ko'rsatilgan sanagacha firmaning bunday huquqlarni olish bilan bog'liq barcha xarajatlari uzoq muddatli investitsiyalar (0800) schyotida aks ettiriladi. Schyotda to'plangan xarajatlar summasi nomoddiy aktivning dastlabki qiymatini shakllantiradi;

- korxonaning iqtisodiy foyda olish huquqlari mutlaq tarqalib borishining ob'yektiv kechayotgan jarayonini hisobga olgan holda, nomoddiy aktivlar hisob qiymati o'zgarmas bo'lishi mumkin emas. Demak, mazkur nomoddiy aktivlarga kiritiladigan barcha keyingi qo'yilmalar ham dastlab 0800 schyotida hisobga olinadi. Firma yuqorida ko'rsatilgan qo'yilmalardan iqtisodiy foyda olishni boshlagan sanadan e'tiboran ularning summasi 0400 schyotining tegishli qismiga o'tkaziladi va ushbu identifikatsiyalanadigan nomoddiy aktivni foydali ishlatish muddati mobaynida amortizatsiya qilinadi. Bunda barcha keyingi qo'yilmalar bo'yicha nomoddiy aktivni foydali ishlatish muddati yangidan hisoblab chiqiladi;

- ushbu algoritm korxonaning nomoddiy aktivlariga kiritilgan qo'yilmalar hisobini yuritishning sof texnik buxgalteriya tartibi hisoblanadi. YA'ni, 0400

schyotida hisobda turgan“ nomoddiy aktivlar qoldiq qiymati”ning summasiga biznes intellektual kapitali tegishli tarkibiy qismlarining haqiqiy qiymati sifatida qaramaslik kerak.

Yuqorida bayon etilgan tamoyillarni amalga oshirish uchun biz tomonimizdan bugungi kunda 2000, 2300, 9400 va boshqa schyotlarda hisobga olinadigan chiqimlar tarkibidan amalda intellektual kapitalga qo'yilmalar hisoblanadigan xarajatlarni ajratish va ularni intellektual kapitalning tegishli tarkibiy qismlariga “bog'lash” taklif etiladi.

Intellektual kapitalni buxgalteriya hisobida identifikatsiyalash va aks ettirish qoidalarini ishlab chiqish, birinchi navbatda, gudvill buxgalteriya kontseptsiyasini puxta taftish qilishni anglatadi. Bu esa bugungi kunda“gudvill ”tushunchasi “firmaning ishbilarmonlik nufuzi” so'zining buxgalteriya ekvivalenti sifatida (ya'ni, butun biznes intellektual kapitali modeli sifatida) ko'rib chiqiladi.

Fikrimizga ko'ra, gudvill, aslida, muayyan bitim natijalariga ko'ra biznes (mulkiy majmua sifatida korxona) kapitalini bozor va buxgalteriya usuli bilan baholash o'rtasidagi farqni talqin etuvchi texnik usul hisoblanadi. Buxgalteriya hisobining qoidalariga ko'ra qandaydir ko'zga ko'rinmaydigan narsa uchun to'lashga ruxsat etilmasligi bois, balans qiymatini xarid narxida hisoblab chiqish va o'rtadagi farqni aslini olganda ma'nosiz "yaxshi niyat" atamasi bilan belgilashni o'ylab topishgan.

Buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha standartlarga muvofiq nomoddiy aktivlarni ularga maxsus huquq beruvchi hujjatlar beriladigan intellektual mulk ob'yektlari bilan identifikatsiyalash, ya'ni intellektual kapitalni iqtisodiyot uchun odatiy bo'lgan moddiy aktivlarning buxgalteriya modeliga “kiritish” umumiy qoida hisoblanadi. «Kiritish» shundan iboratki, ob'yekt ikkita shartga javob bergan taqdirda nomoddiy aktiv deb tan olinadi:

1) yuridik shaxsning mazkur ob'yekt uchun mulkchilik mutlaq huquqini beruvchi hujjatning mavjudligi;

2) ushbu ob'yektni barpo etish xarajatlarining qiymatini baholash imkoniyati.

3-Bob. Intellektual kapital hisobi ko'rsatkichlari tizimini takomillashtirish.

3.1. Intelektual kapitalning zamonaviy axborot-tahliliy modelini takomillashtirish yo'nalishlari.

Bugungi kunga kelib iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarida kompaniya faoliyatini baholashning moliyaviy mezonlari tizimi shunchalik rivojlanib ketdiki, u amalda butun mikroiqtisodiy tahlilni o'zi bilan almashtirdi. Bunday vaziyatning yuzaga kelishi ko'proq iqtisodiy tadqiqotlarda matematik usullar va formulalarning haddan ziyod apellyatsiyasi bilan bog'liq. Lekin iqtisodiy hodisalarning matematik tahlili juda murakkab bo'lib, bir xil ma'no kasb etmaydi. Matematik formulaning aniqligi haqiqatga yaqin bo'lsa-da, ko'pincha u aldoqchi bo'lib, real sodir bo'layotgan jarayonlarni aks ettirmaydi. Iqtisodiy jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini, aytaylik, inson omilining harakatini va yangiliklarning ta'sirini hisobga olmasdan turib, tushunib bo'lmaydi. Noiqtisodiy hodisalar nolga tenglashtirilishi mumkin emas.

Miqdoriy usullar va qiymat (moliyaviy) ko'rsatkichlarining rasmiyatchilik uchun qo'llanilishi tahlil natijalarining noto'g'ri bo'lishiga va baholanayotgan biznes qiymatining haqiqatga mos kelmasligiga olib keladi. Iqtisodchi va amaliyotchilar «faoliyatning ko'plab turlari, hatto pul ifodasida foydali bo'lgani holda, haqiqatda zarar keltiruvchi va aksincha» bo'ladigan holatlarga duch kelishadi⁴⁸.

Moliyaviy mezonlar faqat tarixning o'tgan davrdagi qismi haqida hikoya qiladi va ertaga, kelgusida yaratish uchun qanday harakatlarni qo'llash haqida tasavvurga ega emas. Gap kelgusi o'sish uchun zamin yaratadigan nomoddiy aktivlar haqida borayapti. Bunday vaziyat shu narsa bilan bog'liqki, moliyaviy ko'rsatkichlar faoliyatning amaldagi natijalarini birmuncha kechiktirib aks ettiradi.

⁴⁸ Малахов С. Деньги и экономическая психология // Деньги и кредит.- 1992.-N 2.

Nomoliyaviy indikatorlar esa moliyaviy ko'rsatkichlarni ilgari lab, ba'zan sabab-oqibatli bog'liqliklarning murakkab zanjiri orqali aks ettiradi. Odatda, sabab-oqibatli bog'liqliklar zanjirlarini asosan nomoliyaviy ko'rsatkichlar (masalan, etkazib berish sifati yoki mahsulotlar sifati) va nomoddiy aktivlarga taalluqli ko'rsatkichlari (masalan, motivatsiya yoki xodimlar malakasi) hosil qiladi.

Shu munosabat bilan moliyaviy tahlil sohasidagi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra⁴⁹, miqdoriy usullarni sifat baholari va mulohazalari bilan to'ldirish zarurati yuzaga keladi. Pricewaterhouse Coopers firmasi 156 ta kompaniya rahbarlari o'rtasida istiqbolli tadqiqotlarning 15 yo'nalishi bo'yicha ularning qiziqishlari to'g'risida so'rov o'tkazdi. Ularda moliyaviy va nomoliyaviy axborotni birlashtiruvchi modellarni tuzish uchun biznes samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish eng ko'p qiziqish uyg'otdi⁵⁰. Hatto AQSHdagi etakchi auditorlar uyushmasi (AICPA) ham moliyaviy ko'rsatkichlarning oshirib ko'rsatilishidan xavotirga tushib, kompaniyalarga tashqi hisobotlarni tayyorlashda "muvozanatlashgan" va kelajakka yo'naltirilgan yondashuvni qo'llashni tavsiya etdi.

«Sarmoyadorlarning talablarini to'liq qondirish uchun biznes-hisobot: rejalar, imkoniyatlar, risklar, noaniqliklar haqida ko'proq axborotga ega bo'lishi; uzoq vaqt mobaynida foydani hosil qiluvchi omillarga, shu jumladan asosiy biznes-jarayonlarning nomoliyaviy ko'rsatkichlariga katta e'tibor qaratishi; oliy menejmentga biznesni boshqarish uchun beriladigan ichki va tashqi axborotni o'zaro bog'lashi kerak»⁵¹.

O'z mohiyatiga ko'ra, yuqorida aytilganlar mutaxassislar tomonidan foydalaniladigan axborot-tahliliy model chegaralarining: moliyaviy modeldan biznes-modelga kengayishini anglatadi. Biznes-model firma faoliyatini

⁴⁹ Дипиаза С. Будущее корпоративной отчетности. Как вернуть доверие общества / С.Дипиаза, Р.Экклз. - М.: Альпина Паблишер, 2003. с - 114.

⁵⁰ Дипиаза С. Будущее корпоративной отчетности. Как вернуть доверие общества / С.Дипиаза, Р.Экклз. - М.: Альпина Паблишер, 2003. с - 114.

⁵¹ The AICPA Special Committee on Financial Reporting. Improving Business Reporting — A Customer Focus: Meeting the Information Needs of Investors and Creditors. — N.Y.: American Institute of Certified Public Accountants, 1994.

tavsiflovchi barcha muhim moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlarni qamrab oladi. Biznes-modelni etishmayotgan nomoliyaviy ko'rsatkichlar bilan to'ldirish muammosini hal etishga nisbatan Amerika olimlari R.S.Kaplan va D.P.Norton juda yaqin yondashishdi. 1990 yilda Nolan Norton instituti, KPMGning ilmiy bo'linmasi bilan hamkorlikda «Kelajak tashkiloti faoliyatining ko'rsatkichlari» mavzusida tadqiqot o'tkazishni taklif etdi. Analog Devices va o'n ikkita boshqa kompaniya tajribasiga asoslangan mazkur bir yillik loyiha natijasi faoliyat samaradorligi mezonlarining yangi korporativ tizimi sifatida ko'rsatkichlarning muvozanatlashgan tizimi (Balanced ScoreCard -BSC)⁵² barpo etilishidan iborat bo'ldi⁵³.

Ko'rsatkichlarning muvozanatlashgan tizimi (BSC) o'z nomiga ega bo'ldi, chunki u kompaniya faoliyatining to'rt jihatini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi (BSC istiqbollari): moliya; mijozlar (marketing); ichki jarayonlar; rivojlanish va o'qitish. Ko'rib turganimizdek, keyingi uchta istiqbol yuqorida ko'rib chiqilgan "biznes intellektual kapitali" tushunchasini tashkil etuvchi ko'plab omillarni qamrab oladi.

Professor X.Nyorrekliining ta'kidlashicha "BSC—bu an'anaviy tarzda hisob yuritish bilan bog'langan o'lchash sohaslarini muntazam kengaytiruvchi vosita". Bu shuni anglatadiki, uni amaliyotda qo'llash chog'ida monetar va nomonetar ko'rsatkichlarni u yoki bu shaklda tizimga solishga urinib (ular o'rtasidan qat'iy funksional bog'liqliklarni chiqarib) bo'lmaydi. Kaplan va Norton ta'kidlashicha, muvaffaqiyatni ko'zlovchi muvozanatlashgan ko'rsatkichlar dasturi bu "o'lchovlar va tortishlar" sohasidagi loyiha emas, balki o'lchashga mo'ljallangan loyiha ekanligini tan olishdan boshlanishi kerak⁵⁴. Kaplan va Nortonning to'rtta jadvali

⁵² Адабиётларда «Balanced ScoreCard» терминининг турли таржималари учрайди: кўрсаткичларнинг мувозанатлашган тизими, мувозанатлашган кўрсаткичлар тизими, мувозанатлашган баҳолаш кайдномаси, балларда баҳолаш картаси, мувозанатлашган счётлар картаси, ўзаро боғлиқ кўрсаткичлар тизими ва бошқалар.

⁵³ Каплан Р.С. Сбалансированная система показателей. От стратегии к действию /Р.С.Каплан, Д.П.Нортон: Пер.с англ.-М.:ЗАО «Олимп-бизнес», 2003. 304с.

⁵⁴ Каплан Р.С. Сбалансированная система показателей. От стратегии к действию / Р.С.Каплан, Д.П.Нортон: Пер. с англ. — М: ЗАО "Олимп-бизнес", 2003. — 304с.

cheklangan sxemani emas, balki tashkiliy tuzilmani o'zida namoyon etadi. Kompaniyalarga 4-rasmda tasvirlangan modelni yana bir yoki ikkita jadval (qiymatni yaratish omillarining guruhleri) bilan to'ldirish mumkin. Kaplan va Norton klassik modelining muvaffaqiyatli echimiga misol tariqasida BSC tarkibiga "Ijtimoiy soha" nomi bilan yana bir "istiqbolni" (ko'rsatkichlar blokini) qo'shgan NovaChemical kompaniyasi (Kanada, Kalgari sh.) tajribasini keltirish mumkin⁵⁵.

Shuni hisobga olgan holda, Kaplan va Norton klassik modeliga biznes intellektual kapitali kontseptsiyasi, qiymatni yaratishni ko'zlovchi boshqarish kontseptsiyasi (VBM) va biznes qiymatini yaratish omillari zanjiri kontseptsiyasining qoidalarini hisobga olib tuzatish kiritgan holda, biznesning yalpi axborot-tahliliy modeli sifatida alohida ko'rsatkichlarning quyidagi tizimini taklif etamiz :

- 1) asosiy faoliyat ko'rsatkichlari;
- 2) inson resurslarini boshqarish ko'rsatkichlari;
- 3) axborot texnologiyalari ko'rsatkichlari;
- 4) yangi joriy etilgan biznes ko'rsatkichlari;
- 5) mijoz kapitali ko'rsatkichlari;
- 6) moliyaviy ko'rsatkichlar.

Ushbu modelda ko'rsatkich biznes qiymatini yaratish omili namoyon bo'lishining shakli sifatida ishtirok etadi. Taklif etilayotgan tizimning an'anaviy moliyaviy modelini kompleks biznes-modelgacha to'ldiruvchi nomonetar ko'rsatkichlarini (ya'ni uning dastlabki beshta guruhini) batafsil ko'rib chiqamiz.

Ushbu guruh ko'rsatkichlari biznesga (biznes transaksiyalarida foydalanish uchun) uning kapitalining asosiy unsurlari "jalb etilganlik darajasini", shuningdek, amalga oshirilayotgan transaksiyalar jarayoni samaradorligini tavsiflaydi. "Firmaning asosiy faoliyati" tushunchasi biznes-model ushbu blokining asosiy tushunchasi hisoblanadi. Klassik tushunishda kompaniyaning asosiy faoliyati –

⁵⁵ Atkinson A., Epstein M. Measure for measure: Realizing the power of the balanced scorecard // CMA Management. - September 2000. p. -24.

mahsulot yoki xizmatlarni yaratish va ularni iste'molchilarga etkazib berishni ta'minlovchi asosiy jarayonlar yig'indisi.

Firmaning asosiy faoliyatini (operatsiyalarini) tahliliy maqsadlarda an'anaviy tarzda quyidagi uchta tarkibiy qismga bo'lish qabul qilingan:

1) xaridlar va ta'minot (boshlang'ich axborotni olish) – etkazib beruvchilarni izlash va ulardan boshlang'ich resurs (xomashyo, materiallar yoki axborot)ni etkazib berish bo'yicha harakatlar yig'indisi;

2) asosiy ishlab chiqarish jarayonlari (asosiy biznes-jarayonlar) – asosiy boshlang'ich resurs (xomashyo, materiallar yoki axborot)dan foydalangan holda mehnat bilan tayyor mahsulot (tovar, ishlar yoki xizmatlar)ga aylantirish operatsiyalari;

3) taqsimlash (xizmatlar ko'rsatish) – mahsulot korxona darvozasidan (ofis eshiklaridan) chiqqan vaqtdan boshlab to u iste'molchining qo'liga etgan vaqtgacha bo'lgan harakatlar yig'indisi.

Aslida, yuqorida keltirilgan ta'riflar ilgari ko'rib chiqilgan «biznes-tizim» va «biznes-jarayon» tushunchalarining ta'rifi hisoblanadi. Qiymatning shakllanishiga eng ko'p hissa qo'shuvchi «biznes-tizim» asosiy (firma faoliyatining asosiy turi) sanaladi. Yuqorida keltirilgan asosiy faoliyatni uchta bosqichga bo'lish resurs transaksiyasida ishtirok etuvchi uchta holat bilan shartlangan: transaksiyalarning boshlang'ich resursi; transaksiyalarning oraliq resursi va transaksiyalarning yakuniy mahsuloti. Yagona biznes-jarayon bosqichlarini bunday ixtisoslashtirish firmaning murakkab tashkiliy tuzilishi bilan bog'liq. Agar kompaniya bir xil biznes-tizimlar uchun ko'lamlarni tejash maqsadida bir necha faoliyat turi bilan shug'ullansa, boshlang'ich resurs (axborot)ni olish, shuningdek, tayyor mahsulotni sotish (xizmat ko'rsatish) kabilar xarid qilish va ta'minlash (boshlang'ich axborotni olish) yoki taqsimlash (mijozga xizmat ko'rsatish) yagona jarayonga birlashtirilishi mumkin.

Metodologik nuqtai-nazarda biznes-tizim (va umuman biznes)ning asosini uning ikkinchi bosqichi – “asosiy biznes-jarayon” tashkil etadi. Asosiy biznes-

jarayon biznes kapitalining tarkibini va firmaning qaysi tarmoqqa mansubligini belgilab beradi.

Firmaning asosiy faoliyatini ta'riflash uchun biz tomonimizdan sanoat ishlab chiqarishi va professional xizmatlar ko'rsatish texnologik jarayonining yiriklashtirilgan algoritmi asosida tuzilgan quyidagi namunaviy ko'rsatkichlar taklif etiladi. Taklif etilayotgan ko'rsatkichlar biznes-jarayonni (operatsiyalarni) ham, foydalanilayotgan resurslarni (harakatga keltirilgan kapitalni) ham tavsiflaydi (ya'ni dinamikada va statikadagi biznes). Bunda shuni nazarda tutish lozimki, ko'rsatkichlarning ushbu tizimini o'z davrining namunaviy firmasi (o'z navbatida, industrial davr sanoat korxonasi va axborot jamiyati professional xizmatlar ko'rsatish sohasining tashkilotlari) uchun ko'rsatkichlarning eng kichik to'plami sifatida ko'rib chiqish lozim. Amaliyotda foydalanish maqsadida biz tomonimizdan taklif etilgan namunaviy ko'rsatkichlar tizimi tahlil etilayotgan muayyan biznes asosiy ishlab chiqarish jarayonining texnologik xaritasi asosida detallashtirilishi mumkin.

3.2. Intellektual kapital kontseptsiyasiga asoslangan joriy moliyaviy natijalari ko'rsatkichlarini takomillashtirish.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy biznesning muhim xususiyatlari o'zgarishiga qaramay barcha hisobga olish va baholash standartlarida, shuningdek, amaliy iqtisodiy qo'llanmalarda "foyda" firma faoliyati joriy moliyaviy natijalarining asosiy ko'rsatkichi bo'lib qolmoqda. Lekin xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatining moliyaviy natijasi sifatida faqat foyda ishtirok etadimi? Iqtisodiy adabiyotlarda "foyda" atamasidan tashqari "daromad" va "qo'shilgan qiymat" kabi boshqa ko'rsatkichlar ham uchrab turadi. "Qo'shilgan qiymat" ko'rsatkichi jahonning ko'plab davlatlarida biznesga soliq solish chog'ida faol qo'llaniladi. Bunda hozirgi zamonda jamiyat hayotining barcha tomonlarini axborotlashtirish va intellektuallashtirish, mulkchilik munosabatlarini

demokratlashtirish va biznesni boshqarish tizimidagi tub o'zgarishlar sharoitida "qo'shilgan qiymat" ko'rsatkichining ahamiyati yanada ortadi.

Qo'yilgan savolga javob berish uchun biz tomonimizdan firma faoliyatining moliyaviy natijasi iqtisodiy kategoriyaga ta'sir etuvchi zamonaviy kontseptual yondashuvlar tadqiq etildi.

Agar firmani biznesni amalga oshirish shakli (yoki "shartnomalar uzeli") sifatida ta'riflaydigan bo'lsak, ilgari ko'rib chiqilgan firma nazariyasida Iensen va Mekling tomonidan ishlab chiqilgan agentlik munosabatlarining nazariyasi markaziy o'rinlardan birini tutadi. Agentlik munosabatlari nazariyasiga muvofiq firma institutining maqsadlaridan biri biznes ishtirokchilarining turli yo'nalishlardagi maqsadlarini muvofiqlashtirish, ishtirokchilar shaxsiy maqsadlari bilan butun biznes-tizimning umumiy maqsadi o'rtasidagi muvozanatni o'rnatishdan iborat. Firmani faqat quyidagi shartlarga amal qilgan holda "faoliyat ko'rsatib turgan korxona" sifatida ko'rib chiqish mumkin: firmaning umumiy maqsadlari manfaatdor tomonlar maqsadlarining birlashtirilishi hisoblanadi; manfaatdor tomonlar maqsadlarining yig'indisi butun biznes-tizim maqsadlarining kengaytirilishi hisoblanadi. Amaliyotda ushbu shartlarga hamma vaqt ham amal qilinmaydi. Turli tomonlar qo'yadigan talablar o'rtasida mustaqil, raqobatlashuvchi (nizolashuvchi) yoki o'zaro bir-birini to'ldiruvchi muayyan munosabatlar mavjud. Aynan maqsadli yo'nalishlar tizimida nizolashuvchi maqsadlarning mavjud bo'lishi tijorat tashkiloti (firma) beqarorligining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Biznes ishtirokchilari manfaatlarining ierarxiyasi masalasi bo'yicha maxsus (shu jumladan, iqtisodiy tahlil bo'yicha) adabiyotlarda printsiplial jihatdan ikkita yondashuv mavjud: ingliz-amerika va evroosiyo.

Jahonda etakchilik qilayotgan (bugungi kunda klassik yondashuv hisoblangan) ingliz-amerika yondashuviga muvofiq faqat tashkilot mulkdorlari (firmaning mulkdorlar istagini bajaruvchi oliy menejerlari) uning faoliyat ko'rsatishining asosiy parametrlariga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi boshqaruv

qarorlarini qabul qilishga haqli. Boshqa tomonlarning ta'siri bilvosita ta'sir hisoblanib, odatda, firma faoliyatiga muayyan normativ, resurs va vaqtinchalik cheklovlarning o'rnatilishida namoyon bo'ladi. Bu ko'p jihatdan shu narsa bilan bog'liqki, AQSHda unga ko'ra oliy rahbariyatdan qiymatning aktsiyadorlar manfaatlari yo'lida maksimal darajada oshirilishi kutiladigan an'ana yuzaga keldi. Bunda aktsiyadorlar uchun qiymatning oshirilishi boshqa manfaatdor tomonlarning uzoq muddatli manfaatlariga zid kelmaydi, deb hisoblanadi. Aktsiya egalari kompaniyaning pul oqimlariga qoldiq da'vogarlar hisoblanadilar. Ular eng katta xatarga qo'l urishadi, lekin eng muhimi, ular – o'zi uchun to'g'ri va foydali qaror qabul qilishdan avval barcha boshqa talablar haqidagi axborotga ehtiyoj sezuvchi yagona da'vogarlar hisoblanishadi⁵⁶.

AQSHdan farqli o'laroq, Evropa va Osiyoda menejerlar boshqa manfaatdor tomonlar – ayniqsa, ishchi kuchi da'vogarlik qiladigan qiymatga yanada katta ahamiyat berishadi. Bunday nuqtai nazar qisman mulk va boshqaruvning tarkibi bilan qisman esa korporatsiyalar jamiyatda o'ynaydigan rol va ularning jamiyat oldidagi majburiyatlari bilan izohlanadi. Evropa va Osiyoda mehnatkashlar boshqaruv jarayonida AQSHdagiga qaraganda faolroq ishtirok etishadi. Germaniyada xodimlar qarorlar qabul qilishda bevosita ishtirok etish va kompaniya kuzatuv kengashi vakillarining yarmini saylash huquqiga ega⁵⁷. Buning oqibatida, kontinental Evropa va Yaponiyada og'irlik markazi iste'molchilar, etkazib beruvchilar, ishchilar, hukumat, qarz beruvchilar, kapital mulkdorlari va hatto jamiyat tomon surilgan. Ushbu mamlakatlarda qiymatning har bir aktsiyador manfaatlari yo'lida maksimal darajada oshirilishi ko'pincha uzoqni ko'ra olmaydigan, samarasiz, soddalashtirilgan va, ehtimol, jamiyatga qarshi siyosat hisoblanadi.

⁵⁶ Коупленд Т. Стоимость компании: оценка и управление /Т.Коупленд, Т.Коллер, Дж.Муррин; Под ред. Т.Коупленда: Пер. с англ. - М.:ЗАО "Олимп-Бизнес", 1999. с- 47.

⁵⁷Коупленд Т. Стоимость компании: оценка и управление /Т.Коупленд, Т.Коллер, Дж.Муррин; Под ред. Т.Коупленда: Пер. с англ. - М.:ЗАО "Олимп-Бизнес", 1999. с- 26.

Moliyaviy ko'rsatkichlar darajasida biznes maqsadlariga nisbatan ingliz-amerika va evroosiyo yondashuvlarining mohiyati va ular o'rtasidagi farqni tushunish uchun biznes ishtirokchilari manfaatlari muvozanatining soddalashtirilgan qiymat modeliga murojaat etamiz (8-jadval).

8-jadval

Biznes-jarayon ishtirokchilari manfaatlari muvozanatining qiymat modeli

Ko'rsatkich	Summa	Ishtirokchilar manfaatlarining guruhlar
Iste'molchilar uchun qiymat	1.100.000	
Iste'molchilar oladigan iqtisodiy foyda	100.000	Iste'molchilar manfaatlari
Sotishdan tushum	1.000.000	
Sotish tannarxi	- 300.000	Etkazib beruvchilar manfaatlari
Foiz to'lovlari	- 50.000	Qarz beruvchilar manfaatlari
YOllanma xodimlar mehnatiga haq to'lash xarajatlari	- 200.000	YOllanma xodimlar manfaatlari
Menejerlar mehnatiga haq to'lash va ularni mukofotlash xarajatlari	- 200.000	Menejerlar manfaatlari
Soliq solungunga qadar olingan foyda	250.000	
Soliqlar	- 100.000	Davlat manfaatlari
<i>Biznes sof foydasi</i>	<i>150.000</i>	
Dividendlar	- 100.000	Aktsiyadorlar manfaatlari
Firmaning sof foydasi(qayta investitsiya qilinadigan foyda)	50.000	Biznes real mulkdorlarining manfaatlari

Ushbu model firma faoliyatining joriy davrdagi ko'rsatkichlarini va moliyaviy natijalari to'g'risidagi hisobotlarni shakllantirishning klassik (ingliz-amerika) tamoyili bo'yicha qurilgan. Bunday tizimning asosiy ko'rsatkichi (biznesning sof foydasi) uning mulkdorlari manfaatlarini aks ettiradi. Biznes qiymatini shakllantiruvchi biznes-tizim boshqa ishtirokchilarining manfaatlari bunday yondashuv chog'ida bilvosita – bir tomonlama: aktsiyadorlarning qiymatdan manfaatdorligini kamaytiruvchi majburiy to'lovlar sifatida hisobga olinadi. Albatta, biznes qiymatini real shakllantiruvchi ishtirokchilar manfaatlarini bunday tor yo'nalishli “hisobga olish” ko'plab suv osti toshlarini – firma faoliyatining samaradorligini oshirishga qarzi rag'batlantiruvchi omillarni o'zida mujassam etgan (ayniqsa, biznes samaradorligi uzoq muddatli istiqbol nuqtai nazaridan ko'rib chiqilganda).

Ingliz-amerika yondashuvi chog'ida qidirilayotgan moliyaviy natijaning (aktsiyadorlar uchun sof foydaning) oshishiga bir yoki bir necha avvalgi

ishtirokchi da'vogarlarining "umumiy pirog" ulushiga "ishtahalarini qisqartirish" (masalan, xodimlarga juda past okladlar to'lash yoki soliqlarni to'lamaslik) hisobidan erishish mumkin. Lekin bunday moliyaviy siyosat faqat qisqa muddatli natijani berishi mumkin. O'z xodimlariga bozor darajasidan past ish haqi to'lovchi va qisqa muddatli istiqbolda shu yo'lni tutuvchi kompaniya uzoq muddatli istiqbolda o'zining eng yaxshi xodimlaridan ayriladi, pirovardida juda yomon ahvolga tushib qoladi. O'z mahsulotlariga yuqori narxlarni belgilagan holda bozorni birmuncha vaqt mobaynida "sog'ib oluvchi" kompaniya, agar yuqori narxlar bozorga yangi kuchli raqobatchilarning kelishini tezlashtirsa, uzoq muddatli istiqbolda qiymatni to'liq yo'q qilishi mumkin.

Uzoq muddatli istiqbol nuqtai nazaridan biznesning eng yuqori natijasiga, faqat biznes-jarayonning barcha ishtirokchilari manfaatlariga to'liq amal qilingan taqdirda erishish mumkin (Evroosiyo yondashuvi shuni nazarda tutadi). Lekin muammo shundan iboratki, Evroosiyo yondashuvi hozirgi vaqtda faqat maqsadlar darajasida mavjud. Moliyaviy ko'rsatkichlar darajasida (xususan, biznesning moliyaviy natijasi to'g'risida hisobot modelini shakllantirishda) "aktsiyadorlar uchun foyda" (ya'ni, mulkdorlar manfaatlari) boshchiligi klassik yondashuvi ustunlik qiladi⁵⁸.

Agar maqsadlar yassiligidan moliyaviy ko'rsatkichlar yassiligiga o'tilsa, yuqorida ko'rib chiqilgan biznes-jarayon ishtirokchilarining manfaatlarini uyg'unlashtirish muammosi printsiplial jihatdan quyidagi savolga javob beradi: «Qanday moliyaviy ko'rsatkich biznes asosiy ishtirokchilari manfaatlarini optimal tarzda hisobga oladi va shu bilan birga firma faoliyatining joriy natijalarini to'liq aks ettiradi?» Qo'yilgan savolning dastlabki qismi (barcha ishtirokchilar manfaatlarini to'liq hisobga olish) nuqtai nazaridan biznes mahsulotini sotishdan tushum ana shunday ko'rsatkich hisoblanadi. Biznes-jarayonning barcha

⁵⁸Бугунги кунда аксарият Америка, Англия, Япония, Канада, Голландия компанияларида фойдаланиладиган даромадлар тўғрисидаги ҳисоботнинг инглиз-америкача шакли жаҳонда устунилик қилмоқда [Ришар Ж. Аудит и анализ хозяйственной деятельности предприятия. Пер. с фр. под ред. Л.П. Белых. - М.: Издательство ЮНИТИ, 1997.-376с, 40-б.].

ishtirokchilar manfaatlarini qanoatlantirishning moliyaviy manbai hisoblanadi. Lekin tushum mazkur biznesda foydalaniladigan boshqa firmalar faoliyatining moddiylashtirilgan natijalarini ham o'z ichiga olganligi bois firma faoliyatining joriy natijalarini tavsiflay olmaydi (qo'yilgan savolning ikkinchi qismini qanoatlantirmaydi). Albatta, qidirilayotgan ko'rsatkich (o'z mohiyatiga va summasiga ko'ra) biznes-jarayon barcha ishtirokchilarining moliyaviy manfaatlarini o'zida mujassam etgan tushum bilan (biz keltirgan misolda - 1.000.000 so'm) aktsiyadorlar uchun sof foyda yoki biznes sof foydasi (biz keltirgan misolda - 150.000 so'm) o'rtasida turadi. Savol shundan iboratki, qaysi ishtirokchilar manfaatlarini mazkur biznes uchun tizimni hosil qiluvchi, qaysilarini esa unga nisbatan tashqi manfaatlar, deb hisoblash lozim.

Aytish mumkinki, birinchidan bir o'zida firma faoliyatining joriy natijalarini to'liq aks ettirgan holda biznesning asosiy ishtirokchilari manfaatlarini optimal tarzda hisobga oluvchi moliyaviy ko'rsatkichni shakllantirish algoritmi taklif etilgan. "Yangidan yaratilgan qiymat" ("qo'shilgan qiymat") ana shunday ko'rsatkich hisoblanadi.

Biz keltirgan misol shartlaridan kelib chiqib, tahlil etilayotgan biznesning yangidan yaratilgan qiymati 650.000 so'mni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich biznes ishtirokchilarining ikkita asosiy guruhi moliyaviy manfaatlarini o'z ichiga oladi: yollanma xodimlar (400.000 so'm) va mulkdorlar (250.000 so'm). O'z navbatida, aynan shu ishtirokchilar manfaatlari tizimini hosil qiluvchi manfaatlar hisoblanadi. Yollanma xodimlar (shu jumladan menejerlar) yangi qiymatni bevosita yaratadi. Mulkdorlar esa ushbu qiymatni yaratish usullari, shuningdek, biznes va firmaning taqdirini belgilab beradi. Qolgan manfaatlar egalari biznes qiymatini shakllantirishda bilvosita ishtirok etishadi va shuning uchun unga nisbatan tashqi ishtirokchilar (kontragentlar) hisoblanadi. Bu so'z davlatga ham taalluqli. U o'zining moliyaviy manfaatlarini soliq qonunchiligi tizimi orqali belgilaydi (ya'ni ushbu muayyan biznesga nisbatan bilvosita tarzda). Davlatning qiymat borasidagi manfaati biznesning yangidan yaratilgan qiymatiga «kirishi» uning biznesda

bevosita ishtirok etishini anglatmaydi (davlat tijorat tashkiloti mulkdorlarining tarkibiga kirgan holatlar bundan mustasno). Bu shuni anglatadiki, davlat o'z manfaatini korporativ soliqlar va jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqlar tizimi orqali biznes tizimni hosil qiluvchi ishtirokchilari moliyaviy manfaatining bir qismini majburiy undirish shaklida amalga oshiradi. Soliqlar (davlat manfaati) biznesning qo'shilgan qiymatini yaratish jarayoniga ta'sir ko'rsatmaydi. Soliqlarning istalgan stavkalarida (agar davlatning rag'batlantiruvchi rag'batlantirishga qarshi funksiyasini bir chetda qoldirsak) biznesning yangidan yaratilgan qiymati summasi bir xil bo'ladi (biz keltirgan misolda - 650.000 so'm). Soliq tizimi faqat yuqoridagi qo'shilgan qiymat tizimni hosil qiluvchi ishtirokchilar bilan davlat o'rtasida keyingi qayta taqsimlash jarayoni bilan bog'liq.

Shunday qilib, muayyan davrda firma faoliyatining moliyaviy natijalarini shakllantirish mafkurasi nuqtai nazaridan mulkdorlar va yollanma xodimlar manfaatlari tizimini hosil qiluvchi manfaatlar hisoblanadi. Lekin jamiyat hayotini axborotlashtirish va intellektuallashtirishning hozirgi jarayonlari biznes manfaatlari yuqorida ko'rsatilgan o'qida firma faoliyati joriy moliyaviy natijasining klassik ko'rsatkichlarini amalda kam yaroqli holatga keltiruvchi sifatli o'zgarishlarga olib keldi.

Printsipial jihatdan yuqorida ko'rsatilgan "mulkdor – yollanma xodim" manfaatlari tizimining sifatli o'zgarishlari jamiyat hayotini axborotlashtirish va intellektuallashtirish jarayonlari bilan bog'liq quyidagi kontseptual yondashuvlarda namoyon bo'ladi:

a) zamonaviy biznesda uning kapitali mohiyati va tarkibini printsipial jihatdan o'zgartiruvchi mehnat rolining "inson kapitali" va "intellektual kapital" mustaqil tushunchalarining shakllanishi darajasigacha ortishi (intellektual kapital kontseptsiyasi);

b) mulkchilik munosabatlarini demokratlashtirish, mehnat va kapitalni yaqinlashtirish (o'z mohiyatiga ko'ra, intellektual kapital kontseptsiyasining oqibati hisoblangan manfaatdor guruhlar kapitalizmi kontseptsiyasi).

Bundan tashqari, fikrimizga ko'ra, mulkdorlar va yollanma xodimlar manfaatlarini uyg'unlashtiruvchi firma faoliyatining joriy moliyaviy natijasini qidirib topishning O'zbekiston uchun dolzarbligi shu bilan bog'liqki, mulkning tarkibi va biznesni boshqarish falsafasi bo'yicha mamlakatimiz evroosiyo modelining vakili hisoblanadi. Bunda shuni qayd etish lozimki, O'zbekistonda aktsiyadorlik kapitalining tarkibi, mehnat jamoasi mamlakatimiz firmalari biznesining manfaatlari tizimida muhim o'rin tutadi. Lekin mulkdorlar ichida mehnat jamoasi a'zolarining ustunlik qilishi ularning strategik qarorlarni qabul qilishda birgalikda ovoz berishi omilini anglatadi. Ko'pincha ular manfaatlari dividend olishdan ko'ra kengroq bo'lgan mayda aktsiyadorlar sifatida ishtirok etishadi. Ular ko'proq ishchi kuchining iste'molchisi va to'lov manbai sifatida korxonani saqlab qolishdan manfaaddordirlar.

Manfaaddor guruhlar kapitalizmi kontseptsiyasi mulkchilik munosabatlarini demokratlashtirish (diffuziya) jarayoniga asoslanadi. Mulkchilik munosabatlarini demokratlashtirish jarayoni quyidagi omillar bilan tavsiflanadi:

- 1) huquqlarning bir qismi nomulkdorlarga (xodimlarga, davlat institutiga) o'tkazilishi va unvonli mulkdorlar huquqlarining qonun yoki jamoaviy shartnoma bilan cheklanishi;
- 2) boshqaruvning yangi shakllariga o'tilishi (mehnat va kapitalni birgalikda boshqarish, xodimlarning o'zini-o'zi boshqarishi);
- 3) xodimlarning o'z kompaniyasining daromadlarini taqsimlashda ishtirok etishga jalb qilinishi;
- 4) xodimlar korxona faoliyatining natijalaridan shaxsiy manfaaddorligi va buning oqibatida ular ijodiy faolligi va biznesga jalb etilishining kuchayishi.

Manfaaddor guruhlar kapitalizmi kontseptsiyasining oqibatlaridan biri sifatida quyidagi xulosa shakllandi: axborot jamiyatida ishlab chiqarish vositalari (biznes kapitali)ning ko'pincha kompaniya faoliyatida jismonan hech qanday ishtirok etmaydigan insonlarning kichik guruhi qo'lida monopollashtirilishi imkoniyati keskin qisqardi.

Shunday qilib, biznes asosiy ishtirokchilari (mulkdorlar va yollanma xodimlar)ning manfaatlarini optimal tarzda hisobga oluvchi ko'rsatkich sifatida "qo'shilgan qiymat" axborot jamiyatida g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi iqtisodiy sharoitda «qo'shilgan qiymat» tushunchasining mohiyatini ko'rib chiqishda uning ishchi kuchini takror tiklash xarajatlari (yoki tor ma'noda – ish haqi) va mulkdorlar daromadlari (foydasi) kabi asosiy unsurlari nisbatining o'zgarishi dinamikasini o'rganish muhim moliyaviy jihat hisoblanadi. Yuqorida ko'rib chiqilgan mulkchilik munosabatlarini demokratlashtirish jarayoni moliyaviy nuqtai nazardan, birinchi navbatda, yangidan yaratilgan qiymatning ushbu unsurlari o'rtasidagi katta farqlarga barham berilishini anglatadi. Mehnatga haq to'lash va biznes mulkdorlari daromadlari o'rtasidagi farq siyosiy nuqtai nazardan sinfiy antagonizmni asoslash, mehnatni kapital bilan boshqarishga asoslangan industrial jamiyat uchun, soliq solish nuqtai- nazardan esa takroriy fiskal yukka barham berish uchun chuqur ma'no kasb etadi. Lekin iqtisodiy nuqtai nazardan qo'shilgan qiymatning ikkala unsuri ham bitta vazifani bajaradi – biznes inson kapitalini (yollanma xodim va mulkdorlar timsolida)qayta tiklashning moliyaviy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Yakuniy natijani shakllantirishda mulkdor va mutaxassis ahamiyatining tenglashganligi to'g'risidagi xulosa shuni anglatadiki, hozirgi sharoitda biznesning yangidan yaratilgan qiymatini ish haqi va firma faoliyatining yakuniy moliyaviy natijasi sifatida foydaga bo'lish iqtisodiy tahlil qilish va biznesni baholash uchun o'z ahamiyatini yo'qotmoqda. Eng muhimi yangidan yaratilgan qiymat summasi va uni intellektual va ashyoviy kapitalning barcha unsurlari o'rtasida oqilona taqsimlash. Bugungi kunda nafaqat mehnat yoki kapital, balki umuman butun tizim boylik manbai sifatida ishtirok etishi tobora oydinlashib bormoqda. Unda intellektual kapital va butun biznes kapitalining asosi sifatida inson kapitali markaziy o'rin tutadi.

O'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, «qo'shilgan qiymat» ko'rsatkichi "foyda" - biznes faoliyat ko'rsatishining iqtisodiy samarasi klassik ko'rsatkichi

bilan bir hodisani tavsiflaydi. Ular o'rtasidagi farq baholanayotgan biznes-tizimning chegarasini chizishdan iborat.

Foyda firmaning daromadlari bilan biznes faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan barcha ishlab chiqarish omillarini sotib olish xarajatlari o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Bunday yondashuv chog'ida biznes-tizim faqat uning mulkdorlarini o'z ichiga oladi. Mazkur holatda inson kapitalining katta qismiga (xususan, barcha yollanma xodimlar va ular bilan bog'liq barcha narsalarga) ko'rib chiqilayotgan biznes-tizimga nisbatan tashqi omil sifatida qaraladi. Moliyaviy nuqtai nazardan bevosita biznesda band bo'lgan xodimlar mehnatiga haq to'lash, ularni ijtimoiy ta'minlash va o'qitish summasi biznesning kapitali emas, balki uning xarajatlari sifatida ko'rib chiqiladi.

Qo'shilgan qiymat korxona daromadlari bilan uning biznesi faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan, lekin to'lig'icha unga nisbatan tashqi kontragentlar tomonidan yaratilgan ishlab chiqarish omillarini xarid qilish xarajatlari o'rtasidagi farqni o'zida namoyon etadi. Unda mazkur tushuncha bevosita tilga olinadigan frantsuz-olmon modeli tili bilan aytganda, qo'shilgan qiymat – bu ishlab chiqarish hajmi bilan uni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan oraliq iste'mol o'rtasidagi farq.

Shunday qilib, qo'shilgan qiymat hisob-kitob mexanizmi bo'yicha ish haqi summasi va balans foydasini; iqtisodiy mohiyatiga ko'ra kompaniya o'z faoliyati bilan unda foydalaniladigan resurslar ustiga qo'shadigan qo'shimcha qiymatni o'zida namoyon etadi. Yangidan yaratilgan qiymat – firma jamoasi mehnatining natijasi, ishlab chiqarish jarayonidan ko'rilgan xarajatlardan ortiqcha olingan va mehnat jamoasi, mulkdor va umuman jamiyat o'rtasida taqsimlanadigan qo'shimcha mahsulot.

Har qanday davlatning ushbu muhim milliy mezonni ko'paytirishga intilishi tabiiy, lekin buning uchun barcha ishlovchi kompaniyalar o'z faoliyatini baholash maqsadida milliy mezondan hosil bo'lgan mezon, ya'ni YaIMni qo'llashi kerak. Biroq amalda tijorat tashkilotlari mezon sifatida foyda maksimumini qo'llaydi, bu

umuman milliy iqtisodiyot manfaatlari va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar manfaatlarining uyg'unligiga rahna soladi. Ushbu manfaatlarni to'liq uyg'unlashtirish uchun faoliyat ko'rsatib turgan korxonalarni baholash mezonini o'zgartirish, ya'ni yangidan yaratilgan qiymat ko'rsatkichiga o'tish zarur. Bunday mezon bo'yicha ishlovchi barcha firmalar eng yaxshi yakuniy milliy natijani avtomatik tarzda ta'minlaydi. Barcha faoliyat yuritib turgan tashkilotlar bo'yicha yangidan yaratilgan qiymatlarning umumiy miqdori iqtisodiyotning yakuniy natijasini tashkil etadi. O'z navbatida, bozor iqtisodiyotida aynan yangidan yaratilgan qiymat milliy xo'jalikning barcha darajalarida ishlab chiqarishning yakuniy natijasini to'liq aks ettiruvchi moliyaviy mezon hisoblanadi.

Biz tomonimizdan ko'rib chiqilayotgan muammoning mohiyati shundan iboratki, yuqorida ko'rib chiqilgan zamonaviy biznes muhim xususiyatlarining tubdan o'zgarishiga, shuningdek, "qo'shilgan qiymat" ko'rsatkichining yaqqol ustunliklariga qaramay, barcha hisob standartlarida, amaliy iqtisodiy tadqiqotlar va metodikalarda "foyda" firma faoliyati joriy moliyaviy natijasining asosiy va yagona ko'rsatkichi bo'lib qolmoqda. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot – bu "foyda" ko'rsatkichini shakllantirish to'g'risidagi hisobot. Iqtisodiy va moliyaviy tahlilda moliyaviy natija va samaradorlik (rentabellik) ko'rsatkichlari "foyda" ko'rsatkichiga asoslangan.

"Qo'shilgan qiymat" ko'rsatkichi va intellektual kapital kontseptsiyasidan tijorat tashkilotining faoliyatini boshqarish jarayonida amaliy foydalanish quyidagilarni talab etadi:

a) intellektual kapitalni takroriy tiklash xarajatlari buxgalteriya hisobini yuritish qoidalariga tuzatishlar kiritish;

b) firma faoliyati moliyaviy natijasining ko'rsatkichlari va firma faoliyatining moliyaviy natijasi to'g'risidagi hisobotlarni yangicha talqin etish.

Fikrimizga ko'ra, hozirgi vaqtda qo'llaniladigan oshkora buxgalteriya hisobi standartlari (moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, balans va boshqalar) biznes moliyaviy natijasining bir tomonlama modeli hisoblanadi. Ilgari ta'kidlanganidek,

yuqorida ko'rsatilgan hisobotlar (ular asosida yotuvchi ingliz-amerika yondashuvi ham) ko'proq firma mulkdorlarining manfaatlariga «xizmat qiladi». Ushbu bo'limda ko'rib chiqilayotgan hisobot shakli (buxgalteriya balansi) nuqtai nazaridan vaziyat yanada tor yo'nalishga ega. U ilgari erishilgan qo'shilgan qiymat va foydaning faqat biznesga qayta investitsiya qilingan qismi to'g'risidagi axborotni o'zida jamlaydi. Bu shunda namoyon bo'ladiki, foyda va zararlar haqidagi axborotdan har bir joriy davr uchun balansga davlat, yuridik shaxsning xodimlari va mulkdorlari o'rtasida taqsimlanmagan summa to'g'risidagi (ya'ni firma faoliyati moliyaviy natijasining qoldiq ko'rsatkichi to'g'risidagi) ma'lumotlar ko'chiriladi. Agar moliyaviy natijalar va to'plangan ne'matlar alohida ajratilgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar nuqtai nazaridan tahlil qilinsa, bunday yondashuv o'zini oqlaydi. Agar biznes faoliyat ko'rsatishining natijalari haqida gapiradigan bo'lsak, uning barcha tizimni hosil qiluvchi ishtirokchilarining moliyaviy manfaatlari qondirilganligi to'g'risidagi hisobot axboroti zarur.

3-bob bo'yicha xulosalar

Intellektual kapitali kontseptsiyasi, qiymatni yaratishni ko'zlovchi boshqarish kontseptsiyasi (VBM) va biznes qiymatini yaratish omillari zanjiri kontseptsiyasining qoidalarini hisobga olib tuzatish kiritgan holda, biznesning yalpi axborot-tahliliy modeli sifatida alohida ko'rsatkichlarning quyidagi tizimini taklif etamiz:

- asosiy faoliyat ko'rsatkichlari;
- inson resurslarini boshqarish ko'rsatkichlari;
- axborot texnologiyalari ko'rsatkichlari;
- yangi joriy etilgan biznes ko'rsatkichlari;
- mijoz kapitali ko'rsatkichlari;
- moliyaviy ko'rsatkichlar.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy biznesning muhim xususiyatlari o'zgarishiga qaramay barcha hisobga olish va baholash

standartlarida, shuningdek, amaliy iqtisodiy qo'llanmalarda "foyda" firma faoliyati joriy moliyaviy natijalarining asosiy ko'rsatkichi bo'lib qolmoqda. Lekin xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatining moliyaviy natijasi sifatida faqat foyda ishtirok etadimi? Iqtisodiy adabiyotlarda "foyda" atamasidan tashqari "daromad" va "qo'shilgan qiymat" kabi boshqa ko'rsatkichlar ham uchrab turadi. "Qo'shilgan qiymat" ko'rsatkichi jahonning ko'plab davlatlarida biznesga soliq solish chog'ida faol qo'llaniladi. Bunda hozirgi zamonda jamiyat hayotining barcha tomonlarini axborotlashtirish va intellektuallashtirish, mulkchilik munosabatlarini demokratlashtirish va biznesni boshqarish tizimidagi tub o'zgarishlar sharoitida "qo'shilgan qiymat" ko'rsatkichining ahamiyati yanada ortadi.

Shuningdek, "Qo'shilgan qiymat" ko'rsatkichi va intellektual kapital kontseptsiyasidan tijorat tashkilotining faoliyatini boshqarish jarayonida amaliy foydalanish quyidagilarni talab etadi:

a) intellektual kapitalni takroriy tiklash xarajatlari buxgalteriya hisobini yuritish qoidalariga tuzatishlar kiritish;

b) firma faoliyati moliyaviy natijasining ko'rsatkichlari va firma faoliyatining moliyaviy natijasi to'g'risidagi hisobotlarni yangicha talqin etish.

Fikrimizga ko'ra, hozirgi vaqtda qo'llaniladigan oshkora buxgalteriya hisobi standartlari (moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, balans va boshqalar) biznes moliyaviy natijasining bir tomonlama modeli hisoblanadi.

Xulosa va takliflar

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish sharoitida mamlakatimiz iqtisodiyotiga kirib kelgan tushunchalardan biri intellektual kapital bo'lib, bugungi kunda korxonalar faoliyatini rivojlantirish, yangi texnika va texnologiyalar bilan jihozlashda intellektual kapital alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Intellektual kapital hisobini tashkil qilish va takomillashtirish yuzasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Kelajak korxonasining maxsus iqtisodiy fanlar uslubiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy xususiyatlari belgilandi: strategiya va istiqbolga yo'naltirilishi, globallashtirish, yuqori darajadagi moslashuvchanlik, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, innovatsiyalar rolining ortishi, mahsulotni yangilashni jadallashtirish, funktsiyalar integratsiyasi va o'zaro bog'liqligi, qo'shilgan qiymatni yaratish va ishning sifatiga yo'naltirish, biznes-tizim barcha ishtirokchilarining manfaatlarini hisobga olish.

Buxgalteriya hisobi va iqtisodiy tahlil metodologik usullarini shakllantirish maqsadida «biznes», «kapital», «intellektual kapital» tushunchalarining mohiyatini va mavjud bo'lish shakllarini aks ettiruvchi tushunchalarga aniqliklar kiritish va ularni tasniflash bilan bog'liq. Transaksion tahlil asosida chiqarilgan firma instituti maxsus iqtisodiy fanlar tomonidan deyarli qabul qilinmaganligi asoslandi. SHu munosabat bilan buxgalteriya hisobi va iqtisodiy tahlil fanlarining ob'yekti sifatida «biznes» tushunchasini ko'rib chiqish taklif qilindi.

Ishlab chiqarish omili sifatida axborot va bilimlar rolining o'zgarishini tahlil qilish jarayonida intellektual kapital *tarkibiy qismlarini* tijorat tashkilotining aktivlari sifatida tasniflash maqsadida ular *tarkibi aniqlanib*, buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit institutlarini isloh qilish uchun asos sifatida intellektual kapital kontseptsiyasi asoslandi.

Intellektual kapitalning ko'rib chiqilgan tarkibiy tuzilishi printsipl jihatdan biznes qiymatini oshirish uchun ishchi kuchi (*inson kapitali*) nima (*mijoz kapitali*), qanday (*tashkiliy kapital*) va nimaning yordamida (*moliyaviy-sanoat kapitali*) qilish kerak (*biznes transaksiyasi*), degan savollarga javob beruvchi unsurlardan tarkib topgan. Intellektual kapital (va butun biznes kapital)ning asosini inson kapitali tashkil qiladi, lekin bozor sharoitida intellektual kapital (va butun biznes kapital) tizimida yo'naltiruvchi (maqsadli) rolni mijoz kapitali o'ynaydi.

2. Hozirgi sharoitda gudvill kontseptsiyasi xo'jalik yurituvchi sub'ektning nomoddiy aktivlarini hisobga olishning identifikatsiyalanmagan usuli sifatida yaroqsizligi asoslanib, muayyan amaliy misollarda isbotlangan; uning mavjud bo'lishini sub'ektiv va ob'yektiv sabablari tadqiq etilgan. Mulkchilik huquqlari neoinstitutsional nazariyasining qoidalarini sintez qilish asosida korxonaning gudvill tarkibidan ajratiluvchi identifikatsiyalanadigan nomoddiy aktivlari tizimi taklif etildi:

- mutaxassisning vaqti, bilimlari va ko'nikmalaridan muntazam foydalanish uchun mutlaq huquqlar;
- ishlab chiqarish sirini tashkil etuvchi tashkiliy axborotdan foydalanish uchun mutlaq huquqlar;
- tijorat sirini tashkil etuvchi tashkiliy axborotdan foydalanish uchun mutlaq huquqlar;
- firma doirasida yaratiladigan kundalik axborot resurslari va texnologiyalaridan foydalanish uchun mutlaq huquqlar;
- biznesning umumiy ishchi kuchidan foydalanish uchun mutlaq huquqlar;
- firmaning tashkiliy tuzilmasi va biznesni boshqarish tizimidan foydalanish uchun mutlaq huquqlar;
- elektron aloqa tarmoqlaridan foydalanish huquqi;
- tijorat sherikchiligida, xoldingda, MSGda, ishtirok etishdan olinadigan *iqtisodiy foydaga egalik huquqi*;
- mahsulotni tarqatish tijorat tarmog'idan foydalanish huquqi;

- ishbilarmonlik nufuzi (tijorat va'dalarini bajarish)dan erishiladigan *iqtisodiy foydaga egalik huquqi*.

Intellektual kapitalni identifikatsiyalangan tarzda hisobga olish yuzasidan quyidagi takliflar berildi:

- yuqorida ta'kidlangan aktivlarni hujjatli biriktirish algoritmi;
- buxgalteriya hisobida ularning dastlabki qiymatini aks ettirish qoidalari,
- biznes *intellektual kapitali tarkibiy qismlariga qo'yilmalarni* buxgalteriya hisobida aks ettirish qoidalari.

3. Ilmiy ishda xo'jalik sub'ekti xarajatlarini ustavda belgilangan faoliyat turini amalga oshirish bilan bog'liq joriy xarajatlarga va taklif etilayotgan identifikatsiyalanadigan nomoddiy aktivlarga kiritiladigan kapital qo'yilmalarga bo'lish yuzasidan amaliy tavsiyalar taklif etilgan. Bunda biznes *intellektual kapitalini yaratish va faol holatda saqlab turishga qo'yilmalarni kapitallashtirish* va amortizatsiya qilishning muayyan qoidalari taklif etilgan.

4. Biznes qiymatini yaratish omillari tizimining funktsiyalari sifatida integral mezonning mohiyati tadqiq etilib, hozirgi sharoitda "biznes ichki qiymati" ko'rsatkichi maqsadli integral mezonning umumlashtiruvchi modeli sifatida xizmat qilishi maqsadga muvofiqligi isbotlandi. Transaksiya xarajatlari nazariyasining tamoyillariga muvofiq biznes kategoriyasini tavsiflovchi mezonlarning ikki xili ajratilgan: bozor transaksiyasining ob'yekti sifatida biznesni baholashda qo'llaniladigan mezonlar; firma faoliyatini boshqarish jarayonida qo'llaniladigan ko'rsatkichlar va hisobotlar.

Iqtisodiy qo'shilgan qiymat modellarini tasniflash va tahlil qilish asosida biznes qiymatini yaratish omillarining funktsiyalari sifatida "biznes ichki qiymati" ko'rsatkichini hisoblab chiqish printsiplial algoritmi tavsiya etildi.

5. An'anaviy moliyaviy hisobotlarni biznes intellektual kapitali va transaksionalari to'g'risidagi hisobotlar bilan to'ldirish taklif etildi. SHuningdek, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashqi hisobotlarini tayyorlash tamoyillari va undagi mavjud axborotni manfaatdor foydalanuvchilarga taqdim etish texnologiyasi takomillashgan usuli taklif etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. Rasmiy nashr. –T.: Adolat, 2008. – 692 b.
2. O'zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonuni. –T.: 1996.
3. O'zbekiston Respublikasi “Auditorlik faoliyati to'g'risida”gi qonuni. –T.: 2008 y.
4. Prezidenti Islom Karimovning “Soglom bola yili” Davlat dasturi. 2014 yil.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 23 martdagi PQ-1306-sonli “2010 yilda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturi to'g'risida”gi Qarori
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti PP-1213 “O'zbekiston Respublikasining 2013 yilga investitsion dasturi haqida”gi Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. «Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida». 2009 yil 20 yanvar, PQ-1041-son.
8. O'z.R. Prezidentining O'zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat byudjeti parametrlari to'g'risidagi qarori. 21.12.2013 y.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2008 yil 18 noyabr, PF-4053-son.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va

eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida. 2008 yil 28 noyabr, PF-4058-son.

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Iqtisodiyotning real sektori sohasida korxonalarni va investitsion faollikni kredit yo'li bilan qo'llab-quvvatlashni ta'minlash masalalarini ko'rib chiqish tartibi to'g'risida" 288-sonli qarori. –T.: 31.12.2008 y.

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tarkibi to'g'risida»gi Nizom. 54- qarori. –T.: 1999y.

II. Prezident asarlari

13. Karimov I.A. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. Xalq so'zi gazetasi. 2014 yil 19 yanvar.

14. I.A.Karimov. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. "Xalq so'zi" gazetasi, 2013 yil 19 yanvar, № 13 (5687).

15. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. –T.: O'zbekiston, 2012. – 36 b.

16. Karimov I.A. Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. –T.: O'zbekiston, 2009. – 56 b.

17. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2009. – 176 b.

III. Sohaga oid me'yoriy hujjatlar

18. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standartlari to'plami. – T.: «Norma» MCHJ, 2010 y. – 352 b.

19. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlarining rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma. BHMS №21. – T.: Norma, 2010 y.

20. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining «1 yanvar holati bo'yicha asosiy fondlarni har yili qayta baholashni o'tkazish tartibi to'g'risida» nizom. –T.: 2013 y.

IV. Asosiy adabiyotlar

21. Xasanov B.A. Boshqaruv hisobi. /Darslik –T.: Iqtisod, 2011. -307 b.

22. Xolbekov R. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. /Darslik –T.: CHo'lpon, 2011. -185 b.

23. Nechitaylo A.I. Teoriya buxgalterskogo ucheta: ucheb. Rossiya . -M.: Prospekt, 2010. – 272 s.

24. Jo'raev N., Abduvaxidov F., Sotvoldieva D. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik. -T.: "Iqtisod-moliya", 2012 y. 480-bet.

25. Kaspina R.G., Plotnikova L.A. Buxgalterskiy uchet vneshne-ekonomicheskoy deyatelnosti: ucheb. posob. Rossiya.-M.: Eksmo, 2010. – 432 s.

26. Kasyanova G.YU. Osnovnie sredstva: buxgalterskiy i nalogoviy uchet. Rossiya .-M.: BAK, 2010. – 256 s.

27. Xvostik T.V. Praktikum po buxgalterskomu (finansovomu) uchetu: ucheb. posob. Rossiya . -M.: FORUM, 2010. – 176 s.

28. Klimovich V.P. Osnovi bankovskogo audita: ucheb. Rossiya . - M.: FORUM, 2010. – 192 s.

29. Druri K. Upravlencheskiy i prizvodstvenniy uchet: per. s angl. -6-e izd. – M.: YUNITI-DANA, 2007. – 1423 s.

30. Podolskiy V.I., Savin A.A. Audit: uchebnik. Rossiya . -M.: YUrayt, 2010.–605s.

31. Pugachyov V.V. Vnutrenniy audit i kontrol. Organizatsiya vnutrennego audita v usloviyax ekonomicheskogo krizisa: ucheb. Rossiya . -M.: Delo i Servis, 2010. – 224 s.
32. Kondrakov N.P. Buxgalterskiy (finansoviy, upravlencheskiy) uchët: ucheb. – M.: Prospekt, 2009. – 448 s.
33. Shilenko S.I. i dr. Osnovi audita: uchebnik. – M.: KNORUS, 2009. – 152 s.
34. Sheremet A.D., Suyts V.P., «Audit», M, «INFRA-M», 2009 -401 str.
35. Sokolova, E.S. Buxgalterskoe delo: uchebnik. - M.: Visshee obrazovanie, 2008.- 328 s
36. Jo'raev N., Xolbekov R., Abduvaxidov F., Ilxomov I. Buxgalteriya xisobi, iqtisodiy taxlil va audit. Darslik. -T.: 2007 y
37. To'laxo'jaeva M. Ilxomov SH. Audit. O'quv qo'llanma. –T.: 2006 y.
38. Do'stmuratov R.D. Audit asoslari. –T.: «O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi» nashriyoti, 2003. – 612 b.
39. O'razov K., Voxidov S. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari. /Darslik. –T.: ADIB NASHIRIYOTI, 2011. - 488 b.
40. Sotivoldiev A. S. Zamonaviy buxgalteriya xisobi. Darslik. –T. BAMA, 2005 y
41. Zamuraeva L.E. Upravlenie zatratami: Uchebnoe posobie. Tyumen: Izdatelstvo Tyumenskogo gosudarstvennogo universiteta, 2005. – 264 s.
42. Karimov A.A. Buxgalteriya hisobi. /Darslik -T.: SHarq, 2004.-592 b.
43. Ergasheva SH.T. Buxgalterskiy uchët. Uchebnoe posobie. / -T.: Iqtisod-moliya, 2011. -520 str.
44. Sotivoldieva D, A. Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xarajatlari hisobining nazariy hamda uslubiy asoslari. Monografiya. –T.: Iqtisodiyot, 2013. – 106 b.

V. Qo'shimcha adabiyotlar

45. O'zR Prezidenti I.A.Karimovning 2011 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisidagi "2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi" ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma.-T.: "O'qituvchi" NMIU, 2012.- 272 bet.

46. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir" hamda "Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir" nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2010.

47. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning BMT sammitining Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisidagi nutqini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent: "Iqtisodiyot" nashriyoti, 2010. – 146 bet.

48. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrdagi qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua, T.: "Iqtisodiyot" 2010.

49. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. Tuzuvchilar: B.YU. Xodiev, A.SH.Bekmurodov, U.V.G'ofurov, B.K.Tuxliev. –T.: Iqtisodiyot, 2009. -120 b.

50. Endovitskiy D.A., Ishkova N.A. Uchet tsennix bumag: ucheb. posob. Rossiya.-M.: KNORUS, 2010. – 384 s.

51. Kaspina R.G., Plotnikova L.A. Buxgalterskiy uchet vneshneekonomicheskoy deyatel'nosti: ucheb. posob. Rossiya.-M.: Eksmo, 2010. – 432 s.
52. Medvedev M.Yu. Uchetnaya politika organizatsii na 2010 god: prakticheskoe posobie. Rossiya. M.: KNORUS, 2010. – 248 s.
53. Xvostik T.V. Praktikum po buxgalterskomu (finansovomu) uchetu: ucheb. posob. Rossiya . -M.: FORUM, 2010. – 176 s.
54. Kasyanova G.YU. Uchetnaya politika: buxgalterskaya i nalogovaya. Rossiya -M.: ABAK, 2010. – 160 s.
55. Kulikova L.I. Uchetnaya politika organizatsii: novoe reshenie. Rossiya . - M.: Buxgalterskiy uchet, 2010. – 336 s. – 2 ekz.
56. Medvedev M.Yu. Uchetnaya politika organizatsii na 2010 god: prakticheskoe posobie. Rossiya. M.: KNORUS, 2010. – 248 s.
57. Nechitaylo A.I. Teoriya buxgalterskogo ucheta: ucheb. -M.: Prospekt, 2010. – 272 s.
58. Zonova A.V. i dr. Buxgalterskiy uchet i analiz: ucheb. posob. pod red. A.V. Zonovoy. – M.: Eksmo, 2009. – 512 s.
59. Kamordjanova N.A., Kartashova I.V. Buxgalterskiy finansoviy uchet. 4-e izd., dop. – SPb.: Piter, 2009. – 288 s.
60. Kuter M.I. Teoriya buxgalterskogo ucheta: Uchebnik.- 3-e izd., pererab. i dop. – M.: Finansi i statistika , 2008.- 592 s.
61. Brizgalin A.V., Bernik V.R., Golovkin A.A., Demesheva E.V. Nalogoviy uchet i nalogovoy politiki predpriyatiya. – Izu. 2-s.-M.: «Analitika-Press», 2008. – Str.14.
62. Zaxarin V.R. Uchet osnovnix sredstv i nematerialnix aktivov: spravochnik buxgaltera: prakt. rukovodstvo.- M.: Eksmo, 2008.- 320 s.
63. Konstantinova E.P. Mejdunarodnie standarti finansovoy otchetnosti: Ucheb. posob. – M.: «Dashkov i K », 2008. – 288 s.

64. Taking Control of IT Costs (Upravlenie zatratami na informatsionnie texnologii). Izdatelstvo Financial Times, 2000. – 272 s.

65. Pochinok A. Audit i nalogovoe zakonadatelstvo. // Audit.-2007. №4.

66. Jumaev I. Xarajatlarni boshqarish. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi, –T., 2009. №6. –B. 33.

67. Ibragimov A. Bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruv hisobi. //Soliq solish va buxgalteriya hisobi. –T., 2007. -№2. –B. 15-17.

68. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditni rivojlantirish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallarit to'plami. –T.: TDIU 2012 y. – 344 bet.

VI. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

69. «O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi» jurnal. –T.: 2010-2014 yillar

70. «Bozor, pul va kredit» jurnal. –T.: 2010-2014 yillar

71. «Solik va bojxona xabarleri» gazeta. –T.: 2010-2013 yillar

72. O'zbekistonning 2013 yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko'rsatkichlari. –T.: O'zbekiston, 2014.

73. “Iqtisodiyot va ta'lim” jurnal. –T.: 2010-2014 yillar.

VII. Internet saytlari.

74. “Norma” 2014.

75. “Pravo” 2014.

76. www.ziynet.uz